

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

M.J.MUTALIPOVA, B.X.XODJAYEV

QIYOSIY PEDAGOGIKA

(DARSLIK)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan 2014 yil 9 iyunda 220-sonli buyrug'iga asosan 5110900 –
pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lif yo'naliishlari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan.**

Toshkent – 2015

Аннотация

Мазкур дарслік мазмұнида қиёсий педагогика фаныннинг назарий-методологияк асослари, қиёсий педагогик тәдқиқоттарнинг долгзарб йұналишлари ва таралғанын босқычлари, педагогик тизимларни таққослаш технологияси ва тәдқиқот кишиш босқычлари ҳамда қиёсий педагогикада тәдқиқоттар типологияси, олий таълим вариативлігіннің қиёсий асослари үз аксина топған. Шунингдек, Ўзбекистон, Осиё ва Европа давлатлари таълим тизимининг үзігі хос жиһатлари ва қиёсий таҳлили берилған.

Annotation

В настоящем учебнике отражены теоретические и методологические основы сравнительной педагогики, этапы развития и типология исследований и актуальные направления исследований по сравнительной педагогике, технология сравнения и уровни исследования педагогических систем, сравнительные основы вариативности образования в ВУЗе. А также дается сравнительный анализ своеобразных особенностей систем образования Узбекистана и государств Азии и Европы.

Abstract

In persisting textbook reflected theoretical and methodological bases comparative pedagogical, stages of the development and typology of the studies and actual directions of the studies on comparative pedagogic, technology of the comparison and level of the study of the pedagogical systems, comparative bases of variability formation in high school. As well as is given benchmark analysis of the systems of the formation of Uzbekistan and state to Asia and Europe.

Taqrızchilar: pedagogika fanlari doktori, professor

N.M.Egamberdiyeva,

pedagogiga fanlari doktori, professor

Sh.E.Qurbanov

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasida qiyosiy pedagogik tadqiqotlarga hozirgi kundagi qiziqish ikkita eng muhim tendensiyaga bog'liqligi bilan tushuntiriladi. Birinchisi yurtimizning mustaqillikka erishishi va milliy ta'lif tizimining shakllanishi va rivojlanishi bo'lsa, ikkinchisi – globallashuv va jamiyatni axborotlashtirish, mavjud jahon tendensiyalari hamda jahon ta'lif sarhadlariga integratsiyaning zarurligidadir.

Iqtisodiyotning globallashuv jarayoni, transmilliy kompaniyalar, jahon moliyaviy korporatsiyalari va shu kabi tashkilotlarning rivojlanishi dunyoning turli mamlakatlaridagi ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarga qat'iy talab qo'ymoqda. Bu esa o'z navbatida turli davlatlar ta'lif tizimini jahon standartlariga moslashtirish va tenglashtirish masalasini qo'ymoqda. Boshqacha qilib aytganda, ta'lif tizimlarini taqqoslash, buning uchun chet el ta'lif tajribalarini o'rghanish, tahlil qilish va ijobjiy jihatlarini "ko'chirish" zarurati paydo bo'ldi. Lekin shunchaki "ko'chirish" emas, balki har bir xalqning milliy-madaniy mentaliteti, o'ziga xosligi, urf-odatlari, an'analarini saqlagan holda amalga oshirish, shu bilan birga raqobatbardosh ta'lif tizimini yaratish masalasi nazarda tutiladi. Qo'lingizdagи "Qiyosiy pedagogika" darsligi yurtimizda mazkur fan bo'yicha ilk darslik bo'lib, uning mazmunida aynan shu masala bo'yicha ma'lumotlar berilgan:

1. Yurtimiz va chet el olimlarining "Qiyosiy pedagogika"ga oid ilmiy ishlari, xulosalari asosida qiyosiy-pedagogik tizimlar, taraqqiyot va tadqiqot bosqichlari o'rGANIB chiqildi.

2. Qator davlatlar ta'lim tizimi, uning yurtimiz ta'lim tizimi bilan o'xshash va farqli jihatlari aniq ma'lumotlar bilan berildi.
3. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi mazmuni ko'p variantli test asosida ham yoritildi.
4. Darslikda u yoki bu davlat ta'lim tizimining o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi ayrim ta'lim muassasalari haqida so'z yuritildi, bu esa o'z navbatida talabalar dunyoqarashini kengaytirib, milliy va regional ta'limdagi xilma-xillikni ko'rish imkonini beradi.
5. Darslikda shuningdek, rasmlar, chizmalar berilgan, bu vizual ma'lumotlar o'z navbatida mavzuni oson tushunishga yordam beradi.
6. Darslik mazmunida berilgan tasniflash, tizimlashtirish, turli ta'lim tizimlarini taqqoslash "Qiyosiy pedagogika"ni pedagogik fanlarning bir turi sifatida o'rganish zaruratini ko'rsatadi.
7. O'z- o'zini tekshirish uchun savollar va topshiriqlar nazariy ma'lumotlarni to'liq tushunib olishga yordam beradi.
8. Darslik mazmunini o'zlashtirgan talaba qiyosiy-pedagogik tadqiqot o'tkaza olish malakasiga ega bo'ladi.
9. Xalqaro dasturlar va grantlar e'lon qiluvchi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi haqida to'liq va aniq ma'lumotlar olish imkonini beradi.
10. Darslikda "Bilasizmi?", "Bu qiziq!" ruknlari ham berilgan, unda dunyo ta'lim sarhadlarida amalga oshirilayotgan qiziqarli ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.
11. Darslikda yurtimiz va qator chet el davlatlari ta'lim tizimi qiyosiy tahlil qilindi. Bu davatlardagi maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy ta'lim uzluksiz ta'lim turlari sifatida ko'rib chiqildi.

Yurtimiz ta'lim sohsida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olish uchun ta'limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, ta'limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o'rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o'quv tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish masalalari mazkur qo'llanmaning asosiy maqsadidir.

Mualiflar "Qiyosiy pedagogika" fani bo'yicha yaratilgan ilk darslik bo'yicha sizning fikr-mulohazalarингизни kutib qoladi.

I BO'LIM. QIYOSIY PEDAGOGIKA FANINING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

I BOB. QIYOSIY PEDAGOGIKA – MUSTAQIL FAN SIFATIDA

Tayanch tushunchalar:

qiyosiy tahlil, qiyosiy pedagogika, komparativ pedagogika, tizimlashtirish, tavsiflash metodi, statistik metod, tarixiy metod, sotsiologik metod.

“Qiyosiy pedagogika” tushunchasi

So'nggi vaqtarda respublikamizda jahon ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish va ilg'or tajribalarni respublikamizda ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoxda. Ana shu sababli hozirgi kunda “qiyosiy pedagogika” atamasi keng ommalashdi. Shuningdek, mazkur tushuncha turli davlatlar ta'lim tizimida ham o'ziga xos talqiniga ega. Jumladan, nemis tilida “vergleichende Pedagogik”, fransuz tilida “pedagogie cotpareë” atamalari bilan izohlanadi. Ingliz tili asosiy til hisoblangan davlatlarda “comparative ta'lim” tushunchasini qiyosiy pedagogika bilan sinonim sifatida foydalilanildi. Ana shu sababli olimlar o'rtaida qay bir tushunchani qo'llash o'rinni bo'ladi degan munozarali fikr mavjud. “Comparative ta'lim” tushunchasi tarafдорлари taqqoslash obyekti sifatida ta'lim tizimi aks etishini ta'kidlaydilar. Biroq qiyoslash ma'lum bir pedagogik muammoga tegishli narsa-hodisa va jarayonlarni qiyosiy o'rganishi, buning uchun ilmiy-pedagogik tahlilga asoslanishi lozim. Qiyosiy pedagogika xuddi ana shu masalani hal etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdek muhim vazifani bajarishi lozim.

Hozirgi kungacha qiyosiy pedagogika va chet el pedagogikasi – bir fan sohasining turlicha nomlanishi bo’lib, sinonim tushunchalardir degan qarash mavjud. Biroq mazkur yondashuv aniq tuzatish kiritishni talab etadi. Chet el pedagogikasi tavsifiy xarakterga ega bo’lib, uning asosiy maqsadi – chet el ta’limining o’ziga xosligini tavsiflovchi hodisa va dalillarni to’plash va tizimlashtirishdir. Shubhasiz, bu jahon pedagogik tajribasini chuqur va har tomonlama to’liq o’rganishning muhim jihat va zaruriy sharti. Biroq qiyosiy pedagogika o’zida zaruriy nazariy metodologik komponentlarni tashkil etadi. To’g’ri ayrim holatlarda qiyosiy pedagogika axboriy funktsiyani ham bajaradi, biroq uning asosiy funktsiyasi turli mamlakatlardagi o’ziga xosliklarni hisobga olgan holda ta’limni rivojlantirishning muhim global qonuniyatlarini va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etishdir.

Qiyosiy pedagogika tushunchasiga komparativist olimlar turlicha ta’rif beradilar. Rus olimi M.Sokolova qiyosiy pedagogikani ta’lim-tarbiya pedagogic nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining yo’nalishlari, umumiy va o’ziga xos xususiyatlarini o’rganadigan, iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy va falsafiy asoslari hamda milliy o’ziga xoslikni ochib beradigan soha deb qaraydi. N.Belkanov qiyosiy pedagogikani ta’limdagi globallashuv, baynalmilallik va integratsiya natijasi deb qaraydi. Uning fikricha, qiyosiy pedagogikada taqqoslash –bu ta’lim va pedagogika sohasida duhyo tendentsiyalari bilan aloqadorlikni anglash demakdir. K.Musinning ta’kidlashicha, qiyosiy pedagogika dunyoning turli davlatlarida turli tarixiy davrlarda ta’lim-tarbiya pedagogic nazariyasi va amaliyotining holatini o’rganadi, pedagogika va maktab amaliyotining xalqaro tajribasini o’rganish va foydalanish yo’llari hamda shaklini aniqlaydi, o’z davlatida

ta'lif-tarbiya modelining kelajagini bashorat qiladi. B.L.Vuifson esa qiyosiy pedagogikani pedagogik fanlarning cohasi deb qaraydi va u qiyosiy aspektida turli davlat, hudud umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogic nazariya va amaliyotning mavjud holati, rivojlanish tendensbyalari va qonuniyatlarini o'rganadi, deb ta'riflaydi.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida integratsion jarayonlarning rivojlanishi olimlar oldida xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishning qanday eng maqbul shakl va usullarini topish, qo'lga kiritilgan natijalardan milliy ta'lif tizimining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda samarali foydalanishni qay tarzda ta'minlash, xalqaro tadqiqotlar ishtirokchilarining nuqtai nazarlari va qarashlarini uyg'unlashtirishga qanday qilib erishish kabi qator savollarni ko'ndalang qo'ymoqda. Mazkur savollarga aniq va to'liq javobni qiyosiy pedagogikaning nazariy-metodologik mummosi sifatida qarash orqali olish mumkin.

"Qiyosiy pedagogika"da metodologik yondashuvlar

Qiyosiy pedagogikaning asosiy metodologik muammosi zamonaviy chet el tajribasidan milliy miqyosda qay tarzda va qanday shaklda maqsadga muvofiq foydalanish mumkinligini aniqlashdir.

Komparativist olim N.Belkanov qiyosiy pedagogikada melioristik, tarixiy-falsafiy, tizimli-mantiqiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatadi.

Melioristik yondashuv (M.A.J.Parijskiy): boshlang'ich, o'rta, oliy ta'lif kabi talim bosqichlari va xotin-qizlarning ta'lif olishi, o'qituvchilarni tayyorlash kabi muammolar bo'yicha savollardan iborat bo'lgan so'rovnoma hamda kuzatuvlar asosida o'tkazilgan tahlillardan iborat.

Tarixiy-falsafiy yondashuv vakillaridan biri rus pedagogi K.D.Ushinskiy bo'lib, u har bir ta'lif tizimining milliy xususiyatlarini saqlash tarafidori edi, bu esa chet el tajribasini tadbiq etishga birmuncha to'sqinlik qilardi. Ingliz komparativistikasining klassik vakili M.Sendler ham ma'naviy va madaniy omillarni bilmasdan turib, milliy ta'lif tizimini taqqoslash mumkin emas deb hisoblardi.

XX asr boshlarida qiyosiy pedagogikada **tizimli-sotsiologik yondashuv** yuzaga keldi, bunda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy xarakterdagi omillar qiyosiy tadqiqotlarning assosi deb qabul qilindi.

Ma'lumotli yoki mamlakatshunoslikka oid yondashuvda aniq davlatlardagita'lim tizimi rivojlanishining hozirgi holati tavsifiy bayon etiladi.

Fanlararo yondashuvda, birinchidan, ta'lif tizimi rivojlanishining mamlakat iqtisodi bilan, demak, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy fanlar bilan bog'liqligi, ikkinchidan, tadqiqotlarda didaktika, tarbiya nazariyasi, etnopedagogika, pedagogika tarixi, oliy maktab pedagogikasi kabi sintezining zarurligi bilan bo'liqdirdir.

Etnomadaniy yondashuv ayrim davlat, hudud va global miqyosda xalq ta'lifi va madaniyatining rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlar va milliy xususiyatlarni aniqlashni nazarda tutadi, bu yondashuv hozirgi kunda juda muhim sanaladi, milliy ta'lif tizimlarining globallashuv va integratsiyalashuv yo'nalishi qiyosiy pedagogik tadqiqotlarda mazkur yondashuvning asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Resursli yondashuv qiyosiy pedagogik tadqiqotlarda ta'lif tizimining resursli ta'minot muammolarini o'rganishni nazarda tutadi:

qonunchilik va siyosiy resurslar, ijtimoiy-siyosiy muhit va sharoit, moddiy-moliyaviy resurs, inson resurslari, ta'lim sohasidagi axborot resurslari majmui shular jumlasidandir.

**“Qiyosiy pedagogika”
fanining obyekti,
predmeti, maqsad va
vazifalari**

O'zbekiston ta'lim tizimi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish vazifalarini amalga oshirib kelmoqda. Bulardan ko'zda tutilgan maqsad ta'lim tizimini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakli va metodini kompleks yangilash hamda yanada takomillashtirishdan iborat. Bu vazifalarni muvafaqqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el ta'lim tizimi va pedagogikasi tajribalarini o'rganishni talab etadi.

Bu tajribalarni o'rganish orqali ta'lim-tarbiya tizimini yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz. Bu yo'lda bizga pedagogika fanlari tizimidagi sohalardan biri – “Qiyosiy pedagogika” fani katta yordam beradi.

Qiyosiy pedagogika – jahon, mintaqaviy, milliy ta'lim tizimi rivojining umumiyligi va alohida istiqbolli yo'nalishlari, qonun va qonuniyatlarining o'ziga xosliklarini taqqoslash haqidagi fan.

Qiyosiy pedagogika fani global doirada ta'lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etadi, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiyligi ko'rinishlarni ochib beradi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va usullarini aniqlashtiradi.

Qiyosiy pedagogika – mustaqil ilmiy bilim sohasi sifatida o’zining obyekt, predmet, maxsus funksiya va vazifalariga ega. Qiyosiy pedagogikaning obyekti sifatida V.L.Vulfson va Z.A.Malkova hozirgi zamon ta’lim tizimining rivojlanishini, M.L.Rodionov dunyoning turli davlatlaridagi pedagogika nazariyasi va amaliyotini, A.N.Djurinskiy esa hozirgi davr ta’lim va tarbiyasini tushunganlar.

Qiyosiy pedagogikaning obyekti – zamonaviy dunyoda insonni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish jarayoni, shuningdek, global, hududiy va milliy doirada ijtimoiy institut hisoblangan ta’lim tizimi.

Qiyosiy pedagogikaning predmeti haqida pedagog olimlar turlicha fikr bildiradilar. Jumladan, polyak olimi B.Navrochinskiy qiyosiy pedagogikaning tadqiqot predmeti maktab tizimi, ta’lim – tarbiya metodlari, sharoitlari va omillari, bu sohada erishilgan natijalar va pedagogik nazariya deb hisoblaydi. B.Suxodol’skiy esa qiyosiy pedagogikaning tadqiqot predmeti ancha keng ekanligini, u ta’lim mazmuni va metodlari, o’qitishni tashkil qilish masalalarini ham qamrab olishini ta’kidlaydi.

Rus olimi A.M.Stolyarenko qiyosiy pedagogikaning predmetini pedagogika va maktab amaliyoti bo'yicha butun dunyo miqyosidagi tajribalar deb hisoblaydi va qiyosiy pedagogikaning asosiy maqsadi pedagogika va maktab amaliyotini takomillashtirish bo'yicha dunyo ta’lim tizimi tajribalariga asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat deb ta’kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo’lsak, qiyosiy pedagogikaning predmeti turli davlatlarda, turli tarixiy davrlarda mavjud bo’lgan ta’lim tizimidir.

Qiyosiy pedagogikaning predmeti – jahon (chet el va milliy) pedagogik tajribani rivojlanish holati, tendentsiyalari va qonuniyatlarini hamda zamonaviy milliy pedagogik madaniyat.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy vazifalari:

1. Chet el ta'lif tizimi rivojining real jarayonlarini aks ettiruvchi yangi va yaxshi, ma'lum bo'lmagan jihatlarini tizimli bayon etish.
2. Jahon mamlakatlarida ta'lif tizimi rivojlanishining muhim qonuniyat va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etish va tizimlashtirish.
3. Turli davlatlar ta'lif tizimi sifati va samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini aniqlash.
4. Talim sohasidagi siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
5. Uzluksiz ta'lif tizimidagi barcha bo'g'lnarning mavjud holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish.
6. Turli davlatlar ta'lif tizimining rivojlanishidagi salbiy va ijobjiy jihatlari, yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash.
7. Ta'lif sohasida ijobjiy va salbiy holatlarning yuzaga kelishini aniqlovchi ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy sharoitlarni o'rganish.
8. Bir davlat ta'lif tizimini boshqa davlatga ko'chirishning natijalarini bashorat qila olish.
9. O'rganilayotgan ta'lif tizimidagi umumiylilik va o'ziga xoslik jihatlarini aniqlash.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy funksiyalari:

1. Mutaxasislarning chet el tajribasini o'rganishlarini yengillashtirish maqsadida pedagogik hujjatlardagi atama va tushunchalarni unifikatsiyalash va tartibga solish.

2. Turli ta'lim modellari va talim sohasida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarni taqqoslash.
3. Kelgusida ta'limni rivojlantirishning istiqbolli va ishonchli yo'llarini bashoratlash.
4. Ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqish.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o’rtasidagi umumiylilik nimada?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.
- 4.Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
- 5.Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
- 6.Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
- 7.Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
- 8.Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzarb yo’nalishlarini sanab bering.

II BOB. QIYOSIY PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING DOLZARB YO'NALISHHLARI

*Qiyosiy pedagogik
tadqiqotlarning dolzarb
yo'naliishlari.*

Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim iqtisodiyoti: turli davlatlardagi ta'lim tizimi faoliyati samaradorligining tahlili, moliyalashtirish, ayollarning ilm olishi, ta'lim va mehnat bozori, ta'lim xizmatlari, malaka oshirish, ta'lim va yoshlar ilmsizligi;

- ta'lim sohasida siyosat va rejalashtirish: ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, ta'lim sifati va menejmenti tizimi, demografik omillarni hisobga olish, ta'lim rivojlanishining strategiyasi va taktikasi;

- ta'lim tizimlari: ta'lim tizimini loyihalashga invariant yondashuvlar, turli ta'lim trayektoriyasini tadbiq qilish, ta'lim tizimini bosqichli va profilli tabaqalashtirish hamda prognostic modellashtirish va h.k;

- shaxs rivojlanishi (bola rivojlanishi nazariyasini qiyosiy o'rghanish): didaktik aspektlar, ta'lim sifati, bolalarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirish va h.k.;

- ta'lim mazmuni: maktab ta'limi yaxlit mazmuni – umumiyligi va o'ziga xosligi, shuningdek, ayrim o'quv sikl va fanlar bo'yicha ta'limda izchillik va variativlik, davlat standartlarining asosnomasi, darslik va h. (xalqaro tajribalar)

- boshlang'ich va o'rta ta'limganligi: ushbu ta'limganning tuzilishi va tashkil etilishi, boshqarish va moliyalashtirish, dunyoda mazkur ta'limganligi turining o'ziga xosligi, maxsus dasturlari;
- maktabgacha va oila ta'limganligi: maqsadning variativligi, pedagogik jarayonning tuzilishi, funksiyalari, o'ziga xosliklari va xalqaro tajribasi, muassasalar tipologiyasi, boshqaruv muammolari;
- oliy ta'limganligi: bu ta'limganning tashkiliy masalalaridagi xalqaro tajriba, akademik fanlar bo'yicha ta'limganligi mazmunini ishlab chiqish, shakl va metodlar, subsidiyalar va stipendiyalar, ta'limganligi mazmuni asosnomasiga fanlararo yondashuv, pedagogik jarayonning axborot ta'minoti, o'z-o'zini boshqarish muammolari, sifat baholari, fan va ta'limganligi integratsiyasi va boshqalar;
- noformal ta'limganligi va kattalar ta'limi: mustaqil o'qishning xalqaro aspektlari, kattalar ta'limganligini tashkil qilish bo'yicha xalqaro tajribalar, tashkilotlarning o'ziga xosliklari, tizimli yondashuv va ta'minoti va h.;
- innovatika: innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiq etishning psixologik va pedagogik asoslari, innovatsion ta'limganligi baholash muammolari, innovatsion jarayonlarni bashorat qilish, ta'limganligi jarayonini tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, ta'limganligi sohasida innovatsion faoliyat darajalari.

**"Qiyosiy pedagogika"
fanining ilmiy-tadqiqot
metodlari**

Qiyosiy pedagogikaning tadqiqot metodlariga tavsiflash, statistik, tarixiy, sotsiologik va analitik metodlar kiradi.

Tavsiflash metodi nihoyatda aniqlik va ob'ektivlikni talab etadi. Ushbu metod ta'limganligi tizimini boshqarish, o'qituvchilar tayyorlash, o'quv

yurtlarining dastur va rejalar, bolalar va yoshlar faoliyatini tashkil etishda qo'llanadi.

Statistik metod tavsiflash metodi bilan uzviy bog'langan. Bu metod ta'lim tizimiga oid raqamlar, ma'lumotlarni tahlil va talqin qiladi, baholaydi. Xususan, o'qitish bosqichlari bo'yicha ta'lim oluvchilarining o'zlashtirishi, o'quvchilarning ijtimoiy tarkibi kabilar shular jumlasidandir.

Tarixiy metod ta'lim tizimining paydo bo'lishi va shakllanishi, uning rivojidagi an'analar va turli tarixiy davrdagi o'zgarishlarni tadqiq etadi. Zero, tarixiy metod tahlil qilinayotgan pedagogik hodisaning hozirgi holatini ancha chuqur tushunishga yordam beradi.

Sotsiologik metod boshqa metodlar bilan uzviy bog'liq. U ta'lim tizimining ijtimoiy xarakterini baholash, ta'lim tizimining maqsadi, vazifalari, mazmuni va metodlarini tahlil qilish kabilarni nazarda tutadi.


Analitik metod orqali ta'lim tizimining asosiy xususiyatlari ijtimoiy-siyosiy jihatdan baholanadi, ta'lim tizimining tuzilishigi asos bo'ladigan umumiyy tamoyillar belgilanadi, ta'lim mazmuni va uning fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi talablariga mosligi aniqlanadi.

**"Qiyosiy pedagogika"
fanining fanlararo
bog'liqligi**

Qiyosiy pedagogika birinchi navbatda didaktika, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, pedagogika tarixi kabi fanlar bilan bog'liq. Pedagogika tarixi turli tarixiy davrlarda ta'limning rivojlanish masalalarini vertikal qiyoslab o'rgansa, qiyosiy pedagogikaning predmeti turli davlatlardagi ta'lim tizimini bitta davr ichida o'rganish, ya'ni gorizontal qiyoslashdir. "Vertikal" va "gorizontal" yondashuvlar birikmasi esa ko'rilib yordamli. Muammoni to'liq, chuqur tavsiflashga imkon beradi.

Shuningdek, qiyosiy pedagogik fanlarga oid bo'lgan falsafa, sotsiologiya, xronologiya, iqtisodiyot kabi fan sohalari bilan ham bog'liq.

Bugungi kunda fanning pedagogika, qiyosiy pedagogika sohalarida falsafaning metodologik funksiyalari tan olingan, zero falsafa pedagogik tajribani anglashda va pedagogik konsepsiyalarni yaratishda nazariy maslak hisoblanadi. Undan tashqari qiyosiy pedagogik tadqiqot doirasida pedagogik bilimlarni olish jarayoni falsafaning umumiy qonuniyatlariga bo'yusunadi.



Qiyosiy pedagogikaning psixologiya bilan bog'liqligi an'anaviy hisoblanadi, zero bir davlat ta'lif tizimining tuzilishi shaxsnинг rivojlanishi va psixik faoliyati qonunlari, inson tabiatи hususiyati bilan birligida amalga oshiriladi. Shuningdek, pedagogik tajribalarni bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tkazishda ~~psixotogiya fanlarini~~ ayrim

sohalari bo'yicha tadqiqotlar ham dolzarb hisoblanadi. Jumladan, etnopsixologiya "milliy harakter", "milliy mentalitet" kabi tushunchalarni o'rganadi, bu tushunchalar o'z navbatida qiyosiy pedagogika uchun alohida qiziqish uyg'otadi.


Sotsiologik tadqiqotlarning natijalari, qiyosiy pedagogikaga turli davlatlarda ta'lim rivojlanishining qonuniyatları, yo'nalishlari haqidagi boy ma'lumotlarni beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimi rivojining kelajakdag'i strategiyasini belgilashga imkon beradi.



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
2. "Chet el pedagogikasi" va "qiyosiy pedagogika" tushunchalari o'rtaqidagi umumiylilik nimada?
3. "Qiyosiy pedagogika" tushunchasiga ta'rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini ayting.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlarini sanab bering.

1-topshiriq. Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.



2-topshiriq. Qiyyosiy pedagogika fanining metodologik asosiga doir quyidagi toifalash jadvalini to'ldiring.

Obyekti	Predmeti	Funktsiyalari	Tadqiqot metodlari

3-topshiriq. Qiyyosiy pedagogika haqida olimlarning fikrlarini o'qing va asosiy tayanch so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing.

4-topshiriq. Komparativist olimlarning qiyyosiy pedagogika haqidagi fikrlarini tahlil qiling va fan haqida shaxsiy fikringizni bildiring.

III BOB. QIYOSIY PEDAGOGIKA FANINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Tayanch tushunchalar:

Mark Antuan Jyulen Parijskiy, qiyosiy pedagogika bo'yicha muassasalar va nashriyotlar, "Qiyosiy pedagogika" jamiyati, xalqaro ta'lim standart klassifikatsiyasi.

**"Qiyosiy pedagogika"
fanining rivojlanish
bosqichlarini aniqlashga
doir yondashuvlar**

Pedagogik fanlarning zamonaviy tizimi pedagogika tarixi, etnopedagogika, androgogika, oliy maktab pedagogikasi kabi pedagogikaning qator mustaqil sohalarini o'z ichiga qamrab oladi. Hozirgi globalizatsiya va integratsiya jarayonlari bilan bog'liq holda tezkor rivojlanayotgan pedagogika sohalari qatoriga qiyosiy pedagogikani ham kiritishimiz mumkin. Shu o'rinda qiyosiy pedagogikani fan sifatida davrlashtirishga oid qator yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

D.Beredey va uning izdoshlari qiyosiy pedagogikaning tarixiy nuqtai nazardan shakllanish va rivojlanish jarayonini uchta davrga bo'ladi.

Birinchi davr – **o'zlashtirish davri** – XIX asrga to'g'ri keladi. Bunda chet el pedagogik tajribalari haqidagi aniq ma'lumotlarni yig'ish, tasnif qilish, ta'riflash ishlariiga alohida e'tibor beriladi. Bu davr uchun qiyosiy pedagogika tadqiqotlari natijalaridan foydalanish Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ta'limning G'arb modelini yoyish maqsadida amalga oshirilgan.

Ikkinci davr – “bashorat”(prognostik) davri – XX asrning birinchi yarmini o’z ichiga oladi. Bu davrda soʻf ko’chirmakashlikdan voz kechish kuzatiladi, o’rganilayotgan davlatlarning madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog’liq holda qiyosiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqish ahamiyati orta boradi, qiyosiy pedagogikaning prognostik vazifalari rivojlanadi.

Qiyosiy tahlil asosida bir davlatdan ikkinchi davlatga pedagogik tajribani o’tkazishi mumkinligi yoki mumkin emasligi haqidagi bashoratli (prognostik) tavsiyalar tuziladi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish sharoitlari o’xshash bo’lgan davlatlarda ham o’ziga xos milliylikning mavjudligi o’zlashtirilgan tajribaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga ta’sir etishiga e’tibor qaratiladi.

Uchinchi davr – **ilmiy-qiyosiy tadqiqotlar davri** deb ataladi va bu davrda qiyosiy tadqiqotlarning ahamiyati va ishonchliligi yanada orta boradi.

Rus olimlari M.A.Sokolova va boshqalarning qiyosiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlarini davrashtirish bo'yicha fikrlari D.Beredeyning yuqoridaq fikrlari bilan mos keladi, lekin rus olimlari bunday bo’linishning mezonlarini mafkura bilan bog’laydi. Unga ko’ra birinchi bosqich – XVIII asrning oxiridan 1917 yilgacha, ikkinchi bosqich – 1917 yildan 1945 yilgacha, uchinchi bosqich urushdan keyingi yillarni o’z ichiga oladi.

Rus olimi A.M.Stolyarenko qiyosiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishini to’rtta bosqichga bo’ladi:

birinchisi – qiyosiy pedagogikaning burjua inqiloblari va kapitalizm rivojlangan davrda vujudga kelishi (XIX asr boshlari – 1917 yil);

ikkinchisi – qiyosiy pedagogikaning sobiq ittifoq xalq ta’limining yangi tizimi tashkil topishi davrida rivojlanishi;

uchinchisi – qiyosiy pedagogikaning sobiq ittifoq ta’lim tizimining chet el ta’lim tizimlari bilan kuchli raqobati, qarama-qarshiligi davrida rivojlanishi (1935-1991yillar);

to’rtinchisi – qiyosiy pedagogikaning jahon hamjamiyati, demokratiyasi va insonparvarligi yaratilishi davridagi rivojlanishi (1991yil).

Yuqoridagilarni tahlil qilib, qiyosiy pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini izchillik bilan, har bir davrning o’ziga xos xususiyatlarini o’rgangan holda bayon etamiz.

**“Qiyosiy pedagogika”
fanining vujudga kelishi
(XVIII asr oxiri – XX asr
boshi)**

Qiyosiy pedagogikaning asoschisi

– Mark Antuan Jyulen Parijskiy. U birinchi marta “qiyosiy pedagogika”,

“qiyosiy tarbiya” atamalarini o’zining “Qiyosiy pedagogika bo'yicha tadqiqotlarga oid ocherklar va mulohazalar” degan asarida qo'llagan (Parij, 1817 yil).

1870 – 1900 yillar turli davlatlar umumiy majburiy ta’lim haqidagi hukumat qarorlarini qabul qiladi va o’z milliy ta’lim tizimini yaratadi.

Shu tariqa XIX asr oxirlarida qiyosiy pedagogika quyidagi vazifalarni amalga oshirdi:

- chet el pedagogik tajribasidan ma'lumotlar to'plash, qayta ishlash va chop etish;

- ma'lum davlat ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish uchun ilg'or tajribalarni o'zlashtirish maqsadida turli ta'lim tizimlarning ijobilijihatlarini aniqlash.

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika bilan bog'liq quyidagi muassasalar va nashriyotlar tashkil topdi:

- Londondagi Xalqaro ko'rgazma (1851 yil);
- Vashingtondagi "Ma'rifat xizmatlari" (1866 yil);
- Parijdagi "Pedagogika" muzeyi (1898 yil);
- Birinchi xalqaro pedagogik jurnal "Slavyanskiy pedagog" (1871 yil).

**Qiyosiy pedagogikaning
mustaqil fan sifatida ajralib
chiqishi
(XX asrning birinchi yarmi)**

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika tadqiqotlari chuqur va maqsadli xarakterga ega bo'ldi, qiyosiy pedagogikaning xususiy tadqiqot metodlari paydo bo'ldi, ta'lim tahlili o'rganilayotgan davlatlarning madaniy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti sharoitini hisobga olgan holda olib borildi, qiyosiy pedagogikaning prognostik (bashoratga doir) vazifalari rivojlandi, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faolligi va chet el tajribasini o'rganuvchi olimlar-tadqiqotchilarning ish sur'ati ortdi. 1920-1930 yillarda qiyosiy pedagogika sohasiga oid qator ilmiy ishlar nashr qilindi. Masalan, I.Kendl "Qiyosiy pedagogika sohasiga oid tadqiqotlar" nomli kitobida qiyosiy pedagogikaning ahamiyati, predmeti va metodlari haqida so'z yuritadi, Yevropaning yetakchi davlatlari ta'lim tizimlarini ta'riflaydi.

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika bilan bog'liq quyidagi muassasalar va nashriyotlar tashkil topdi:

- Kolumbiya universitetining xalqaro instituti va uning davriy nashri “Yejegodnik prosvesheniya” (1923 yil);
- Xalqaro maorif byurosi (Jeneva, 1928 yil);
- “Xalqaro pedagogik jurnal” (bir necha Yevropa tillarida).

**Qiyosiy pedagogikaning
jadal rivojlanish bosqichi
(1945 yildan XX asrning 80
yillarigacha)**

Dunyoda siyosiy vaziyatning o'zgarishi, fan va texnikaning tezlik bilan rivojlanishi, davlatlararo madaniy aloqalarning o'sishi, uzliksiz ta'limg'oyasining tug'ilishi va shu bilan bog'liq turli davlatlar ta'limg'ozimining yangilanishi kabi omillar birgalikda qiyosiy pedagogikaning jadal rivojlanishiga turtki bo'ldi.

1945 yilda Parijsda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tuzildi. BMTning ta'limg'ozim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha YUNESKO tashkiloti 1946 yilda tashkil topdi. Uning vazifalariga barcha bosqichlarda ta'limg'ozni rivojlantirish, tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish kabi masalalar kiradi. 1970 yilning boshlarida YUNESKO xalqaro ta'limg'oz standarti klassifikatsiyasini ishlab chiqdi.

Qiyosiy pedagogika nazariyasi, ta'limg'ozining ayrim muammolari va ba'zi qirralariga oid ko'plab ilmiy ishlar nashr qilindi.

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika bilan bog'liq quyidagi muassasalar va nashriyotlar tashkil topdi:

- Gamburdagi Pedagogika instituti “Xalqaro ta'limg'oz” jurnalini chop etdi (1951 yil);

- AQSHda “Qiyosiy pedagogika” jamiyati yuzaga keldi (1956 yil);
 - Qiyosiy pedagogikaning Yevropa jamiyati tuzildi (London, 1961 yil) va Buyuk Britaniya, Germaniya, Belgiya, Ispaniya kabi davlatlarda bo’limlari ochildi;
 - Zaltsburg “Qiyosiy pedagogika” instituti (Avstriya);
 - Kyusyu “Qiyosiy pedagogika” instituti (Yaponiya);
 - Chikago “Qiyosiy pedagogika” instituti (AQSh);
 - Kolumbiya, Garvard universitetlarida (AQSh) “Qiyosiy pedagogika” kafedralari, laboratoriya markazlari;
 - Gamburg, Margburg universitetlari (Germaniya) va boshqalar ham shular jumlasidandir.

**Qiyosiy pedagogikaning
o’ta jadal (giperintensiv)
rivojlanish bosqichi
(XX asrning 80 yillari
oxiridan hozirgi vaqtgacha)**

Dunyo ta’lim makonining yuzaga kelishi, faol integratsion jarayonlar, ta’limni “inson kapitali” sifatida e’tirof etilishi, ma’lumot haqidagi diplomlarning dunyo bo’ylab tan olinishi

chet el tajribasini o’rganish jarayonini tezlashtiradi.

1997 yilda XTSK (Xalqaro ta’lim standart klassifikatsiyasi) yangilandi. Unda yettita bosqich ko’rsatilgan. 0 – mактабгача та’лим; 1 – бoshlang’ich ta’lim; 2 – о’рта ta’limning birinchi bosqichi; 3 – о’рта ta’limning ikkinchi bosqichi; 4 – о’рта ta’limdan keyingi ta’lim’ oliy ta’lim emas; 5 – oliy ta’limning birinchi bosqichi; 6 – oliy ta’limning ikkinchi bosqichi – oliy ta’limdan keyingi ta’lim.

Mazkur davrda qiyosiy pedagogika bilan bog’liq quyidagi muassasalar va nashriyotlar tashkil topdi:

- Qiyosiy pedagogikaing Osiyo assotsiatsiyasi (1995 yil);
- “Ta’lim hamma uchun” konferentsiyasi (Tailand, 1990 yil 165 davlatdan 1500 delegat ishtirok etgan);
- “Erazmus” dasturi (1987 yil; mazkur dastur bo'yicha 1988 yildan 1995 yilgacha 400 ming talaba va 50 ming o'qituvchi ishtirok etgan);
- Rossiyada “Obuchenie za rubejom”, “Obrazovanie bez granits” kabi jurnal nashrlari;

O'zbekistonda pedagogikaga oid barcha nashrlarda qiyosiy pedagogika masalalarini muntazam yoritib boriladi.



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qiyosiy pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlariga doir qanday yondashuvlar mavjud?
2. Qiyosiy pedagogika fanining asoschisi kim?
3. XVIII asr oxiri – XX asr boshlarida qiyosiy pedagogikaga oid qanday tashkilot va muassasalar tashkil topdi?
4. Qiyosiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi qaysi yillarga to'g'ri keladi?
5. Nechanchi yilda ilk bor YUNESKO xalqaro ta'lim standart klassifikatsiyasini ishlab chiqdi?
6. “Ta’lim hamma uchun” konferentsiyasi qachon va qaysi davlatda bo'lib o'tdi?

!

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

1-topshiriq. Quyida keltirilgan jumlalar bilan tanishing. Ularni mos ravishda jadvalning tegishli ustuniga yozib qo'ying.

- 1) “Ta’lim hamma uchun” konferentsiyasi;
- 2) Kyusyu “Qiyosiy pedagogika” instituti (Yaponiya);
- 3) Xalqaro maorif byurosi;
- 4) Zaltsburg “Qiyosiy pedagogika” instituti (Avstriya);
- 5) Vashingtondagi “Ma’rifat xizmatlari”;
- 6) “Erazmus” dasturi;
- 7) Chikago “Qiyosiy pedagogika” instituti (AQSh);
- 8) Kolumbiya, Garvard universitetlarida (AQSh) “Qiyosiy pedagogika” kafedralari, laboratoriya markazlari;
- 9) Londondagi Xalqaro ko’rgazma;
- 10) Parijdagi “Pedagogika” muzeyi;

Qiyosiy pedagogika rivojining I bosqichi	Qiyosiy pedagogika rivojining II bosqichi	Qiyosiy pedagogika rivojining III bosqichi	Qiyosiy pedagogika rivojining IV bosqichi

2-topshiriq. “Qiyosiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari” mavzusida o'n minutlik esse yozing.

O'n minutlik essenini yozish qoidalari:

1. Taklif etilgan mavzuga doir so'zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo'lishi mumkin.

2. “Qiyosiy pedagogika fani ... paydo bo’ldi”, “Qiyosiy pedagogika bo’yicha ... kabi tashkilot va muassasalar tashkil topdi”, “Qiyosiy pedagogikaning jadal rivojlanish davrida ... kabi masalalarga alohida e’tibor qaratila boshladi ” kabi jumlalardan foydalaning.

3. Qiyosiy pedagogika fanining istiqbolli rivoji haqida o’z fikrlaringizni bayon eting.

IV BOB. PEDAGOGIK TIZIMLARNI TAQQOSLASH

TEXHOLOGIYASI

Qiyosiy pedagogik tizim

Qiyosiy pedagogik tizim bu qiyosiy pedagogika metodologiyasi asosida pedagogikaning xalqaro, regional, milliy tajribalarini o’rganish va tadbiq qilish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, pedagogik tizimni ma’lum davlat, region, aniq o’quv muassasida rivojlantirish bo’yicha qiyoslashga yo’naltirilgan dinamik pedagogik tizimdir.

Qiyoslash texnologiyasi 2 ta bo’limdan iborat bo’lib, birinchisi “o’rganish va qayd qilish”, ikkinchisi “tuzish va tadbiq qilish” deb nomланади.

“O’rganish va qayd qilish” bo’limida qiyosiy tadqiqotlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

- ta’lim tizimi va uning elementlarini rivojlanish holati va yo’nalishlarini aniqlash;
- ma’lumotlarni to’plash;
- aklarlarni tahlil va tasnif qilish;
- qiyoslash mezonlarini tanlash.

“Tuzish va tadbiq qilish” bo’limidagi qiyosiy tadqiqotlar esa quyidagicha amalga oshiriladi:

- o’rganilayotgan obyektning prognostic modelini tuzish;
- a) Tadbiq qilish shakli, metodi va chegaralari; b) xususiy va umumiylilikni aniqlash;
- eng maqbul modelni tuzish;
- ta’lim muassasalariga tadbiq etish.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy tarkibiy qismlari zamon va makon omillaridir. Zamon omili bir xil pedagogik tizimni turli tarixiy davrlar, asrlar, yillarda taqqoslashni nazarda tutadi. Bunda turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan pedagogik nazariyalar o’rganiladi.

Makon omili esa turli hududlarda joylashgan davlatlarning pedagogik tizimlarini taqqoslashni nazarda tutadi. Quyida makon omiliga ko’ra turli davlatlar ta’lim modelini taqqoslab ko’ramiz. Masalan:

Amerika modeli: kichik o’rta maktab → o’rta maktab → katta o’rta maktab → 2 yillik kollej → universitet tizimidagi 4 yillik kollej → magistratura → doktorantura.

Fransiya modeli: onalar maktabi → o’rta maktab → kollej → texnologik, kasbiy va umumta’lim litseyi → universitet → magistratura → doktorantura.

Germaniya modeli: umumiy maktab → real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktab → oliy o’quv yurti → magistratura → doktorantura.

Angliya modeli: birlashgan maktab → grammatik va zamonaviy maktab → kollej → universitet, magistratura, doktorantura.

Rossiya modeli: umumta'lim maktabi → to'liq o'rta maktab, gimnaziya va litsey-kollej → institut, universitet, akademiya → magistratura → doktorantura.

Qozog'iston modeli: to'liq umumta'lim o'rta maktab → kollej → universitet, akademiya (bakalavriat) → magistratura → doktorantura.


Demak, zamon va makon omillariga ko'ra pedagogik tizimlar modelini taqqoslashda yangi pedagogik bilimlar yuzaga keladi. Uning mazmunida quyidagilar aks etadi:

- ta'limning zamонавији holatini qayd etish;
- ta'lim siyosatini takomillashtirish, muqobil ta'lim siyosatini taklif qilish;
- ta'lim jarayonlarida kutilayotgan holatlarni bashorat qilish;
- qiyosiy pedagogikaning nazariyasi va metodologiyasini boyitish.


Qiyosiy pedagogik tizimni shuningdek, pog'onaviy xarakterda o'rghanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda 1-pog'ona – dunyo (davlatlararo), davlat ichida, hududlararo, hududlar ichida, OO'Yulariaro, maktablararo qiyoslanadi. 2-pog'ona – davlatlararo OO'Yulari va bitta davlat ichidagi OO'Yulari qiyoslanadi. Buni quyidagi chizmada ko'ramiz:

Davlatlararo OO'Yulariaro darajada qiyoslash:

A davlat




B davlat




Bir davlat ichida OO‘Yulariaro darajada qiyoslash:

A davlat



Davlatlararo pedagogik tizimlarni taqqoslashda turli davlatlar ta’lim tizimi qiyoslanadi. Davlat ichidagi taqqosda esa ma’lum bir davlat ta’lim tizimi vaqt omili ta’sirida solishtiriladi. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining sobiq Ittifoq davridagi va mustaqillik davridagi holati qiyosiy o‘rganiladi.

Quyidagi jadvalda pedagogik tizimlarni makon va zamон omili asosida taqqoslash modeli berilgan:



- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o’rtasidagi umumiylilik nimada?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzARB yo’nalishlarini sanab bering.

V BOB. PEDAGOGIK TIZIMLARNI TADQIQOT QILISH BOSQICHLARI.

Pedagogik tizimlarni tadqiqot qilish bosqichlarini o’rganishdan avval “region” so‘zining mazmunini aniqlaymiz. Qiyosiy pedagogikada regionning quyidagi tiplari mavjud: 1-tipga integratsion jarayonlar generatori (G‘arbiy Yevropa, AQSH, Kanada; Osiyo-Tinch okeani hududi); 2-tipga – integratsion jarayonga moyilligi bor davlatlar (Lotin Amerikasi davlatlari, Braziliya, Argentina va h.); 3-tipga – ta’lim jarayoni integratsiyasiga sust bo‘lgan davlatlar (Afrika davlatlarining katta qismi

(JARdan boshqa), qator Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari, Tinch va Atlantika okeani havzasidagi kichik orol davlatlari) kiradi.

Ko'rib turganingizday, dunyo ta'lif sarhadlarining hududiy tuzilishiga ko'ra "region" tushunchasi keng geografik mazmunda qo'llanadi. Tor geografik mazmunda "region" viloyat (O'zbekiston), subyekt (Rossiya Federatsiyasi), yer (Germaniya), graflik (Angliya), shtatlar (AQSH) va h. ma'nosida ishlataladi. Quyida davlatlararo OO'Yulariaro bosqichda ta'lif olish muddati va beriladigan daraja bo'yicha dunyoning yetakchi OO'YU holatini qiyosiy aspektida ko'rabi chiqamiz:

OO'YU	O'qish muddati	daraja
Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya)	3 yil	bakalavr
	1 yil	faxriy bakalavr
	1 yil	magistr (master)
Pacific Goast University (AQSH)	1,5 – 2 yil	bakalavr
	1 yil	magistr
	2 yil	doktor
Prinston University (AQSH)	4 yil	bakalavr
	4 – 5 yil	doktor
Frideritsiana universiteti (GFR)	4 yil	gimnaziya o'qituvchisi
	2 yil (gimnaziyada stajirovka)	
Ecole Politechnique Federale (Shveysariya)	4,5 yil	diplomli mutaxassis

Nizomiy nomidagi TDPU	4 yil 2 yil 3 yil	bakalavr magistr fan doktori
--------------------------	-------------------------	------------------------------------

E'tibor beraganingizdek, ta'lif ko'p variantli xarakterga ega. Masalan, turli davlatlarda bakalavr darajasini olish uchun 1,5 yildan 4 yilgacha o'qish muddati, magistr darajasini olish uchun 1 yildan 5 yilgacha tahsil olish lozim ekan.

Bir davlat ichida OO'Yulararo bosqich bo'yicha Shvetsiyadagi Geterborg universiteti va Qirollik oliy texnika maktabini qiyoslaymiz.

Taqqoslash parametrlari	Geterborg universiteti	Qirollik oliy texnika maktabi
Fakultetlar, bo'limlar	Tabiiy fanlar va matematika, gumani tar fanlar, ijtimoiy fanlar, tibbiyot, stomatologiya	Fizika, mashinasozlik, aviatsiya, elektro texnika, qurilish, arxitektura, tog' metalluriyasi, ximiya, topografiya
Ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish	Dissertatsiya himoya sini qabul qilish huquqiga ega bo'lgan institatlarda o'tkaziladi	Talabalar ta'limi va ITI alohida fanlar bo'yicha institatlarda o'tkaziladi
Ta'lif muddatlari	Tibbiyot – 5,5 yil.	Odatda 4,5 yil

	tabiiy fanlar va matematika, gumanitar fanlar, ijtimoiy fanlar, stomatologiya – 3 yil, yuridik, farmatsev tika – 4 yil	(minimal 4 yil)
Ta'lim tizimini tashkil qilish	O'quv yili 270 kun 2 semestrga bo'linadi: kuzgi semestr 1.09 – 18.01, bahorgi semestr – 20.01 – 3.06	O'quv yili 2 semestrga bo'linadi. Semestrlar davrlari ga bo'linadi. Har bir davr o'quv mashg'ulotlari, imtihon, bo'sh kunlar vaqtini o'z ichiga oladi
O'qitish shaklini tashkil qilish	Ma'ruza – an'anaviy o'qitish shakli, darsga qatnashish majburiy emas. Ma'ruza konspekt lari – konpedium larni kurs boshlani shidan avval olish mumkin. Tinglovchilar soni limitlanmagan. Seminar mashg'ulotda 30 kishi, amaliy mashg'ulotda 15 kishi,	O'quv yili boshida talabalarga bir yillik o'quv rejasi bo'yicha ko'rsatmalar beriladi: qo'llanma o'quv rejalar, barcha bo'limlar dasturlari, imtihon talab lari shular jumlesi dandir. O'quv rejala ri va dasturlar universitetlar va Oliy maktablar boshqarmasi tomoni

	<p>laboratoriya mashg' u lotlarida 8 kishi ishtirok etadi. Ma'lum kursni o'rganish uchun o'qituvchi rahbarli gida 6-8 kishidan iborat "rahbarlik dagi" o'quv guruhlari tashkil qilinadi</p>	<p>dan tasdiqlanadi har yili qayta ko'rib chiqiladi. Ma'ruzaga qatnashish majbuliy.</p>
Ma'muriy tuzi	<p>Boshqaruv: rais-rektor, o'qituvchilar, jamoat manfaatlari vakillari (sudya, gubernator va h.), talabalar, kasaba uyushma tashkilot lari, kotiba. Rektor huzurida ma'muriy xizmat: rektor, bosh prorektorlar, ma'mu riy boshliqlar, kotibalar. Institut boshlig'i: (professor).</p>	<p>Konsistoriya: rektor, prorektor, bosh ma'mur, bo'limlar dekani, o'qituvchilar, talabalar, xizmatchi xodimlar. Rektor huzuridagi ma'mu riy xizmat: rektor, bosh ma'mur, o'qitish qo'mitalari, o'qituv chilar, talabalar.</p>

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o’rtasidagi umumiylilik nimada?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.
- 4.Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
- 5.Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
- 6.Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini ayting.
- 7.Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
- 8.Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzARB yo’nalishlarini sanab bering.

VI BOB. QIYOSIY PEDAGOGIKADA TADQIQOTLAR TIPOLOGIYASI

N. Belkanovning fikricha, qiyosiy pedagogika sohasida asosli, meyoriy va amaliy tadqiqotlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi. B. Xolmzning konsepsiyasiga ko‘ra qiyosiy pedagogikaga “sof” va “amaliy” ijtimoiy fan sifatida qarash lozim.

Rossiya komparativisti K.N. Seykovich qiyosiy tadqiqotlarning metodologik va metodik asoslarini ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari; ta’lim statistikasi; oliy ma’lumotli mutaxassisni tayyorlash mazmuni, shakli va o‘qitish metodlari; ta’lim

olganlik, ilmiy unvon va darajalar haqidagi hujjatlarning ekvivalentligi, tan olinishi va muammolariga ajratadi. Bunday bo'linishni K.N. Seykovich bo'yicha qiyosiy pedagogik tadqiqotlar yo'nalishlari deb atash mumkin. Buni quyidagi chizmada ko'ramiz:

1 O'r ganilayotgan davlat, xalqaro tashkilotlarning statistik klassifikatori

2 Ta'lif statistikasi

3 Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va ta'lif tizimining rivojlanish tendensiyalari

4 Oliy ta'lif konsepsiysi, faoliyatning huquqiy asosi, tashkil qilish va boshqarish, mutaxassislarni chiqarish, talabalar soni (kontingenti), moliyalashtirish, professor-o'qituvchilar tarkibi, uzlusiz ta'lif, fan va ishlab chiqarish bilan bog'liqligi, oliy ta'lifning noformal shakli, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash.

5 An'anaviy, noan'anaviy

6 Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash mazmuni, shakli, o'qitish metodi

7 Ta'lif olganlik, ilmiy unvon va darajalar haqida hujjatlarning ekvivalentligi va tan olinishi

8 Xuquqiy asos, akademik va kasbiy ekvivalentlik va tan olishlik; ekvivalentlik va tan olishlik haqidagi bitimlar bayonnomasi

B. Xolmz bu borada tahlilga loyiq bo'lgan 4ta holatni ta'kidlaydi. Bular meyoriy huquqlar (huquqiy aktlar) va nazariyalar; ta'lif muassasalari; jamiyat qadriyatlari, shuningdek geografik sharoitlar. Har bir tasnidda bo'lgani kabi, ta'lif sohasidagi mazkur tasnidda ham statik (turg'un) holat kuzatiladi. Lekin undagi o'zgarishlar dinamik xarakterga

ham ega. Bunday qarama-qarshilikni B. Xolmz barqaror tizimdagina bunday dinamik o'zgarishlar tavsifi kuzatiladi, deb tushuntiradi. Buni ~~anvovidagi shinxron analitik taqqoslashni~~

<p>tahlili, maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida umumiy va farqli jihatlarni aniqlash;</p> <p>farazlarni ilgari surish.</p> <p>4. Yuqorida farazlarni tekshirish maqsadida mezonlar asosida sinxron analistik taqqosni amalga oshirish.</p>	<p>ma'lumotlar to'plash:</p> <ul style="list-style-type: none">- muammo tahlili;- farazlarni ilgari surish;- tarixiy va zamonaviy ijtimoiy sharoitlarni aniqlash;- qabul qilingan farazlar asosida ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan natijalarни bashorat qilish;- bashorat qilingan natijalarни kuzatilgan holat bilan taqqoslash.
---	--

N. Belkanov qiyoslash metodi tuzilishini deskripsiya, interpretatsiya va qiyoslash turlariga bo'ladi. Uning fikricha, qiyoslanayotgan har bir ma'lumot aniq parametrlar bo'yicha bayon etilishi – bu deskripsiY. Keyin aniq vaziyatlarga ko'ra tushuntirish metodi – interpretatsiY. Shundan keyingina bitta pedagogik holatning boshqa pedagogik holat bilan taqqoslanishi – qiyoslash metodi amalga oshirilishi lozim.

Deskripsiya tadqiqot materiallarini ma'lum mezonlarga ko'ra tanlash va tartibga keltirish bo'lsa, **interpretatsiya** genetik, ya'ni tarixiy va funksional aloqalar tizimidagi holatlarni tushuntirish demakdir. **Qiyoslash** esa ilmiy ishlab chiqilgan parametr (mezon)larga binoan sinchiklab tanlangan, tasniflangan, har tomonlama tahlil qilingan ma'lumotlarni taqqoslashni nazarda tutadi.

Quyida qiyosiy – pedagogik tadqiqotlar tipologiyasini chizmada ko'rib chiqamiz:

Muallif, davlat	Tipi	Tavsifi
Dj.Beredey (AQSH)	Mamlakatshunoslik ka oid (area studies)	Haqiqatni o'zgartirmay ko'rsatish
	Qiyosiy – nazariy (comparative approach)	Muammoli yondashuv: bitta yoki bir necha davlat miqyosida alohida olingan muammoni har tomonlama ko'rib chiqish imkoniyatini beradi
		Umumlashgan tahlil yondashuvi - tadqiqotlar natijalari asosida o'r ganilgan pedagogik fenomenning to'liq ko'rinishi yuzaga keladi.
B.Xolmz (Angliya)	"sof" ijtimoiy fanlar	Ta'lim siyosatini shakllantiradi, unga muvaffaqiyat keltirmaydigan holatlarni bartaraf etishga harakat qiladi.
	"amaliy" ijtimoiy fanlar	Ta'lim siyosatini qabul qiladi, amaliyotga tadbiq etadi, natijalari haqida ma'lumot beradi.
B.Navrochins kiy (Polsha)	statistik tadqiqot	Maktab tizimi va uning tashkiliy tuzilishi statistikasini o'r ganadi
	dinamik tadqiqot	Rivojlanish jarayonlari, qarashlar va yo'nalishlarga e'tiborni qaratadi
	tushuntiruvchi tadqiqot	Muammoning kelib chiqish sabablari nimada va bartaraf etish yo'llari

		qanday degan savolga to'liq javob bera oladi
A.Djurins- kiy (Rossiya)	fundamental tadqiqot	Metodologik, nazariy xarakterdagi savollar
	monotadqiqotlar	Bitta chet el ta'lim tizimi tajribasi
	binar tadqiqotlar	Ikkita davlat: o'z davlati va chet el ta'lim tizimi tajribasi
	multitadqiqotlar	Bir necha davlat ta'lim tizimi

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o'rtaсидаги умумиёллик нимада?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta'rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzarb yo'naliishlarini sanab bering.

VII BOB. OO'YULARIDA TA'LIM VARIATIVLIGINING QIYOSIY ASOSLARI.

Tayanch tushunchalar:

Fan metodologiyasining umummilliy va qiyosiy-pedagogik bosqichidan foydalanib quyidagilarga ko'ra ta'lif variativligi mezoniy tizimining modelini tuzamiz:

- 1) an'anaviy va innovatsion ta'lif tizimining asl holati;
- 2) ta'lif muassasalarining xalqaro va davlat miqyosida akkreditatsiya va attestatsiya bo'yicha baholash tizimi ko'rsatkichlari;
- 3) "moliyaviy-moddiy ta'minot", "o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ta'minot", "ta'lif muassasasi menedjmenti strategiyasi" kabi blok-mezonlarni aniqlovchi qiyosiy pedagogika bo'yicha ilmiy ishlanma-tadqiqotlar.

Ta'lif tizimining tarixiy rivojlanishi umumiylar resursga ega bo'lgan milliy ta'lif tizimlarini yaratish imkonini berdi. OO'Yulari uchun 3 xil resurs mavjud bo'lib, ular yuqoridagi mezoniy tizim modelida o'z aksini topgan.

Shundan "moliyaviy va moddiy resurslar" bloki OO'Yuni moliyalashtirish, ta'lif xizmatlarini taklif etish, moddiy-texnik baza va o'quv muassasasining infratuzilmasi, ta'lif muassasasining ijtimoiy bazasini o'z ichiga oladi.

"O'quv-metodik va ilmiy-tadqiqot resurslari" o'quv-uslubiy majmua ta'lif jarayonini tashkil qilish; formal va didaktik bilgilar; ta'lifda innovatsiya; ta'lif muassasalari turi (tipi); ta'lifda uzluksizlik, ilmiy-

tadqiqot ishlari natijalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish; ilmiy-tadqiqot resurslari – OO‘Yularining ilmiy-tadqiqot ishlari, OO‘YU va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etadi.

“Strategik va taktik resurslar”ga oliv ta’limda strategiyaning mavjudligi; maqsadli ta’midot va muassasalarga vazifalarning qo‘yilishi; ta’lim muassasasining nufuzi; OO‘Yuni boshqarish; pedagogik jarayon qatnashchilarining tavsifi; xalqaro hamkorlik kabilalar kiradi.

Ta’limda globallashuv jarayonlari, dunyo ta’lim tizimi tuzilishini shakllantirish, oliv ta’limni isloh qilish va zamonaviylashtirish OO‘Yularni tasnif qilish masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Har bir davlatning oliv ta’lim tizimi an’anaviy ikki xil ko‘rinishga ega bo‘lib, barcha OO‘Yulari “universitet” va “nouniversitet” maqomiga ko‘ra ajratiladi. Universitet bo‘limiga barcha universitetlar (garchi tashkil topgan paytida universitet maqomida bo‘lmasa ham), nouniversitet bo‘limiga (akademiyalar, institutlar, oliv mакtablar, konservatoriylar, kollejlар) kiradi.

Davlat	Oliv o‘quv yurtlari asosiy tiplarining reytingi	Misollar
Fransiya	Oliv ta’lim tizimida yetakchi o‘rinda universitet lar turadi. Lekin OTning boshqa turi bo‘lgan “katta mакtablar” (oliv	Keksa o‘quv muassasasi Sorbonna (1253 y.) 1852 yildan beri Parij universitetlari tarkibiga kiradi; Kollej

	maktablar – Grand Ekoles) universitetdan ham baland roq nufuzga ega.	de Frans (1530 y.); Ma'muriyat maktabi (1945 y.)
Italiya	Ilk Yevropa universitetlari va klassik universitet ta'limi vatani	Bologna universiti teti (XI asr), "Muqaddas yurak" Katolik universi teti (1064 y.) va h.
Angliya	"Moviy liga" universitetlari: bu OO'Yularining turdosh oti ham bor: Oksbridj	Oksford, Kembridj universitetlari
Yaponiya	Universitet va institut tushuncha lariga anqlik kiritilmagan, ular ning umumiy nomi – daygaku. Yaponiyada mavjud OO'Yulari modellaridan 75%ni universitetlar tashkil etadi	Davlat universitetlari: Tokio, Kioto, Osako universitetlari; Nikon, Vaseda xususiy universitetlari
AQSH	40-50ga yaqin "pechak bilan o'ralgan	Braun, Yel, Kolumbiya, Kornuel,

	universitetlar ligasi”	Garvard, Pensilvaniya, Princeton, Stenford universitetlari
Turkiya	Nufuzli universitetlar Anqara va Istambulda joylash gan	Anqara universiteti, Istambul konservatoriyasi, Anqara islam tadqiqotlari instituti va h.
Rossiya	XIX asr o'rtalarida “universitetning ruscha tipi” paydo bo'ldi. Ikki yarim ast mobaynida rus universitetlari fan, madaniyat va texnika sohasida muvaffaqiyatlarga erishdi	M.Lomonosov nomidagi MDU (1755 y.), Sankt-Peterburg universiteti, Novosibirsk davlat universiteti va h.
O'zbekiston	Milliy va davlat maqomidagi univer sitetlar va akade miyalar nufuzli hisoblanadi. 6ta xalqaro chet el oliy ta'lim muassasala	Vestminster univer siteti, Turin poli texnika universite ti, Lomonosov nomidagi MDU, Plexanov nomidagi Rossiya iq tisodiyot akademiyasi,

	rining filiallari mavjud.	Singapur universiteti, Gubkin nomi dagi neft va gaz universiteti kabi xalqaro chet el OTMlari filial lari.
--	---------------------------	--

Chet el tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asosan universitetlar bo'yicha o'tkazilgan, chunki universitetlar rivojlangan davlatlar ta'lim muassasalarining asosiy turi hisoblanadi, turli sohalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlaydi va aynan shu yerda talabalarning aksariyati tahsil oladi. Masalan, Buyuk Britaniyadagi xilma-xil universitetlarni tahlil qilib, ularni 8 guruhga bo'lish mumkin: 1) Oksford va Kembridjdagi (kollej tuzilishi ustun bo'lgan) keksa universitetlar; 2) Seynt Endryu, Glazko, Aberdeen, Edinburg kabi 4ta o'rta asr Shotland universitetlari; 3) alohida federativ xarakterdagи London va Uels universitetlari; 4) sanoat tumanlarida XIX asr oxirida yuzaga kelgan fuqarolik universitetlari; 5) Ikkinci jahon urushidan keyin qisman yangi tashkiliy va o'quv tuzilishiga ko'ra qayta tashkil qilingan universitetlar; 6) 1960-yil o'rtalarida universitet maqomini olgan yangi texnologiyalar kollejlari va Shotland Markaziy institutlaridan tashkil topgan 10ta texnika universitetlari; 7) 1969 yil asos solingan (sirtqi ta'limni tavsiya etadigan va an'anaviy kirish sharoitlarini inkor etadigan) Ochiq universitetlar; 8) 1973 yil tashkil topgan davlat tomonidan moliyalashtirilmagan, o'qish 2 yil davom etadigan, bir yilda 10 hafta o'qish choraklariga bo'lingan, asosan bakalavriat yo'nalishini taklif etadigan Bukxingem universiteti shular jumlasidandir.

Maxsus tuzilishiga ko'ra to'liq universitet maqomiga ega bo'lmagan, lekin universitet darajasidagi kurslarni taklif etib, yakunida akademik daraja beradigan 4ta oliv o'quv yurti mavjud:

- Grenfeld texnologiya instituti – ilmiy daraja olgandan keyin ham muhandislik va texnologiya bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lism;
- London Business School – iqtisod sohasiga yo'naltirilgan ta'lism;
- Royal College of Art va Royal College of Music – san'at va musiqa sohasida ilmiy darajaga ega bo'lganlar uchun o'quv kurslarini taklif etadi.

Kanada ta'lism tizimidagi universitetlarni 3ta toifaga ajratish mumkin:

- Medical doctoral – doktorlik va tadqiqot dasturlari hamda tibbiyot mакtablariga ega bo'lgan universitetlar;
- Comprehensive – ilmiy tadqiqot faoliyati rivojlangan, barcha yo'nalishlarda (bakalavriat, magistratura, doktorantura) turli dasturlarga ega bo'lgan universitetlar;
- Primarily undergraduate – bakalavr dasturlariga ixtisoslshgan universitetlar.

AQShda OO'Yulari asosiy funksiyalariga ko'ra quyidagi 6 turga tasniflanadi:

1. Tadqiqot universitetlari: I va II guruh. (3%, 125 OO'YU), doktorlik darajasini beradi. Bu universitetlarning I va II guruhlari orasidagi farq federal moliyaviy yordam hajmi bilan bog'liq, ya'ni II guruh OO'Yulariga nisbatan kamroq mablag' ajratiladi.
2. Doktorlik universitetlari: I va II guruh (3%, 111 OO'YU). Ta'liming barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. I va II guruh orasida farq ilmiy darajalar soniga bog'liq: I guruh uchun 5ta yo'nalish bo'yicha 40ta

doktorlik darajasi, II guruh uchun 3ta yo‘nalish bo‘yicha 10ta doktorlik darajasi beriladi.

3. Magistrlik o‘quv muassasalari (15%, 529 OO‘YU), bakalavriat va magistrlik dasturlariga ega. Bu o‘quv muassasasini ko‘p tarmoqli hamda keng qamrovli universitet va kollejlar deb atashadi. I guruh – milliy, II guruh – regional hisoblanadi.

4. Bakalavr OO‘Yularining 4 yillik kollejlari – I, II guruh. (18%, 637 OO‘YU) – juda katta to‘lov asosida o‘qitiladigan, mamlakatning eng nufuzli universitetlari magistraturalariga kadrlar yetkazib beradigan elitar ta’lim muassasalari.

5. Ixtisoslashtirilgan OO‘Yulari yoki bakalavr diplomi bilan qabul qilinadigan kasbiy maktablar (20%, 722 OO‘YU), (tibbiyot, xuquqshunoslik, pedagogik, boshqaruv va h.)

6. Ikki yillik kollejlar va institutlar (41%, 471 OO‘YU).

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o’rtasidagi umumiylik nimada?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini ayting.

7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayonetning.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlarini sanab bering.

!

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

1-TOPSHIRIQ. Davlatlararo, OO'Yulariaro ta'lif tizimini qiyoslash bosqichiga ko'ra o'zingiz tahsil olayotgan OO'Yuni chet eldag'i biror OO'Yubilan taqqoslang.

2-TOPSHIRIQ. Bitta davlat miqyosida OO'Yulariaro ta'lif tizimini qiyoslash bosqichiga ko'ra yurtimizdag'i 2ta OO'Yuni taqqoslang.

VIII BOB. OLIY TA'LIM TIZIMINING TIPOLOGIK TASNIFIY MEZONLARI

Oliy ta'lif tipologiyasiga ko'ra 8ta mezon (asos) belgilangan, bunda tasnifning to'g'riliqi, aniqligi, to'liqligi kabi talablarga amal qilingan. Tarixiy rivojlanishiga ko'ra, xususiylik shakliga ko'ra, ta'lif siklining to'liqligiga ko'ra, ixtisoslik kesimiga ko'ra, tanlov tamoyillariga ko'ra, ta'lif shaklining ustunligiga ko'ra, ta'lif oluvchilar tarkibining bir xilligiga ko'ra, son parametrlariga ko'ra mezonlar shular jumlasidandir.

Tarixiy rivojlanishiga ko'ra OO'Yulari an'anaviy va qayta tashkil qilingan turlarga bo'linadi. An'anaviy OO'Yulari bu o'rta asrlardan boshlab, Ikkinci jahon urushigacha bo'lgan davr orasida tashkil topgan OO'Yularidir. Qolganlari qayta tashkil qilingan OO'Yular hisoblanadi.

Hususiylik shakliga ko'ra OO'Yularining ikkita varianti mavjud: milliy – davlat va xususiy – aksioner. Bunda aksioner davlat shakli ham bo'lishi mumkin. Masalan, Qozog'istondag'i Olmaota energetika va aloqa instituti 1997 yil 3 maydan boshlab davlat tasarrufidan chiqdi, lekin 50% aksiyasi davlatga qarashli.

Ixtisoslik kesimiga ko'ra OO'YU ko'p tarmoqli va bir tarmoqli variantlarga ega. Ko'p tarmoqli OO'Yulari – turli fakultetlarning ixtiyoriy kombinatsiyalaridan iborat bo'lgan zamonaviy ta'lim muassasalaridir. Mutaxassislarni tayyorlashda aniq bir tarmoqni tanlagan OO'Yulari ixtisoslashgan OO'Yulari leb ataladi.

Tanlov tamoyillariga ko'ra OO'Yulari ochiq va selektiv tiplarga bo'linadi. To'liq o'rta maktabni yaxshi tugatganligi haqida shahodatnomasi bor barcha abituriyentlar imtihonsiz qabul qilinadigan, talabalar soni limitlanmagan OO'Yulari ochiq turdag'i ta'lim muassasalari deyiladi. Selektiv OO'Yulari esa – nufuzli OO'Yulari bo'lib, diplomi jamiyatda yuqori baholanadi va lavozim pog'onasining muvaffaqiyatlari garovi hisoblanadi, abituriyentlar orasida qat'iy tanlov o'tkaziladi.

Ta'lim shaklining ustunligiga ko'ra tipologiyasining quyidagi asosiy variantlari mavjud:

1. An'anaviy – ta'limning kunduzgi, kechki, yarim kunduzgi shakllarini amalga oshiruvchi variant.
2. Noan'anaviy – ta'limning sirtqi, masofaviy shaklini tashkil etishga asoslangan variant, eksternat (birinchi OO'YU – Angliyadagi ochiq universitet).
3. Aralash – ana'anaviy va noan'anaviy variant birligi.

Ta’lim oluvchilar tarkibining bir xiliga ko‘ra OO‘Yulari bir xil (gomogen) va har xil (geterogen) bo‘lishi mumkin, chunki hozirgi kunda ham shunday OO‘Yulari borki, ularda yoki qizlar yoki o‘g‘il bolalar tahsil olishadi. Masalan, Yaponiyadagi kichik kollejlar xotin-qizlar oliy ta’lim muassasasi sifatida faoliyat yuritadi, undagi talaba-qizlarning yarmi uy yuristi, umumiy madaniyat, bola tarbiyalash kabi bo‘limlarda o‘qishadi. Qozog‘istonda Qozoq davlat xotin-qizlar pedagogika instituti bor.

Son parametrlariga ko‘ra tipologik mezon OO‘YU tasnifi uchun asos bo‘la oladi, eng sodda ko‘rsatkichlardan tortib murakkab metodikalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, OO‘Yulari va ixtisosliklar reytingini aniqlash metodikasi imkoniyatlar (potensial) va faollik kabi 2ta global mezonlardan iboratdir. Ularning har biri ko‘rsatkichlar guruhini tashkil qiladi, bu guruhlar o‘z navbatida aniq OO‘Yuning son jihatidan ma’lumotlarni talab qiluvchi parametrlarga bo‘linadi.

Masalan, “imkoniyat” global mezoni tarkibiga “ijtimoiy-madaniy baza” ko‘rsatkichi kiradi. Bu ko‘rsatkich talabalar turur joyida o‘rin bilan ta’milanganlik, umumiy ovqatlanish tizimi bilan ta’milanganlik, sihatgoh – profilaktika va sport bazalarining mavjudligi kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bilasizmi?

O‘rta asrlarda birinchi Milliy universitet qachon paydo bo‘lganini bilasizmi? Chexiyadagi Praga universiteti O‘rta asrlarda xalqaro universitet hisoblanardi. Lekin sekin-asta u yerda nemis o‘qituvchilari va talabalari soni oshib ketdi. Chex vatanparvari Yan Gus bunga qarshi chiqди, mahalliy xalq va universitedagi o‘qituvchilarning qo’llab-quvvatlashi bilan qiroqlga murojaatnomasi yozdi. 1409 yil qirol

Venseslav IV tomonidan chiqarilgan dekret bu masalani chexlar foydasiga hal qildi. Endi universitet tarkibida chex o'qituvchilari va talabalari son jihatidan ustun edi. Chet ellik o'qituvchi va talabalarga bogema qirolligiga sodiqlik haqida qasam ichish talabi qo'yildi. Natijada nemislar sekin-asta Praga universitetini tark etib, Germaniyada Leypsig universitetini tashkil qildilar. Shu tariqa 1409 yil o'rta asrlardagi muhim sanalardan biriga aylandi: tarixda birinchi Milliy universitet paydo bo'ldi.



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
2. "Chet el pedagogikasi" va "qiyosiy pedagogika" tushunchalari o'rtaсидаги umumiyluk nimada?
3. "Qiyosiy pedagogika" tushunchasiga ta'rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini ayting.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzARB yo'naliishlarini sanab bering.

IX BOB.TA'LIM MUASSASALARINING NUFUZINI ANIQLASH (OO'YULARI MISOLIDA)

OO'Yularining nufuzi nafaqat o'z davlati ichida, balki ta'lif xizmatlarining dunyo bozorida o'zining aniq innovatsion siyosati, konsepsiyasi, strategiyasi, vazifalari, tuzilmasi, professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalar soniga ko'ra raqobatbardosh bo'lishga intilishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlarni o'rganish jarayonida OO'Yularining nufuzini belgilovchi quyidagi jihatlar aniqlandi:

- OO'Yuning mashhurligi va tarixiy an'analari (tashkil topgan sanasi; turi va h.);
- Ta'sischilar;
- Akkreditatsiya, attestatsiya, litsenziya;
- Ijtimoiy bazasi;
- Ilmiy-tadqiqot ishlari;
- OO'Yuning me'moriy uslubi (arxitekturasi);
- Ixtisoslikning nufuzi;
- Nodirligi;
- Talabalarni o'qishga qabul qilish qoidasi;
- Diplomning konversiyalanishi;
- Kadrlar imkoniyatlari;
- Talabalar kontingenti;
- Chet el talabalari soni;
- Bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanganligi;
- Mashhur bitiruvchilar (VIP-shaxslar);

- to'lov-shartnoma asosida lo'qish joyiga abituriyentlar tanlovi (arizalarga ko'ra);

- Davlat granti va kreditlar bo'yicha tahsil oluvchi talabalar soni.

Quyidagi chizmada dunyodagi yetakchi OO'Yularining nufuzini tashkil qiluvchi jihatlari: tashkil topgan davri, ixtisosligi, alohida xususiyatlari, chet el talabalari soni haqida ma'lumotlar berilgan.

Davlatlar	Oliy o'quv yurtlari	Tashkil topgan yili	Ixtisoslik lar, yo'nalishlar, fanlar	Qisqa ma'lumotlar
AQSH	Garvard universiteti Harward University	1636	Huquq, tibbiyot, iqtisodiyot, pedagogika	Amerikadagi birinchi OO'Y. Har yili 1600 o'ringa dunyo ning 100 ta davlatidan o'r tacha 13000 ariza tushadi. 40ta mutaxas sislik bo'yicha ta'lim beri ladi.
GFR	Ioxannes Guternberg universite ti Johannes Guternberg	1477	Iqtisodiyot, huquq, tibbiyot, tabiiy fanlar, yozma va og'zaki	Universitet faxri: Nashriyot san'ati Butunja hon muzeyi Ning mavjud

	University		tarjima, gumanitar fanlar	ligi, GFR televideniyesini ng II kanali. Umumiy tala balar soni – 28000, chet el lik talabalar soni – 2000 (7%)
Shveysa riya	Ecole Polytechni qui Federale	1853	Kommunika siya, kompyuter fanlari, matematika, qurilish, as bobsozlik, qishloq xo‘ja ligi, ximiya, fizika, mashi nasozlik, muhandislik	Talabalar ning umumiy soni – 4500, chet ellik talabalar soni – 1000 (22%). O‘qish fransuz tili da olib bori ladi. Muhan dis va (arxi tektor) me’ mor diplomi beriladi
Buyuk Britaniya	Yedinburg universite ti University Edinburg	1583	Tabiiy va ijtimoiy fanlar, arxeologiya, musiqa, ta rix,	Yevropa universitetlari bilan tarixiy alo qada bo‘lgan

			qishloq xo'jaligi, tibbiyot, filologiya, xuquq, falsafa, veterinariya, teologiya, me'morchilik	Shotlandiya davlat universiteti. Talabalar umumiy soni 16600, chet ellik talaba lar soni 1527 (18%)
Yaponiya	Kioto universite ti Kyoto University	1897	Tabiiy fanlar, texnika, qishloq ho'jaligi, tibbiyot, xuquqshunos lik, iqtiso diyot, gumanii tar fanlar, farmatsevtika umumta'lim fakultetla ri	Birinchi dav lat OO'Yulari ning biri, Yaponiyaning 9ta eng nufuzli OO'YU lari sirasiga kiradi. 10ta fakultet, 15 ta fakultet miqyosidagi ilmiy-tadqi qot muassasa lari, 21 universitet IT'llari bor. Talabalar soni - 15000
O'zbekis	Nizomiy	1935	Tabiiy,	O'zbekistonda

ton	nomidagi TDPU		gumanitar va ijtimoiy fanlar, pedagogika psixologiya, kasbiy ta'lim, san'at: chizmachilik, musiqa	nufuzli universitet lardan biri. ...ixtisoslik bo'yicha mutaxassislarini tayyorlaydi. Talabaning umumiylarini ...
-----	------------------	--	--	--

Demak, tarixiy an'analar, OO'Yuning mashhurligi, ta'sis chilar, mutaxassislikning nufuzi, ijtimoiy bazasi, ilmiy-tadqiqot ishlari, OO'Yuning arxitekturasi, attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tganligi, litsenziya mavjudligi OO'YU nufuzini belgilab beruvchi muhim qirralardir. Masalan, 1912 yil belgiyalik Fariv de Vaskonsellos Bryusselga yaqin bo'lган Byerje shahrida o'g'il bolalar uchun maktab-internat tashkil qiladi. Bu maktabning mashhurligi va nufuzini Vasiylik Kengashining tarkibi belgilab berdi. Kengashga O.Dekroli, G.Kompeyre, A.Feryer kabi taniqli mahalliy va chet el pedagoglari, A.Meterlink, E.Verxarn kabi ko'zga ko'ringan yozuvchilar a'zo edilar. Maktab-internatda 8 yoshdan 18 yoshgacha bo'lган 25ta o'quvchiga 17 o'qituvchi saboq berar edi.

Germaniyada universitetlarga tadqiqot muassasalari sifatida qarash bor. Laboratoriyalarda iqtidorli talabalar qurshovidagi professorni ko'rish nemislar uchun ideal hisoblanadi.

Amerikaning eng zo'r universitetlarida aspirant-doktorantlar soni taabalar sonidan ko'p bo'lishi mumkin va aynan shu holat universitetning obro'si va nufuzini belgilab beradi, ta'lim ilmiy tadqiqotlar bilan birga olib borilishi tushuniladi. Masalan, Stenford universitetida talabalar soni 6500, aspirantlar soni esa 6900ni tashkil etadi.

Akkreditatsiyalangan OO'Yulari fan rivojlanishiga hamda kam ta'minlangan talabalarga stipendial yordam ko'rsatish uchun katta mablag'ga talabgor bo'lib, ta'limni rivojlantirishga oid federal dasturlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi va tabiiy, bu dasturni qo'lga kiritish orqali OO'Yuning nufuzi ortadi.

OO'Yularining *an'anaviy akkreditatsiyasini* aniq tashkilot ma'lum mezonlar bo'yicha o'tkazadi (masalan AQShda mezonlar soni 400ta) va mezonlar bo'yicha talablar qanday bajarilganligi tekshiriladi. Shu bilan birga AQShda *muqobil (alternativ) akkreditatsiya* ham yuzaga kelgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, OO'Yularining o'zi strategik maqsadlarni belgilaydi va

akkreditatsiya qiladigan uyushma yordami va nazorati ostida uning bajarilishiga erishadi. AQSH universitetlari qoshidagi biznes- maktablar rivojlanishi bo'yicha uyushma 1997 yildan beri turli davlatlardagi 45ta biznes- maktabni akkreditatsiyadan o'tkazdi, 80ta chet el OO'Yulari akkreditatsiyadan o'tish uchun navbat kutib turibdi. Bu uyushma tomonidan akkreditatsiya qilingan OO'Yulari nafaqat shuhrat qozondi, balki talabalar qabulini ko'paytirish imkonini beruvchi nufuzga ega bo'ldi.

Ta'lim muassasasining nodirligi haqida so'z yuritilganda faqat unga tegishli bo'lgan tavsif, o'ziga xoslik nazarda tutiladi. Masalan, AQShda Djarjitaun universiteti talabalari AQSH Kongressi kutubxonasidan

foydalaniш imkoniga ega. Origon universitetida xorijlik talabalarga ingliz tilining “amerikacha” varianti o’rgatiladi. Buyuk Britaniyaning Kembridj universitetida magistratura va doktorantura “birga qo’shilgan”, ya’ni magistraturani muvaffaqiyatli tugallagach, doktorlik darajasini olish mumkin. Shveysariyadagi Yevropa universitetining bakalavriat yo’nalishida ta’lim fransuz va ingliz tillarida, magistraturada esa faqat ingliz tilida olib boriladi.

Bilasizmi?

Mutaxassislik nufuzi haqida gap ketganda Angliyadagi mashhur qoidani eslash joiz. Unga ko’ra “Kembridj universiteti bitiruvchilari o’z bilimlarini kengaytiradilar, Oksford bitiruvchilari esa davlatni boshqaradilar” (Oksford universiteti asosan ijtimoiy-gumanitar yo’nalishda, Kembridj universiteti esa asosan tabiiy-ilmiy yo’nalishda mutaxassislarni tayyorlaydi).

Bu qiziq!

Janubiy Koreyadagi Seul universiteti eng nufuzli, shu bilan birga eng arzon OO’YU hisoblanadi. Qator nufuzi past OO’Yularida o’qish , aksincha 2-3 baravar qimmat turadi.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o’rtasidagi umumiylilik nimada?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.

4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzARB yo'nalishlarini sanab bering.

X BOB. QIYOSIY PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISHIDA XALQARO TASHKILOTLARNING ROLI

Tayanch tushunchalar:

BMT, YUNESKO, YUNISEF, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va h.

**YUNESKO
tashkilotining ta'lim
sohasidagi faoliyati**

YUNESKO – Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslash-

tirilgan tashkiloti bo'lib, u 1946 yilda tashkil etilgan.

Ushbu tashkilotning qarorgohi Frantsianing poytaxti Parij shahrida bo'lib, uning oliy boshqaruв organi – Bosh direktordir. Mazkur xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlarning vakillari ikki yilda bir marta o'zlarining Bosh konferentsiyalariga to'planadilar. Bu anjumanda ular YUNESKOning keyingi ikki yillik faoliyatining dasturini qabul qildilar. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun unga a'zo bo'lgan davlatlar mablag' – byudjet ajratadilar.

YUNESKO faoliyatida xalqaro hamkorlik, tinchlikni saqlash masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Shu tufayli ham uning Nizomida

“Urush haqidagi fikrlar odamlar aqlida paydo bo’ladi, binobarin, urush vasvasasini ularning ongidan chiqarib, tinchilikni himoya qilish g’oyasini tarbiyalamoq kerak” – deb yozib qo’yilgan.

YUNESKO faoliyati o’ta xilma-xil va ko’p qirralidir. Ayniqsa, uning ta’lim sohasidagi faoliyati diqqatga sazovor. Bu boradagi ishlar juda ko’p yo’nalishlarda olib boriladi va mazkur yo’nalishlar bir-biridan muhimdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta’limi rivojlanishidagi tendentsiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatda ta’lim bo’yicha olib borilayotgan siyosatni ham moddiy, ham ma’naviy rag’batlantirish kabilar shular jumlasidandir.

YUNESKO mazmunli ta’limining hamma uchun birday imkoniyat doirasida bo’lishini ta’minalash, uning uzluksizligini qaror toptirish, ta’limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillaridan kelib chiqadi.

O’qituvchi kadrlar tayyorlash, ularni nazariy-metodik saviyasini muttasil oshirib borish, jahoning ba’zi mamlakatlarida muammo bo’lib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklar bilan bab-barobar bilim olish haqxuquqlarini ta’minalash, ekologik ta’limni yo’lga qo'yish, darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o’rtasida ta’lim bo’yicha hamkorlikni butun choralar bilan rivojlanish kabi juda ko’p boshqa masalalarni hal etadi.

YUNESKOning ta’lim sohasidagi sahovati faoliyatining barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta’lim berish, ularni xalqaro hamkorlik, o’zaro ishonch, do’stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

Fan va texnologiyani rivojlanish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturlarni amalga oshirmoqda. Bu dasturlar asosan ekologik

muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza etish bilan bog'liqdir. Shuningdek, mazkur yo'nalishda muvofiqlashtirilgan, birqalikdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, jahon ilmiy markazlari, universitetlar, olimlar hamkorligini rivojlantirish bilan bog'liq muhim ishlar ham yo'lga qo'yilmoqda.

Favqulodda Bolalar Fondi (YUNISEF)ning jahon bolalari majburiy ta'limini tashkil etishdagi roli

YUNISEF 1946 yilning 11 dekabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasidayoq bir ovozdan BMTning

Favqulodda Bolalar Fondi nomi bilan tarkib topdi.

YUNISEF tashkil topgan dastlabki yillarda uning mablag'i urushdan qattiq jabrlangan Yevropa va Xitoyda bolalarga oziq-ovqat, doridarmonlar uchun sarf qilina boshladi. 1950 yil dekabrda BMT Bosh Assambleyasini YUNISEF vakolatini yanada kengaytirdi. Uning mablag'lari rivojlanayotgan davlatlardagi son-sanoqsiz bolalar uchun sarflana boshladi.

1953 yilning oktyabridan BMT Bosh Assambleyasini YUNISEFni o'zining doimiy organiga aylantirdi. Endi u Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar fondiga aylantirildi. Lekin uning kafolatlari va vazifalari to'laligicha saqlab qolindi. 1960 yillardan boshlab YUNISEF bolalar manfaatini global himoya qiluvchi zabardast organga aylandi.

1965 yilda YUNISEFning Nobel mukofotiga sazovor bo'lishi xalqaro bolalar hayotida naqadar xayriya va saxovat manbai bo'lib shakllanganligining to'la e'tirof etilishi bo'ldi.

Hozirgi davrda ham YUNISEF bolalar manfaatini himoya qilishga, ularni sog'lom, o'qimishli bo'lib o'sishlariga ko'maklashish, bolalar

o'limining oldini olish, ommaviy qirg'in keltiruvchi va boshqa xavfli kasalliklardan muhofaza qilish, onalik va bolalikni himoya qilish, loaqal qizlar hamda o'g'il bolalarga bepul boshlang'ich ma'lumot berish, ular farovonligini ta'minlash ishlariiga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, bu sahovatli tashkilot bizning mamlakatimizda ham insonparvarlik faoliyatini boshlab yubordi.

Uning Respublikamizdagи faoliyatining asosiy yo'naliishlari onalik va bolalikni himoya qilish, ularga zarur tibbiy yordam ko'rsatish, to'laqonli ta'lim berish, turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy himoya qilishdan iboratdir. Shuningdek YUNISEF respublikamizda onalar va bolalar kasalliklarining oldini olish, ularni yuz foiz immunizatsiya qilish, bolalarni chechak, och terlama, difteriya, poliomielit, ko'k yo'tal, quturish kabi kasalliklardan himoya qilish kabi amaliy ishlarni bajarmoqda. Mana shu dasturga asosan dori-darmonlar, tibbiyot anjomlari va boshqa zarur narsalar olib kelinmoqda, ommaviy tushuntirish ishlari olib borilib, turli plakatlar, yo'riqnomalar, qo'llanmalar nashr qilinmoqda.

YUNISEF ta'limni amalga oshirishga ko'maklashishda ham faol qatnashmoqda. Ayniqsa, bu tashkilot faoliyati maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limga ko'proq yo'naltirilganligini alohida ta'kidlash zarur.

**Xalqaro Mehnat
tashkilotining kasbiy
ta'limni rivojlantirishga
doir faoliyati**

Inson huquqlarini hurmat qilish, ularning mehnat qilish va turmush sharoitini yaxshilash, ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, mehnatkashlarning jamiyat talablariga mos kasb bilan ta'minlash ularning kasb mahoratlarini oshirish, iqtisodiy ahvolini yaxshilash kabi ijtimoiy adolat tamoyillarini amalgat

oshiruvchi xalqaro tashkilot – XMT (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) birinchi jahon urushidan keyinroq tashkil etilgan edi.

Uning tashkil etilishiga birinchi jahon urushi oqibatida jahonda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy holat sabab bo'ldi. Chunki jahonda ro'y berayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jahon miqyosida aks etmog'i ko'zda tutilgan edi.

Oradan yigirma besh yil o'tgandan keyin XMTning Filadelfiya Konferentsiyasida uning maqsad va vazifalari kengaytirildi, jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari o'rtaida aholini mehnat hamda mehnatga tayyorlash bo'yicha keng hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari eng dolzarb masala deb qabul qilindi.

1946 yildan XMT Birlashgan Millatlar Tashkilotini birinchi ixtisoslashtirilgan muassasasiga aylantirildi. U hozir quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

1. Mehnatkashlarning ish sharoitini va turmush tarzini yaxshilash, ishga joylasha olish qobiliyatini oshirish;
2. Xalqaro mehnat normativlarini joriy etish, uni qo'llanishini nazorat qilish;
3. Keng ko'lamda xalqaro texnik-texnologik hamkorlikni yo'lga qo'yish, bu sohada davlatlar o'rtaida faol hamkorlikni va ushbu siyosatni samarali amalga oshirishni yo'lga qo'yish;
4. Kasbiy tayyorgarlik, hunar-texnika ta'limi, umumiy tadqiqotlar, nashr ishlari sohasida faoliyat ko'rsatish va hokazolar.

Bundan tashqari XMT o'zining qudratli o'quv markaziga ham ega. Bu o'quv markazi Italiyaning Turin shahrida bo'lib, yiliga unda 170 mamlakatdan 60 mingga yaqin kishilar kasbiy tayyorlash va kasbga

yo'naltirish, ta'lim, tashkilotchilik kabi eng zamonaviy va dolzarb sohalarda o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi XMTga 1992 yil 13 iyulda a'zo bo'lgan. Ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar har tomonlama rivojlanmoqda. Mazkur hamkorlik ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini ish bilan ta'minlash; mehnat taqsimoti, kasblarga o'qitish kabi masalalarida chet ellarda malaka oshirish; aholini kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish; kasb ta'limini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. YUNESKO jahon ta'lim tizimini rivojlantirishda qaysi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi?
2. YUNESKO ekologik ta'limni rivojlantirishga doir qanday ishlarni amalga oshirmoqda?
3. Favqulodda Bolalar Fondi (YUNESIF)ning asosiy maqsadi nima?
4. YUNESIFning ta'lim tizimini rivojlantirishga doir faoliyatini bayon eting.
5. Xalqaro Mehnat Tashkilotining vazifalari nimalardan iborat?
6. O'zbekiston Respublikasining Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan o'zaro hamkorligi qanday yo'nalishlarda yo'lga qo'yilgan?
7. Siz yana qanday Xalqaro tashkilotlarni bilasiz?

!

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

1-topshiriq. “Qiyosiy pedagogika fanining rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning roli” mavzusidagi toifalash jadvalini to’ldirning.

YUNESKO	YUNISEF	XMT

2-topshiriq. “Xalqaro tashkilotlarning qiyosiy pedagogika fanining rivojidagi ahamiyati shundaki ...” mavzusida asoslangan esse yozing.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o’z nuqtai nazaringizni bayon eting.
2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar keltiring.
3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

OSIYO DAVLATLARI TA’LIM TIZIMIDAGI O’ZIGA XOSLIKLER

Xitoya muktabgacha va boshlang’ich ta’lim.

Xitoya muktabgacha ta’lim bolalar bog’chalari va muktabacha ta’lim muassasalari hisoblanadi va 3-6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Muktabgacha ta’limining maqsadi bolani muktabga o’qishiga tayyorlashdan iboratdir.

Mamlakatda 150 mingdan ziyod bolalar bog'chasi mavjud bo'lib, ular davlat va xususiy muassasalarga bo'lingan. Davlat bolalar bog'chalari boy pedagogik va boshqaruv tizimiga ega, to'lov haqi katta emas. Xususiy bolalar bog'chalari nisbatan keyin shakllana boshlandi, to'lov haqi nisbatan baland. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan hususiy bolalar bog'chalarining soni ortib bormoqda. Hozirgi kunda hususiy bog'chalar soni jami bolalar bog'chalarining 30 %ini tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lif Xitoyda jamiyatning birligidagi say-harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Davlat mavjud qonunlar asosida bolalar bog'chalarini ochishga xohishi bo'lgan tashkilotlar, nodavlat-notijorat muassasalar, hamda alohida shaxslarni qo'llab-quvvatlaydi. Tarbiya jismoniy rivojlanish bilan uyg'unlikda olib boriladi, maktabacha ta'lif muassasalarida bolalarni jismonan, aqlan, estetik va boshqa har tomonlama rivojlanishlarida ko'mak beradi, bu bilan bolani eng kichik yoshidan barkamol shaxs bo'lib rivojlanishini ta'minlaydi.

Bolalar bog'chasida tarbiyaning asosiy vositasi o'yin hisoblanadi, u yerda bolalarning rivojlanishi uchun butun sharoitlar yaratilgan, o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlari ta'minlangan.

Davlat bolalar bog'chalari tarbiyachilarini toifalash va attestatsiyadan o'tkazish tsenziarini ishlab chiqqan. Xitoyda 67 ta maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtlari mavjud. Kasbiy maktablarda magtabgacha tarbiya mutahassisligi ta'sis etilgan. Natijada maktabgacha tarbiya pedagoglarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimi paydo bo'lgan.

Davlat tomonidan qabul qilingan "Bolalar bog'chalarini boshqarish qoidalari", "Bolalar bog'chalarida ishlash tartibi" va boshqa hujjalarga ko'ra bolalar bog'chalari boshqaruvi amalgam oshiriladi. Xitoy ta'lif

Vazirligi eng kichik yoshdagি bolalar (emizikli yosh) uchun maxsus ta'lim dasturini ishlab chiqdi.

Xitoy maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ikkinchi jahon urushuga qadar Xitoyda bolalar bog'chasi juda kam edi. Bori ham hususiy muassasalar bo'lib, unga boy oilalarning bolalari enagalari bilan kelishardi. Urushdan keyingi yillarda XXRning maktabgacha ta'lim tarixi davlatlarining asosiy rivojlanishiga mos holda 4 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchisi: 1949 – 1957 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davlat tizimining sobiq Ittifoq tizimiga orientatsiyalangan davri edi. Bu davrda sobiq Ittifoq muta[assis]lari Xitoy mamlakatida bir necha tajriba bolalar bog'chalarini tashkil qildilar. Shundan keyin bolalar bog'chalarini soni keskin ortdi. Bu bog'chalarning asosiy tamoyili "Pavlov yondashuvi" deb nomlanib, refleksiologiya asoslarini ishlab chiqqan rus olimi I.P.Pavlov nomiga qo'yilgan edi. Pedagogikada "Pavlov yondashuvi" quyidagicha talqin qilinardi: "Bolani rag'batlantirib, tergab to'g'ri tarbiyalasa, unda barcha yaxshi xislatlar va qobiliyatlarini shakkantirish mumkin"

Ikkinchisi: 1958-1965 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda bolalar bog'chalarini soni keskin ortdi, lekin ular uchun joy, moddiy ta'minot va mutaxassislar yetishmas edi. Natijada maktabgacha ta'lim sifati nisbatan pasayib ketdi.

Uchinchisi: 1966-1976 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillar "Xitoy" madaniy revolyutsiyasi yillari deb ataldi, ziyolilar, beklarni ommaviy qatag'on qilinishi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Xitoy ta'lim tizimida ilmsiz, kasbiy noloyiq kimsalar ko'paydi, natijada maktabgacha ta'lim tizimi juda nochor holga kelib qoldi. Bolalar bog'chasida hayot qattiq

g'oyaviy ko'rsatmalar asosida tashkil qilinardi: bolalarga revolyutsion va militaristik g'oyalar singdirilardi, Maoning asarlari va she'rlaridan parchalar yodlatishardi.

To'rtinchisi: 1980-yillardan boshlab, Xitoy iqtisodiyotining o'zgarishiga ko'ra bolalar bog'chalarida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Xitoy pedagoglari Amerika va Yapon mактabgacha ta'lim tarbiyasi bilan qiziqa boshladilar. Lekin bog'chalarda hanuzgacha tarbiyaga avvalgiday yondashuv mavjud.

Xitoyda bolalar bog'chasi katta bo'lib, o'rtacha 270 bola va 60 ta tarbiyachilar jamoasidan iborat. Guruhda 26 ta bola bo'lib, ularning bir qismi bog'chada kunduzgi soat 8:00 dan 18:00 gacha bo'ladilar va kechqurun uyga ketadilar. Bir qismi (5%) kechasi ham qoladilar. Chorshanba va shanba kunlari uyga ketadilar. Bog'chaga qabul soat 7:45 da boshlanadi.

Dushanba kuni ertalab tabiiy hamshira bolalarning sog'lomligini tekshiradi. Bog'cha xovlisida musiqa yangrab turadi. Bolalar nonushta qiladilar, garchand uyda nonushta qilib kelgan bo'lsalarda, bog'chada berilgan nonushtani albatta yeydilar. Bog'cha bolalar yorqin kiyinadilar, qizlar qizil, pushti rang bantiklar taqadilar, o'g'il bolalar harbiy kiyimni xush ko'radilar.

Guruh xonalarida ikki qismlik partalar, devorda doska, kalender, kitob alfaviti, rasmlar osilib turadi. Guruhda odatda 2 ta tarbiyachi va 1 ta yordamchi ish olib boradi.

Ma'lumki, Xitoy aholisi juda ko'p davlat. Shu bois ham Xitoy davlati tug'ulishni rejalashtirish sohasida qat'iy siyosat olib boradi. Har bir oila bittadan ortiq bola ko'rmasligi kerak. Oilda bola sonining

chegaralanganligi ota-onaning bolaga munosabatida o'z ifodasini topadi. Xitoy oilasida bittayu-bitta bolasini erkalatadi, yaxshi ta'lif berishga harakat qiladi. Bolalar bog'chasida qat'iy tartib va intizom o'rnatiladi, bolalar erkakliklari ta'qilqanadi. Tarbiyachilar bolalarning shaxsiy hususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu hususiyatlari tug'ma deb hisoblamaydilar. Bolalar bog'chasida o'zaro urushlar, erkakiklar, kattalar talabiga bo'y sunmaslikka yo'l qo'yilmaydi. Yomon intizom ilk ko'rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o'zini yomon tutsa, tarbiyachi uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi.

Bola o'z aybini tushungachgina tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urih, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo'li bu – taqqoslash va rag'batdir. Tarbiyachilar bolalarga quyidagi savollarni beradilar:

- Shunday qilsa to'g'ri bo'ladimi?
- Nega noto'g'ri deb hisoblaysiz?
- To'g'ri bo'lishi uchun nima qilish kerak?
- Kim to'g'ri qildi?

Bolalar diqqat bilan eshitadilar va to'g'ri hayotiy misollarni eslab qoladilar. Har bir tartibsizlikka tenbeh beriladi, aks holda bola bu tarbiyasizlikni to'g'ri hisoblab, o'ziga singdirib olishi mumkin deb hisoblanadi.

Buyuk Xitoy filosofi Konfutsiy "Bolalar to'g'ri intizomli bo'lib tug'ilmaydilar: ularning harakterlari tajribada shakllanadi, ustoz esa to'g'ri tarbiyaga mas'uldir. Tarbiyachilar o'ta bosiq, qat'iyatli bo'lishlari lozim", - deb ta'kidlagan.

Xitoy mактабгача та'lim tizimini qattiqqo'llиги учун tanqid qilishadi. Tarbiyachilar bolalarning tartibini nazorat qiladi va chegaralaydi. Bolalar mashg'ulotlarda nofaol, kattalar fikriga mutlaq qо shiladilar. Lekin ota-onalar tarbiyachilarни o'z kasbining ustalari deb bilishadi, farzandlarini tarbiyachisiga to'liq ishonishadi.

Xitoy bolalaridagi qat'iylik va mehnatsevarlik an'anaviy fazilatlarga aylangan.

Boshlang'ich ta'lim.

Xitoyda har bir 6 yoshga to'lgan bola boshlang'ich ta'limni umumta'lim maktablarida oladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish 6 yil davom etadi va keyingi ta'lim bosqichlari учун mustahkam asos qo'yiladi. Boshlangich ta'limda o'qitiladigan asosiy fanlar sirasiga axloqiy tarbiya, xitoy tili, adabiyoti, siyosat, matematika, tabiiyot fanlari, jismoniy tarbiya, fizika, ximiya, biologiya, tabiatshunoslik, san'at, mehnat, 3-sinfdan boshlab chet tilli kabi fanlar kiradi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga vatanga, xalqqa, mehnatga, ilm-fan va o'zlarida mavjud bo'lgan sotsialistik tuzumga mehr-muhabbat tuyg'usi singdiriladi. O'qish, yozish, hisoblash, tabiat va jamiyat haqidagi boshlang'ich bilimlar beriladi, mustahkam o'quv malakalari hosil qilinadi, o'quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlavishiga katta e'tibor beriladi. Fanlar ichida ona tili va matematikaga alohida urg'u beriladi.

Shuningdek, o'quvchilar 4-sinfdan boshlab, 1 yilda 2 hafta ferma va ustaxonalarda ishlaydilar, hamda haftaning 1 kuni albatta sinfdan tashqari tadbir va jamoat ishlarida qatnashadilar.

2007 yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra Xitoyda 400 ming boshlang'ich maktab mavjud bo'lib, unda 120 milliondan ortiq o'quvchilar boshlang'ich ta'lim olmoqda. Bu 99,52%ni tashkil etadi.

XXRning "Majburiy ta'lim haqidagi Qonun"iga ko'ra ta'lim bepul, faqat o'quv darsliklari, daftар va o'quv qurollari uchun haq olinadi, xolos. Bepul ta'lim hisoblangan boshlang'ich ta'lim muassasalari davlat tasarrufida bo'lib, o'quvchilar yashash manziliga ko'ra qabul qilinadi.

Qishloq va tog'li hududlarda joylashgan maktablarning pedagogic sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday joylarda ko'chma maktablar va sinflar tashkil qilinmoqda.

Boshlang'ich maktabni tugatgan bolalar kirish imtixonisiz yashash manziliga ko'ra o'rta maktabga qabul qilinadi.

O'rta va kasbiy ta'lim

Xitoyda o'rta ta'lim to'liqsiz va to'liq (katta) maktab bosqichlaridan iborat. O'quvchilar 12-13 yoshga to'lgach, to'liqsiz o'rta maktabda, ya'ni o'rta maktabning birinchi bosqichida o'qiy boshlaydilar. O'qish uch yil davom etadi. Birinchi bosqichda o'qitiladigan asosiy fanlar sirasiga ona-tili, matematika, chet tili, informatika, ma'naviyat, etika, fizika, ximiya, siyosiy savodxonlik, geografiya kabi fanlar kiradi. To'qqizinchи sinf - Xitoydagи majburiy ta'limning oxirgi bosqichidir. 2007 yilgi statistik ma'lumotlarga qaraganda o'rta maktabning birinchi bosqichiga 98% bolalar qabul qilinadilar.

O'rta maktabning ikkinchi bosqichi to'liq o'rta maktab (katta maktab) hisoblanadi. Bu bosqichga qabul qilingan o'quvchilar 15-16 yoshda bo'ladilar. Ikkinchi bosqich o'rta maktablarida va oliy o'quv yurtlarida o'qish Xitoy fuqarolari uchun majburiy emas. Bu bosqichda

to'liq o'rta ta'limga beriladi va o'quvchilar oliy ta'limga o'qishni davom ettirish imkoniga ega bo'ladilar. To'liq o'rta maktabni bitirgan o'quvchilar bitiruv imtihoni topshiradilar, imtihon natijalariga ko'ra u yoki bu universitetga kirish imkonini belgilanadi.

O'rta ta'limga avvalgiday chet ellik o'quvchilar qabul qilish cheklangan. Xususan, XXRning barcha maktablari ham chet ellik o'quvchilarni qabul qilish imkoniyatiga ega emas, bu imkoniyat "keyshool" deb nomlangan yetakchi maktablarga gagina beriladi. Chet ellik o'quvchilar uchun Xitoyda qator talablar va cheklanishlar bor. Masalan, XXR qonuniga ko'ra chet ellik o'quvchining (agar ota-onasi Xitoyda bo'lmasa) rasmiy vasiylikka olgan kishi bo'lishi shart.

Xitoydagagi umumta'limga o'rta maktablarining vazifasi – yaxshi ishchini, yoki oliy o'quv yurtiga kirishi uchun yaxshi tayyorlangan abituriyentni shakllantirishdir.

Akademik profil – bu standart o'rta maktab bo'lib, kelgusida oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

Kasbiy ta'limga

O'rta kasbiy – texnik ta'limga umumiyligi ta'limga alternativ hisoblanadi. 1996 yil qabul qilingan XXRning "Kasbiy ta'limga haqidagi Qonuni"da kasbiy ta'limgining ahamiyati, tuzilishi, asosiy vazifalari, boshqaruv tizimi va moliyaviy manbaalari aniq ko'rsatilgan. Ushbu hujjatning qabul qilinishi Xitoyda kasbiy ta'limga huquqiy asosiga egaligini ko'rsatadi. Kasbiy ta'limga oliy va o'rta kasbiy maktablar, o'rta texnikumlar, kasbga yo'naltirilgan o'rta maktablar, kasbiy tayyorlarlik markazlari, kattalar uchun texnik tayyorlash maktablari, kasbiy texnika bilim yurtlari, tayyorlov markazlari, jamoatchilik kurslari kiradi. O'qish muddati 2dan 4

yilgacha, ba'zi mutaxassislar (masalan tibbiyot) 5 yilgacha davom etadi. O'rganiladigan fanlar tanlangan mutaxassislikka to'liq mos keladi. O'qish tugagach, bitiruvchilar tanlangan kasbiga ko'ra taqsimot bo'yicha ish bilan ta'minlanadilar. Kasbiy ta'limni iqtisodiy tuzilishi va urbanizatsiya rivojlantirishni tartibga solish talablariga yaxshi mos kelishiga ko'maklashish maqsadida Xitoy davlati keyingi yillarda kasbiy ta'lim rivojlanishini isloh qilish va yaxshilash bo'yicha qator tartib-choralar qo'lladi.

Jamiyatning yuqori sifatli va yuqori malakali kadrlarga talablarining tezkor o'shini qoniqtirish maqsadida kasbiy ta'limning ikkita loyihasini amalga oshirishga e'tibor qaratildi. Bu birinchisi, zamonaviy ishlab chiqarish va maishiy hizmat muassasalari uchun tanqis bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash, ikkinchisi shaharga ko'chib keluvchi qishloq ishchi kuchini tayyorlash loyihasidir.

Kasbiy ta'lim rivojlanish sur'atini tezlashtirishi uchun g'arbiy rayonlarning kambag'al uezdalarida davlat mablag'i asosida 186 ta kasbiy tayyorgarlik markazlari yaratilgan.

XXRdagi o'rta maktabning ikkinchi bosqichiga yana bir nazar tashlaydigan bo'lsak, uning quyidagi turlarini ko'rishimiz mumkin:

1. Oddiy o'rta maktab;
2. Kattalar uchun o'rta maktab;
3. O'rta maxsus o'quv muassasasi;
4. Kasbiy maktablar;
5. Texnikumlar;

6. Kattalar uchun o'rta maxsus o'quv muassasasi.

Oddiy to'liq o'rta maktabga 15-16 yoshlilar qabul qilinadi va 3 yil davom etadi. O'rta kasbiy bilim yurti 2 ta bosqichga bo'linadi: to'liqsiz o'rta maktab 15-16 yoshli o'quvchilardan iborat bo'lgan bilim yurtlari uchun o'qish muddati 4 yil, ba'zi bilim yurtida 3 yil. To'liq o'rta maktabning 22 yoshli o'quvchilaridan iborat bilim yurtlari uchun o'qish muddati 2 yil. To'liqsiz o'rta maktab bitiruvchilari kasbni 3-4 yilda o'rghanadilar. Texnik bilimi yurtlarida o'qish muddati 3 yil.

Umumta'lim o'rta maktablarining vazifasi bo'lajak ishchilarni tayyorlash hamda oliv o'quv yurtlariga kirish uchun abituriyentlarni tayyorlashdan iborat. Umumta'lim o'rta maktablarida Xitoy tili va adabiyoti, matematika, chet tili, siyosiy ta'lim, tarix, geografiya, biologiya, fizika, ximiya, fiziologiya, jismoniy tarbiya, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlar o'qitiladi. O'rta maktab dasturlari o'quvchilarni axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik tarbiyalashga qaratilgan. Ko'p maktablarda kasbiy ta'lim kurslari mavjud.

O'rta kasbiy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar moliya, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, texnika, turizm kabi tanlangan mutaxassislikka bog'liq.

Bu kasblar bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar kasbiga ko'ra turli muassasalarga ishga taqsimlanadilar.

2007 yil statistik ma'lumotlarga ko'ra o'rta maktabning ikkinchi bosqichiga 66 % bolalar qabul qilinadi.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, kasbiy – texnik yo'naliш bir necha bosqichli o'quv muassasalaridan iborat: maxsus texnik, texnik, kasbiy va qishloq xo'jalik maktablari. Maxsus texnik maktablarda o'qish muddati 4

yil. Kasbiy va qishloq xo'jalik mакtablarida o'qish 3 yil bo'lib, ular kamroq e'tiborga loyiq.

O'qish sentabrda boshlanadi va 9,5 oy davom etadi, 2 ta semestrдан iborat. Ta'til kunlari yanvardan fevralgacha, iyundan avgustgacha davom etadi. Mashg'ulotlar haftada 5 kun ertalabdan tungacha bo'ladi.

O'rta maktabning akademik yo'naliши bo'yicha o'qish davomida turli turdag'i imtihonlar, yakunida – bitiruv imtihonlari topshiriladi.

Maktab ta'limi haqida attestat olish uchun xitoy tili, matematika, chet tili, fizika, ximija, siyosatshunoslik, tarix, geografiya, informatika, biologiya fanlaridan imtixonlar topshiradilar.

Yagona bitiruv maktab imtixoni (Rossiya EGEsiga o'xshagan) butun davlat bo'yicha may oyida o'tkaziladi. Bitiruvchilar bilimlarini baholash 100 balli tizim asosida baholanadi.

Oliy ta'limning muhim qismi bo'lgan va yuqori bosqichdagi o'rta ta'lim bazasida amalga oshirilayotgan kasbiy oliy ta'lim hozircha rivojlanishning boshlang'ich bosqichida turibdi. U 87 ta kasbiy-texnik institatlarda, qisqa muddatli kasbiy universitetlarda, maxsus texnikumlarda, qayta qurishni amalga oshirayotgan o'nlab oliy maxsus o'quv yurtlarida, kattalar uchun 188 mutaxassislik bo'yicha 133 ta oliy o'quv yurtlarida taxsil oladilar. Undan tashqari 18 ta o'rta texnikumda oliy kasbiy ta'lim guruhlari kiritilgan. Bu oliy kasbiy o'quv muassasalari amaliy va texnologik sohadagi malakali texnik ishchilarni tayyorlaydi. Kasbiy ta'limni rivojlantirish dasturiga ko'ra Xitoy yaqin kunlarda oliy kasbiy ta'lim tizimini isloh qilishni tezlashtiradi, oliy kasbiy mакtablarni tartibga soladi.

Hozirgi kunda Xitoyda 3026 ta o'rta kasbiy mактаб mavjud. Kasbga yo'naltirlган to'liq o'rta maktab 1980 yillarning boshida tiklangan va milliy iqtisodiyotni ko'tarish talablariga javob berib rivojlana bordi. Hozir 8500 ta shunday maktablarda 4 mln. kishi o'qiydi.

Kasbga yo'naltirlган to'liq o'rta maktablarning vazifalarning to'liq o'rta ta'limga ega bo'lgan keng profili aniq kasbiy bilim va malakalarga ega bo'lgan ishchilarni tayyorlashdan iborat. 1980 yillarda bunday toifadagi maktablarda fan o'qituvchilari o'quv qo'llanmalari, laboratoriyalari va ishlab chiqarishi ba'zalari yetishmas edi. Hozirgi kunda muammolar bartaraf etilib ta'lim sifati oshdi.

Xitoyda 1944 yil ilk paydo bo'lgan o'rta texnik bilim yurtlari (texnikumlar) yuqori malakali ishchilarni tayyorlash uchun mo'ljallangan. Ular 4467 ta bo'lib, 400 dan ortiq mutaxassislik bo'yicha 1,863 mln. kishi tahsil oladi.

Hozirgi kunda 17 ming kasbiy o'quv yurtlari, 2090 kasbiy tayyorgarlik markazlari, 400dan ortiq malaka oshirish markazlari, kattalar uchun texnik tayyorgarlik kurslari mavjud. Har yili 10 millionlab kishilar bu yerda tahsil oladilar. Bu Xitoyda asosan yuqori, o'rta, boshlang'ich bosqichlardan iborat bo'lgan kasbiy ta'lim tizimi shakllanganligini bildiradi.

OLIY TA'LIM

Xitoyda oliy ta'lim tizimi o'z ichiga universitet, kollej va oliy kasbiy maktablarni oladi, hamda o'zining nufuziga ko'ra bir necha ierarxik kategoriyalarga bo'linadi. Maktab bitiruv imtixonlarida olingan ballarga ko'ra bitiruvchilar oliy o'quv yurtlarining yuqori yoki quyi toifalariga nomzod bo'la oladilar. Xitoy universitetlariga kirish qat'iy raqobat

sharoitida o'tadi: ba'zi universitetlarda bitta o'ringa 200-300 kishi to'g'ri keladi. Xitoyda, xuddi G'arb davlatlaridagi kabi uch bosqichli standart tayyorlov bosqichi mavjud. Bular: bakalvriat – o'qish muddati 4-5 yil. Bu bosqichini tugatganlar "Bakalavr" maqomi bilan tugallangan oliy ta'limga oladilar. Magistratura – o'qish muddati 2-3 yil. Doktorantura – o'qish muddati 2-3 yil, ba'zan 4 yil.

Oliy ta'limga Bolon'ya tizimi asosida tuzilgan, lekin Xitoy bu tizimda ishtirok etmaydi. Aspirantlar uchun ta'limga ikki bosqichi mavjud: aspirantura va doktorantura.

Aspirantlar va doktorlarga turli talablar qo'yadi. Kandidatlar (nomzodlar) Vatanni sevish, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi, bitta chet tilini mukammal bilishi va ilmiy – tadqiqot ishlarini olib bora olishi lozim. Aspiranturada o'qish muddati 2-3 yil. Doktorlarga talablar hozirgi aspirantlarga qo'yilgan talablardagiday, faqat farqi shundaki, doktorlar ikkita chet tilini bilishlari, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi lozim.

O'qitish shakliga ko'ra aspirantlar ishlab chiqarishdan uzilgan holda va ishlab chiqarishdan uzilmagan holda olib boriladi.

Oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifalari yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, fan, texnika va madaniyatni rivojlantirishdir. Hozirgi paytda davlat "Dastur - 2011"ni amalga oshirishga katta yordam bermoqda. Bunga ko'ra 100 ta muhim oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan zarur fanlar va mutahassisliklar qatorida o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot, boshqaruvi va xo'jalik faoliyatları eng yuqori darajasiga chiqishi kerak.

Keyingi yillarda iqtisodning modernizatsiyalash talablarini to'liq qondirish maqsadida o'quv mutaxassisliklari ro'yxati qayta ko'rib chiqildi; moliya va iqtisodiyot, siyosat va huquqiy fanlar, iqtisodiyot boshqaruvi,

mashinasozlik, arxitektura, elektronika, EHM, yengil oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatiga urg'u berildi.

Xitoyda 2 ming OO'YUlari mavjud. Birinchisi Pekinda joylashgan Tsinxua universiteti kabi politexnik universitetlar, ikkinchisi Xefey shahridagi Ilmiy-texnika universiteti kabi oliy o'quv yurtlaridir. Bularga ko'plab texnik va tabiiy fakultetlardan iborat oliy o'quv yurtlari, hamda tor bitta soha texnik institutlari kiradi.

Umumiy sohalardagi universitetlar 2 ta yo'nalishdagi fakultetlarga ega: gumanitar va aniq. Gumanitar fakultetlar til, adabiyot, tarix, falsafa, iqtisodiyot, huquqshunoslik va boshqa fanlarga asoslangan. Aniq fanlar yo'nalishi: matematika, fizika, ximiya, biologiya, geografiya, geologiya, radioelektronika va boshqa fanlarga asoslangan. Umumsoha universitetlariga Pekin, Nankay (Tyan'zin shahri) va Fiden' (Shanxay shahri) universitetlari misol bo'la oladi. Davlat oliy o'quv yurtlariga qabul yagona reja asosida amalga oshiriladi. 2007 yilgi statistika ma'lumotlariga ko'ra oliy o'quv yurtlariga aholining 23 % topshiradi. Ta'lim organlari tomonidan boshqariladigan qabul komissiyalari, umummilliy va mahalliy bosqichlarida shakllanadi. Institutlar va fakultetlar imtixonlar natijalariga ko'ra layoqatli abiturientlarni ularning hohish va sog'lig'iga ko'ra qabul qiladilar. Bazaviy oliy o'quv yurtlari eng yaxshi talablarni tanlab olish imkoniyatiga ega. Davlat bitiruvchilariga yagona reja asosida ish beriladi. Umumsoha oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati 4 yil. Ba'zi sohalar, jumladan, tabiiy fanlar, texnik, tibbiyat bo'yicha – 5 yil. Tor sohali oliy o'quv yurtlarida o'qish qisqa muddatlari bo'lib, 2-3 yilni tashkil etadi. Bitiruvchilarga bakalavr darajasi beriladi. Aspirantlarni tayyorlash 2

qismga bo’linadi: magistr ilmiy darajali mutaxassis va fan doktori ilmiy darajali mutaxassis.

I kategoriyadagi aspirantlar yoshi 40dan oshmaydi, o’qish 2-3 yil davom etadi. Ikkinchisi – 45 yoshdan oshmaydi, o’qish muddati 3 yil.

Xitoya oliy ma’lumotga ega bo’lish juda ham obro’li sanaladi. Milliy kadrlar tizimi orasida ta’lim eng yetakchi o’rinni egallaydi. Oliy ta’lim olishga akademik profildagi o’rta maktab bitiruvchilari va maxsus texnik maktab bitiruvchilari haqli. Maktab bitiruv imtixonida to’plangan ball natijalariga ko’ra oliy ta’limga kirish imtixonlariga kiritiladi.

Oliy o’quv yurtlariga kirish uchun abiturient 7 ta fan bo’yicha maxsus imtixon topshiradi.

Xitoya pulli oliy ta’lim muassasalari ko’p, lekin shartnoma asosida o’qishga kirish ham juda qiyin. Iqtidorli yoshlar uchun tekin o’qish imkoniyati bor. Undan tashqari, ba’zi fanlarda talaba ishlagan muassasa o’qish uchun pul to’laydi. Iqtidorli talabalar davlat stipendiyasi yoki tashkilot va muassasa subsidiyalari ko’rinishidagi imtiyozlarga ega.

Qisqa muddatli tor sohali oliy o’quv yurtlarida o’qish muddati 2-3 yil. Bu o’quv muassasalari talabalarni sanoatning turli sohalarida ishlash uchun o’rta bo’g’inda diplomli mutaxassislardir.

4 yillik dasturli bakalavriat kollejlari maxsus texnik va oddiy o’rta maktab bitiruvchilarini qabul qiladi. O’qish tugagach, bitiruvchilarga mutaxassislik bo’yicha diplom beriladi yoki bakalavr darajasi beriladi.

O’tgan davirlarga nazar tashlaydigan bo’lsak, 1978-yildan keyin qayta qurish orqali ko’p bosqichli oliy ta’lim tizimi shakllandi. Oliy o’quv yurtlari soni 1978 yil 598 ta bo’lsa, 1998 yil 1002 taga yetdi. Hozirgi kunga kelib, bu ko’rsatkich yanada oshdi. Oliy ta’lim tizimi boshqaruvini

uzluksiz chuqur isloh qilish natijasida oliy o'quv muassalarining masshtabi kengaydi, ta'lim samaradorligi sezilarli oshdi. Turli mutaxassisliklar bo'yicha bituruvchilar soni tenglashtirildi, mutaxassisliklar tizimi optimallashtirildi. Buning hammasi har yili ko'p sonli yuqori malakali mutaxassislarni taylorlash imkonini beradi.

Keyingi yillarda yuqori va yangi texnologiyalar bilan shug'ullanadigan oliy ta'lim qoshidagi muassasalar keng rivojlandi.

Sotsiolistik bozor iqtisodiyoti tizimining tasdiqlanishi va xalq xojaligining barcha sohasini isloh qilishni chuqurlashishi ta'sirida yoki boshqaruv tizimini oliy o'quv muassasalari bilan almashtirish oliy ta'limni butkul isloh qilishda asosiy nuqta bo'ladi. Oxirgi yillarda oliy ta'limni yuritish mexanizmi, moliyalashtirish usullari, kadrlarni boshqaruv tizimi va taqsimot tizimini qayta qurishning samarali natijalari ko'zga tashlanadi.

Talabalarni o'qishga qabul qilishi tartibi va bitiruvchilar taqsimotida ham ulkan siljishlar bo'ladi. 1997 yildan o'qishga qabul qilishning talabalarni toifalarga ajratuvchi eski tartibi bekor qilindi.

Hozir barcha talabalar bir hil tartibda o'qishga qabul qilinadilar va o'qishga pul to'laydilar. Moliyaviy qiyinchilikni boshidan kechirayotgan talabalarga bank krediti ajratilib, stipendiya beriladi.

Bitiruvchilarni ishga joylashtirish "ikki tomonlama tanlov" ya'ni "bitiruvchi va ish beruvchi tashkilot" prinsipi asosida amalga oshiriladi. Barcha Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari davlat siyosatiga binoan o'zлari mustaqil ish topadilar, o'qishdan keyin ishga joylashishi haqida kontrakt tuzgan bituruvchilar bundan mustasno.

Aspirantura ham o'tgan davrlarda katta yutuqlarga erishdi. 1949-yilga qadar yuqori malakali Xitoy mutaxassislari asosan chet ellarda

tayyorlanardi. Shu yilga qadar bu Oliy o'quv yurtlari atigi 200dan ortiq magistr tayyorlagan, birorta fan doktori bo'lмаган. Lekin 1978 yildan keyin 63 ming kishi aspiranturaga imtihon topshirib, 10 mingi ko'nkursdan o'tdi. Faqat 1998 yilning o'zida 8957 ta tadqiqotchiga doktor ilmiy darajasi berildi, 38051 ta kishi magistr bo'ldi.

Xitoy o'z Oliy o'quv yurtlariga chet ellik talabalarни qabul qiladi, o'z talabalarini chet elga o'qishга va malaka oshirishга jo'natadi. Birgina 1998 yil Xitoy 164 ta davlatdan 43084 talabani o'qishga qabul qildi. Xitoydan chet elga o'qishga ketgan talabalar soni 23 mlnni tashkil etdi. Xitoy Oliy o'quv yurtlari 3/2 qismi davlat tasarruffida, qolgan 1 qismi xususiy bo'lib, hozirgi kunda 3 mingta Oliy o'quv yurtlarida 20 million talaba tahsil olyapti.

MAXSUS TA'LIM

Xitoya maxsus ta'limga katta ahamiyat beriladi. Nogironlar ta'limga olish huquqini kafolatlovchi qonun va ko'rsatmalar qabul qilingan. Hozirgi kunda 1655 ta maxsus ta'limga o'quv muassasasida 365 mingdan ortiq kishi tahsil oladi.

Xitoya 1029 ta nogironlar uchun kasbiy tayyorlov kurslari va 2898 ta oddiy tayyorlov kurslari faoliyat yuritayapti, kar-soqov bolalar uchun 1700 ta sog'lomlashdirish markazi tashkil etilgan bo'lib, unda 70 mingdan oshiq bolalar tayyorgarlikdan o'tgan. 2003 yil 3 mingdan ortiq nogironlar oddiy oliy o'quv yurtlariga kirdi. Maxsus ta'limga rivojlantirish uchun siyosiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan, maxsus ta'limga rivojlantirish fondi tashkil qilingan.

Nodavlat ta'lif muassasalari

Xitoy davlati jamoatchilik asosida ta'lif muassasalarini tashkil etishni qo'llab quvvatlaydi. Xitoy Xalq Respublikasining Davlat ta'limini rivojlantirishga ko'maklashish haqidagi qonuni 28 dekabr 2002 yil e'lon qilindi va 2003 yil 1 sentabrdan kuchga kirdi. 2003 yil oxirida Xitoyda 60 ming nodavlat o'quv muassasalari bor bo'lib, unda 11, 16 million kishi tahsil oldi. Bulardan 1202 oliy o'quv yurtiga 1,4 million talaba kirdi.

Jamoatchilik asosida tashkil topgan o'quv yurtlari chet el bilan birgalikda o'quv muassasalarini qurishga kirishdi. Ko'p chet el universitetlari shu yo'l orqali Xitoyda o'rnatshib oldi. Bunday hamkorlikdagi universitetlar yoshlarning o'qishi uchun yana bir imkoniyat bo'ldi, hamda Xitoy ta'lif tizimini boyitdi.

Masofaviy ta'lif.

Hozirgi kunda Xitoyda onlayn universitetlar ko'p. Oliy ma'lumotni masofaviy ta'lif orqali, uydan chiqmay o'tirib ham olish mumkin. Masofaviy ta'lif sekin-asta keng rivojlanib bormoqda. Masofaviy ta'lifdan uzoq rayonlarda yashovchi talabalar eng katta foyda ko'radilar. Kirish imtixonlaridan yiqilgan talabalar ham ta'lif va kasbiy tayyorgarlik oladilar.

Ta'lif vazirligi 68 ta oliy o'quv yurtlari va markaziy radio va teleuniversitetga zamonaviy masofaviy ta'limning tajriba nuqtalarini yaratish bo'yicha ish boshlashga ruhsat berildi. 2013 yilning oxirigacha bu oliy o'quv yurtlari mamlakat bo'yicha 2027 oliy o'quv yurtidan tashqari markazlar yaratdilar, bular 10 ta yirik fanlardan iborat 140 kasbni qamrab oladi. 1,373 million kishi ta'lif oluvchilar ro'yxatidan o'tgan.

1994 yil shakllana boshlagan Xitoy ta'lim va ilmiy – tadqiqot tarmog'i doirasida 20 ming km. tezkor o'rgimchak to'ri yaratildi. U 28 mahalliy va xalqaro axborot kanallariga ega, davlatning bosh shaharlarini egallagan va Xitoyda masshtabi bo'yicha ikkinchi Internet turiga aylandi. Bu tarmoq qisqa muddatda 2000 yil ochilgan Xitoy ta'lim tarmog'i bilan bog'landi.

Kattalar uchun ta'lim

Xitoy Xalq Respublikasining ilk tashkil topgan yillari savodsizlar soni aholining 80%ini tashkil etgan paytlarda, xalq hukumati "savodxonlikka o'rGANISH, savodsizlikni yo'q qilish"ga chorladi. Shundan beri kattalar uchun ta'lim keng yoyildi.

Kattalar uchun ta'lim madaniy bilimlarni ish bilan band bo'lgan kishilar orasida ommalashtirish, ishsizlarni kasbiy tayyorlash, savodxonlikni bartaraf etish ma'lum bilimga (jumladan oliv) ega, lekin uzoq davom etuvchi ta'lim yoki bilimlarni to'ldirish uchun joriy etilgan.

Kattalar uchun ta'lim tizimiga radio – va teleuniversitetlar, ishchilar, hodimlar va dehqonlar uchun oliv o'quv yurtlari, boshqaruven kadrlari uchun institutlar, pedagoglar uchun institutlar, sirtqi institutlar, oliv o'quv yurtlari qoshida kattalar uchun ta'lim kurslari (masalan, sirtqi, kechki kurslar, o'qituvchilarni qayta tayyorlash kursi), masofaviy ta'lim kursi va boshqalar; ishchilar va hizmatchilar uchun o'rta maxsus kurslar, kattalar uchun o'rta maktab va texnik tayyorgarlik o'rta maktablari, kattalar uchun o'rta maxsus maktablar yoki o'rta umumta'lim maktablari qoshida dehqonlar uchun madaniy – texnik maktablar, dehqonlar uchun radiotelematablari va h.k.

Kattalar uchun ta'lim tizimi quyidagi shakllarda amalga oshadi; to'liq o'quv kuni bilan auditoriya ta'limi, audio-vizual o'quv qo'llanma ta'limoti bilan sirtqi ta'lim, ishlab chiqarishdan qisman yoki to'liq ajralgan holdagi ta'lim, kechki ta'lim va h.k.

Kattalar uchun ta'lim maqsadiga ko'ra 2 ta toifaga bo'linadi: ta'lim olganligi haqida attestat berish yoki bermaslik. Birinchi toifaga to'liq muddatli oliy o'quv yurtlari kursi, ta'limning qisqa muddatli kursi, o'rta maxsus va o'rta umumta'lim. Ikkinci toifaga savodsizlikni bartaraf qilish kurslari, amaliy texnologiyalarni qishloqlarda yoyish bo'yicha alohida fanlarni o'qitish kurslari, oliy ta'limdan keyingi kurslar.

Xitoyda keyingi yillarda o'quv binolari, laboratoriya kurslari yangilandi, kattalar uchun o'quv muassasalarida o'qituvchilar tarkibining malakasi oshirildi, ta'limning sifati va samaradorligi sezilarli yaxshilandi. Kattalar uchun ta'lim xalq ta'limining muhim bo'ginlaridan biriga aylandi. Hozirgi davlat o'quv muassasalaridan tashqari jamoatchilik mablag'iqa qurilgan 1200 ta oliy maktablar mavjud. 30 dan ortiq oliy o'quv yurtlari tayyorgarlik va malaka oshirish qisqa muddatli kurslarini ochgan.

Oliy ta'lim barqaror rivojlanmoqda. 2003 yil oxirida Xitoyda 19 million talaba tahsil oldi. Aholini oliy ta'lim bo'yicha qamrab olish koeffitsienti 17 %ni tashkil etadi. Xalqaro tan olingan standartlarga ko'ra Xitoy ommaviy ta'lim bosqichiga o'tdi. 2003 yil 23 iyunda YUNESKOning "dunyoda oliy ta'lim sohasidagi holati haqida"gi ma'ruzasida ko'rsatilishicha, Xitoy oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchilar soni juda qisqa muddat ichida 2 martagacha oshdi, oliy ta'lim ko'lami bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turibdi.

Ko'p yillar davomida oliy o'quv yurtlariga qabul kengaymoqda. 1999 – 2002 yil oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalar soni 3,2 millionga yetdi. 2003 yil 3,82 million talaba qabul qilinib, o'tgan yilidan 620 ming talabaga ko'paydi. Oliy o'quv yurtlari aspiranturasi va tadqiqot institutlariga 269 ming tadqiqotchi qabul qilinib, o'tgan (2003) yilga nisbatan 66 ming tadqiqotchiga ko'paydi. 2004 yil davlat rejasiga ko'ra 230 ming tadqiqotchi qabul qilish kutilmoqda. Bu esa 2003 yil nisbatan 22,7 % ga ko'proq.

Oliy o'quv yurtlarining ilmiy-tadqiqot salohiyati mustahkamlanmoqda, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga qoshgan hissasi kundan kunga sezilarli bo'lib bormoqda.

Ishlab chiqarish, ta'lif, tadqiqotlar solasida hamkorlik mustahkamlandi, yangi fan sohalari va yangi ilmiy – texnik mahsulotlar paydo bo'ldi. Bu esa ilmiy-texnik mahsulotlarni tadbiq qilishni tezlashtirishga ko'mak beradi.

2003 yil oxirida Xitoyda ilmiy-texnik markazlar mavjud bo'lib, shulardan ba'zilari fan yutuqlarini tadbiq qilishning muhim bazasiga aylandi.

Chet ellik talabalar Xitoy oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun Xitoy tilini bilishi shart. Xitoy tilidan imtihon topshirishga tayyorlash uchun mакtablar va universitet tayyorlov kurslari, qisqa muddatli yozgi kurslar mavjud.

Xitoyning eng yirik oliy o'quv yurtlari chet ellik talabalar soni bo'yicha liderlik qiladi. Masalan, Pekin davlat universitetida 4 mingdan ortiq chet ellik talabalar o'qiysi. Pekin til va madaniyat universitetida 160 ta davlatdan 10 ming talaba o'qiysi.

XITOYDA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH MASALALARI

Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda Osiyo davlatlari ichida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan mamlakatdir. O'quv jarayoni va ishlab chiqarishda eng zamonaviy texnologiyalarning ko'llanilishi mamlakat istiqbolining porloqligidan dalolat beradi. Albatta, har bir mamlakat va jamiyat rivojining asosida ta'limgiz yotadi.

Xitoy Xalq Respublikasidagi ta'limgiz jarayoni maktabgacha, boshlang'ich, to'liq bo'limgan o'rta, o'rta umumiy ta'limgiz, oliy ta'limgiz va aspiranturani o'z ichiga oladi. Bog'chalarga bolalar 3 yoshida qabul qilinib, 6 yoshdan boshlang'ich sinfga o'tkaziladi. Boshlang'ich va to'liq bo'limgan o'rta ta'limgiz «6,3», «5,4» va «uzluksiz 9 yil» ta'limgiz tizimini qo'llab kelmoqda. O'rta umumiy maktablarga o'quvchilar 15-16 yoshdan qabul qilinib, ular 4 yil davomida bilim oladilar. Maktabni bitirgan yoshlar kasbga yo'naltiruvchi ta'limgiz muassasalarida bilim olish huquqiga ega bo'ladi. Ular mazkur dargohda 2 yil o'qisalar, to'liq bo'limgan o'rta maktabni bitiruvchilari uchun o'qish muddati 4 yil qilib belgilangandir.

Xitoy oliy o'quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha jahonda yetakchi o'rnlardan birini egallab kelmoqda. Institut va universitetlarda ta'limgiz muddati 4-5 yil qilib belgilangan bo'lsa, faqatgina tibbiyot institutining talabalari ixtisosliklariga qarab 7-8 yilgacha bilim oladi. Yuqori oliy ta'limgiz hisoblangan aspiranturada ta'limgiz olish ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchisida magistrlik ilmiy darajasi berilsa, ikkinchi bosqichini tugallagan tadqiqodchi fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'ladi.

Aynan shu tizimdan kelib chiqqan holda Xitoyda ta'limgiz boshqaruvi amalga oshiriladi. Sohadagi boshqaruuv «bir xil daraja, bir xil standartlar»

tamoyili asosida olib borilmoqda, ya'ni mehnat jarayonidan ajralgan holda ta'lif olayotgan yoshlar va mehnat qilish bilan birga faqat kechqurun yoxud sirtdan o'qiyotganlarga bilim berish darajasi bir xildir.

Mamlakat ta'lif boshqaruvi o'z ichiga ma'muriy ta'lif tizimini olib, u 4 bosqichdan iboratdir: markaz, shahar, avtonom hududlar va uezdlardir. Mazkur hududiy bo'linishlar ular tasarrufidagi ta'lif muassasalari boshqaruvini yengillashtiradi. «Xitoy Xalq Respublikasining ta'lif to'g'risidagi qonuni»da ko'rsatilishicha «Davlat Kengashi va mahalliy xalq hokimiyatlari o'z hududlaridagi boshqaruv tamoyillari asosida ta'lif tizimini boshqaradilar. O'rta va to'liq bo'limgan o'rta ta'lif muassassalari Davlat Kengashi tasarrufidagi mahalliy xalq hokimiyatlari tomonidan, oliv ta'lif Davlat Kengashi, avtonom hudud, shahar xalq hokimiyatlari tomonidan boshqariladi. Mazkur qonunning 15-bandida aytilishicha «Davlat Kengashidagi ta'lifning ma'muriy organlari mamlakatdagi ta'lif sohasini boshqaradilar, umumiy reja asosida ish ko'radilar va uning faoliyatini muvofiqlashtiradilar».

BOSHQARUVNING QONUNIY ASOSLARI

Mamlakatda ta'lif jarayoni va uni boshqarish «Xitoy Xalq Respublikasining ta'lif to'g'risida»gi, «Xitoy Xalq Respublikasining majburiy ta'lif olish to'g'risida»gi, «Xitoy Xalq Respublikasining oliv ta'lif to'g'risida»gi, «Xitoy Xalq Respublikasining kasbga yo'naltirilgan ta'lif to'g'risida»gi, «Xitoy Xalq Respublikasining o'qituvchilar to'g'risida»gi qonunlari «Xitoy Xalq Respublikasida ilmiy darajalar to'g'risidagi Yo'riqnomasi bilan boshqarilib, ular bilan bir qatorda XXR Davlat Kengashi «Nogironlar ta'limi xususidagi holat», «Ta'limdagi

muvaffaqiyatlari uchun taqdirlash to'g'risidagi holat», «O'qituvchilar mandati xususidagi holat», «Bolalar bog'chalarini boshqarish haqidagi holat» va boshqa (jami 10 ta) turli xil qarorlar asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari Ta'lif vazirligining 600 dan ortiq ma'muriy aklari respublikada zamon talablari va jahon standartlariga mos keladigan qonun hujjalardan iboratdir. O'tgan yili «Ta'lif to'g'risida»gi qonunga qo'shimcha ravishda yana 138 ta mahalliy qarorlar qabul qilinib barcha qonunlar nazorati va amaldaga ijrosi yuqori mavqega ega tashkilotlar tasarrufidadir. Ayni paytda sohadagi barcha qonun hujjalarning amaldagi faoliyati qattiq nazorat ostiga olingan. Aynan shu qonun va qonuniy qujjatlar Xitoyda davlat ta'limi yo'nalishi va sohaning asosiy g'oyalari ta'lif muassasalarida olib borilishi lozim bo'lgan axloqiy-tarbiyaviy ishlar mezonini belgilab berdi.

50 yil ichida Xitoy Xalq Respublikasining ta'limi ulkan yutuqlarga erishdi, Ayniqsa, so'nggi 20 yil davomida Xitoyda olib borilgan siyosiy islohotlar va ta'lif tizimining ochiqligi ta'lif muassasalari, o'qituvchilar va albatta, o'quvchilar sonining keskin ortishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib XXRda 1590 ming ta'lif muassasalari faoliyat yuritib, ulardan 860 mingtasi yoshlarga mo'ljallangan bo'lsa, 730 mingta ta'lif muassasalari katta yoshdagilar ta'lif olishiga ixtisoslashgan. O'quv yurtlarida 230 milliondan ortiq o'quvchilar ta'lif olib, ularga 16 million o'qituvchilar dars berishmoqda.

Xitoy xukumati boshlang'ich ta'lifni rivojlantirishga katta e'tibor berib kelmoqda. 181100 ta bog'chada 23,262,600 nafar 3 yoshdan maktab yoshigacha bo'lgan bolalar tarbiyalanib, milliy g'oyani singdirish, bolajonlarni Vatanga muhabbat, xalq ishiga sadoqat ruhida tarbiyalash

muhim vazifa qilib belgilab qo'yilgan. 1949 yili mamlakat aholisining 80% savodsiz bo'lib, shu yildan boshlab Xitoy hukumati mamlakatda mazkur muammoni tugatish borasida keng ko'lAMDAGI ishlarni amalga oshira boshladi. Yarim asrdan so'ng savodsizlar soni 5,5% ni tashkil qilib, bular ham 60 yoshdan oshgan qariyalar edi.

Bugunga kelib hukumat diqqat-e'tiborini maxsus ta'lim rivojiga qaratmoqda. Xalq farovonligini oshirish, jismoniy nuqsonga ega odamlar, nogironlarning jamiyatdan ajralib qolmasliklari hamda ularning intilishlarini rag'batlantirish maqsadida ochilgan mazkur ta'lim muassasalarining soni ayni paytda 1600 dan ortib ketdi. Bu o'rinda Xitoyda mahalliy aholi bilam birgalikda bir tanu bir jon bo'lib yashayotgan kam sonli millat vakillarining ta'lim olishlari uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan. Xitoydagagi 55 ta elatdan 53 tasi o'z tiliga ega bo'lib, mamlakatning beshta avtonom xududlari-Sintszyan, Tibet, Ninsya, Ichki Mo'g'iliston va Nuansisda 12 ta milliy universitetlar, 74 ta kasbga yo'naltirilgan milliy oliy o'quv maktablari, 3500 ta milliy o'rta maktablar va 20 mingdan ziyod milliy boshlang'ich ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatayotir.

Shuningdek, hukumat turli xil ko'rinishdagi ta'lim muassasalari va kurslarini ochayotgan jamoat tashkilotlarini ham qo'llab-quvvatlamoqda. Ayni paytda samarali faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalarining bunday ko'rinishlarida 10 milliondan ziyod har xil yoshdagagi aholi vakillari bilim olmoqdalar.

Masofadan turib ta'lim olish tizimi Xitoyda 1990 yillardayoq shakllanib bo'lgan edi. Asosan bu teleko'rsatuv va radio eshittirishlar 2000 yilga kelib Xitoyning barcha hududlariga yetib borgan INTERNET va

CERNET bo'ldi. CERNET 1994 yili tashkil topib, ta'lif va ilmiy tekshirishlar tarmog'i hisoblanadi. Aynan shu tarmoq hozirgi kunda 70 ta shahar va 400 ta oliy o'quv yurtlarini qamrab olib, mamlakatda va xorijda qilinayotgan kashfiyotlar, ta'lim sohasidagi yangiliklarning tezkorlik bilan tarqalishiga imkon yaratib bermoqda. INTERNET orqali masofadan o'qitish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bugunga kelib Xitoyda 30 ta oliy o'quv yurtlari o'z talabalariga ularni mehnat faoliyatlaridan uzmagan holda bilim olishlariga ko'maklashayotir. Xitoy ta'lim tizimining yorqin qirralaridan yana biri, bu - mamlakatda har bir odam hayotining oxirigacha har qanday ta'lim muassasalarida o'qish xuquqiga egadir.

USTOZ - BUYUK SIYMO

Xitoyda ming yillar davomida shakllanib, bugungi kunga kelib o'z ahamiyatini yo'qotmagan go'zal an'analardan biri ustozni ulug'lashdir. Deyarli barcha Sharq xalqlarida bo'lgani kabi bilim beruvchi har qanday odam ustoz sifatida qadrlanadi. Buyuk Konfutsiy ta'limoti asoslari mujassamlashgan bugungi Xitoy ta'lim tizimida o'qituvchiga bo'lgan e'tibor alohida o'rinn tutadi. Xitoy hukumati 1985 yili 10 sentyabr kuni "o'qituvchilar kuni"ni umumxalq bayrami sifatida nishonlashni e'lon qildi, 1993 yili esa, mamlakatda «Xitoy Xalq Respublikasining o'qituvchilar to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun o'qituvchilarning huquq va majburiyatları, ularga to'lanadigan oylik maosh, maqomi, toifalari, o'qituvchini tayyorlash jarayoni, ish faoliyatida rag'batlantirish shartlari, huquqiy mas'uliyatini belgilab beradi. 1998 yili Xitoy xukumati oliy o'quv yurtlariga «Yosh olimlarni rag'batlantirish» rejasini taklif etdi. Mazkur rejaga ko'ra mamlakatdagi va xorijdagi yosh olimlarni Xitoy oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish, ularning moddiy va ma'naviy salohiyatini oshirish

ko'zda tutilgan edi. Bugunga kelib 200 nafar turli mamlakatlardan kelgan olimlar Xitoyda professor unvoniga ega bo'lishgan.

Hukumat shuningdek, o'qituvchilarning ijtimoiy mavqe'ni ko'tarish orqali ta'lif sohasini yanada rivojlantirish, ta'lif sifatini oshirishga erishmoqda. «O'qituvchilar to'g'risida»gi qonunda aytilishicha «o'qituvchilarning o'rtacha ish haqi davlat xizmatchilarining o'rtacha ish haqidan kam bo'lmasligi va doimo o'sib bormog'i kerak». Shuningdek, o'qituvchilarning turmush farovonligini ko'tarish maqsadida esa, Xitoy hukumati 1994 yildan bugungi kunga qadar davlat byudjetidan 10 milliarddan ko'proq AQSh dollarini o'qituvchilarga uy-joy qurilishi uchun sarfladi.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR


- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o'rtaсидаги умумиёлик нимада?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta'rif bering.
- 4.Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
- 5.Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
- 6.Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
- 7.Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
- 8.Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlarini sanab bering.

O'ZBEKISTON – XITOY TA'LIM TIZIMINING QIYOSIY


TAHLILI

Aholining keng qatlami ta'lism olish huquqiga 1949 yildan keyin ega bo'ldi. Unga qadar ta'limning asosiy maqsadi faqat mansabdor shaxslarni tarbiyalashdan iborat edi.

Buni quyidagi chizmada aniq ko'ramiz:



Hozirgi kunga kelib, avvalgi bob va paragraflarda ko'rib o'tganimizday, Xitoy ta'limi tizimi o'z ichiga maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, to'liq o'rta maktab, universitet, aspiranturalarni oladi.



O'zbekiston ta'lif tizimi mактабгача та'lif, umumiy o'rta ta'lif, o'rta maxsus kasb – hunar ta'lifi, oliy ta'lif, oliy ta'lifdan keying ta'lif, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, mактабдан ташқари та'lifni o'z ichiga oladi.

Chizmalarda ko'rib turganimizday,

- Xitoyda mактабгача та'lif 3 yoshdan 6 yoshgacha davom etadi;
- O'zbekistonda 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar mактабгача та'lif muassasalariga boradilar;
- Boshlang'ich ta'lif Xitoyda 6 yoshdan 12 yoshgacha ya'ni 6 yil davom etadi;
- O'zbekistonda esa 7 yoshdan 11 yoshgacha ya'ni 4 yil davom etadi.
- Xitoyda boshlang'ich ta'lifdan keyin to'liqsiz o'rta mактабга yoki kasbiy boshlang'ich mактабга boorish mumkin. O'qish 12 yoshdan – 15 yoshgacha.
- O'zbekistonda boshlang'ich ta'lifdan keyin o'rta ta'limga o'tiladi. O'qish muddati – 5 yil, 11 yoshdan 16 yoshgacha.
- Xitoyda to'liqsiz o'rta mактабни bitirgan o'quvchilar to'liq o'rta mактабга o'tadilar; kasbiy boshlang'ich mактабни bitirganlar esa kasbiy o'rta mактабга o'tadilar. O'qish muddati 3 yil.
- O'zbekistonda o'rta ta'lifdan keyin o'rta maxsus kasb-hunar ta'limga o'tiladi. Bu ta'lif o'z navbatida o'rta maxsus ta'lif (AL) va kasb-hunar ta'lifi (KXK)lariga bo'linadi. O'rta ta'lif bitiruvchilari hohishiga ko'ra akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishlari mumkin. O'qish muddati 3 yil.

- Xitoyda to'liq o'rta maktabni bitirganlar oliy o'quv yurtining bakalavriat bosqichiga topshiradilar. Kasbiy o'rta maktabni bitirganlar esa kasbiy oliy mакtabga topshiradilar. O'qish muddati 4 yil.

- O'zbekistonda o'rta maxsus kasb-hunar ta'lmini tugatganlar oliy o'quv yurtlariga topshiradilar. O'qish muddati 4 yil.

- Xitoyda kasbiy oliy maktabni bitirganlar ishga joylasha oladilar (18-22 yosh).

- O'zbekistonda kasb-hunar kollejini bitirganlar ishga joylashishlari mumkin yoki oliy o'quv yurtiga kirib, o'qishni davom ettirishlari mumkin.

- Xitoyda oliy ta'limning magistratura va doktarantura bosqichlari mavjud.

- O'zbekistonda esa magistratura, aspirantura va doktorantura bosqichlari mavjud.

- Xitoy 9 yillik majburiy ta'lim joriy etgan.

- O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lim mavjud.

- Xitoyda 9 yillik majburiy ta'lim olganlar miqdori 99,3 % ni tashkil etadi.

- O'zbekistonda bu ko'rsatkich 99,5 % dan iborat.

- Xitoyda 9 yillik ta'lim bepul.

- O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lim bepul.

- Xitoyda oliy o'quv yurtida faqat iqtidorli talabalargagini stipendiya beriladi.

- O'zbekistonda esa 55 % dan ortiq ball to'plagan barcha talabalar stipendiyalar bilan ta'minlanadi.

- O'qish yili aynan bizdagiday, Xitoyda ham 1 sentabrdan boshlanadi va iyulgacha davom etadi.

- Xitoy talabalari uzoq qishki ta'tilga chiqadilar: dekabr oxiridan fevralni boshiga qadar.
- O'zbekistonda esa qishki ta'til 28 dekabrdan – 10 yanvargacha davom etadi, yozgi ta'til iyul, avgust oylarida o'tadi.
- Xitoyda kattalar uchun ta'lim mavjud. Unda e'tibor savodsizlikni tugatishga ham qaratilgan.
- O'zbekistonda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'limi bor.

Izchil islohotlar natijasida har ikkala davlat ta'lim tizimining ko'lami oshib, takomillashib bormoqda. Masalan, Xitoyda 1993 yildan birinchi darajali dunyo miqyosidagi 100 universitetni yaratishga kirishildi. Natijada 708 ta oliy o'quv yurti 302 ta ko'p tarmoqli universal oliy o'quv yurtlariga qo'shib yuborildi. Xususan, Amaliy san'at markaziy akademiyasi Xitoyning eng nufuzli bilim o'chog'i "Tsinxua" universiteti bilan qo'shildi. 100 yildan beri mavjud bo'lgan Pekin universiteti Xitoydagi eng yaxshi tibbiyot oliy o'quv yurti Pekin tibbiyot akademiyasiga qo'shildi. Oliy o'quv yurtlarining bunday qo'shilishi oliy ta'limni boshqarish tizimida chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish, pedagogik resurslarni ratsional joylashtirishi, o'qitish sifati va o'quv jarayoni darajasini oshirish imkonini beradi.

Dunyodagi eng nufuzli oliy o'quv yurtlariga qatoriga kirouvchi 30 ta oliy o'quv yurtlari uchun maxsus davlat qo'llab-quvvatlash fondi yaratilgan.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o’rtasidagi umumiylik nimada?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.
- 4.Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
- 5.Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
- 6.Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
- 7.Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
- 8.Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzARB yo’nalishlarini sanab bering.

YAPONIYA TA’LIM TIZIMINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yaponiya ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari.

Yaponiya – juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehgatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqidir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish – bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariiga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaponiya davlati 6800ga yaqin orollardan tashkil topgan bo'lib, mamlakat maydonining 99%ni asosan eng yirik 4ta orol – Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari tashkil etadi. Aholisi 127ming kishidan iborat. Aholi umrining davomiyligi millatning sog'lomligini va aholi xayotining sifatini belgilovchi muhim bir ko'rsatkichdir. Yaponlar uchun oila asosiy hayotiy boylik hisoblanadi. Bu joyda ajrashish dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kam uchraydi. Yaponiya ta'lim tizimi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yaponiya zamonaviy ta'lim tizimining tarixi quyidagi 5ta davrga bo'linadi:

1. Asos solingan davr. 1867-1885 yillarni qamrab oladi. Zamonaviy ta'limning ilk tuzilishiga asos solingan.
2. Birlashuv (konsolidatsiya) davri. 1886-1916 yillarni o'z ichiga oladi. Turli maktab qonunlari chiqarilgan, tizimli ta'lim yaratilgan.
3. Tarqalish (ekspansiya) davri. 1917-1936 yillarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi bo'yicha favquloddagi kengash tavsiyalariga asosan rivojlantirildi.
4. Harbiy davr. 1937-1945 yillar. Militaristik ta'lim tizimi.
5. Zamonaviy davr. 1945dan hozirgi davrgacha ta'lim islohotlari.

I davr (1868-1885).

Bu davrda Yaponiya bilimsizlik davridan tamaddun va ma'rifat davriga o'tish bilan xarakterlanadi. Yaponiyalik Fukudzava Yukiti butun millatni ta'lim va ma'rifat yo'liga chorladi. U "bilimga chaqiriq" deb nomlangan nashrida konfusiylik qadriyatlarini tanqid qiladi va g'arb g'oyalarini undan ustun qo'ydi. Uning targ'ibot ishlariga ko'ra shu davrning maktab dasturiga g'arbgan bag'ishlangan darslar kiritiladi.

Lekin uning fikriga qarshi chiquvchi konservatorlar Fukudzava Yukitining fikriga qarshi chiqadi, natijada jamiyat 2ga ajraladi. Har bir taraf ta'lim tizimining isloh qilish bo'yicha o'z qarashlarini himoya qiladi. Lekin yaponlar bunday murakkab holatda ham kompromiss-yechim topa oldilir. Natijada yetuk jahon ta'lim tizimi an'analari va Yaponiya ma'naviy qadriyatlarini birlashtirib, yangi ta'lim tizimini yaratdilar.

Bu o'zgarishlarning natijasi sifatida 1871 yil Ta'lim vazirligi vujudga keldi. 1872 yil Meydzi xukumati zamonaviy maktabni isloh qilish rejasini ishlab chiqdi. Biroz vaqtidan so'ng "Ta'lim to'g'risidagi qonun" qabul qilindi. Bu qonunda quyidagi maqsadlar belgilandi:

1. Ta'lim insonni ijtimoiy pog'onadan muvaffaqiyatli ko'tarilishini ta'minlashi lozim.
2. Maktabning vazifasi har bir shaxsga vatanparvarlik hissini singdirishdan iborat.
3. Barcha yaponlar jamiyatga foyda keltiradigan va zamonaviy davlat qurilishiga yordam beradigan ommaviy fanlarni o'rganishlari, o'zlashtirishlari lozim.

Shu maqsadda 4 yillik majburiy ta'lim tizimi joriy qilingan. Bu ta'limni jamiyatning hukmron qatlami, samuray oilalari, harbiy sinf vakillari olishga muvaffaq bo'lishgan, xolos.

Hukumat ta'lim tizimini rivojlantirish borasida qator ishlarni amalga oshirishdan to'xtamadi. Xalqda o'qishga motivatsiya uyg'otish uchun g'oyalar singdirildi, unga ko'ra "ta'lim har bir kishi uchun o'z farovonligi, jamiyatdagi o'rni va ishlardagi muvaffaqiyat garovi" ekanligi uqtirildi. Fan va ta'lim xalqning irodasini mustahkamlovchi omil deb qaraldi. Lekin majburiy ta'limga o'quvchilar soni shunchalik ko'payib ketdiki, xukumat

ta'limga xaq to'lash haqidagi dekretni bekor qildi. Ta'lim tizimiga AQShning klassik ta'lim tizimi va qisman Fransiya ta'lim tizimi asos qilib olindi. Eng olis tog'li qishloqlar ham maktab tizimiga jalb etildi, bunga ko'p yillik xukmronlik va bo'ysunish tizimining mavjudligi yordam berdi. O'quvchilar ustidan qat'iy davlat nazorati o'rnatildi. Shu vaqtdan boshlab o'qituvchi davlat xizmatchisi maqomini oldi va siyosat bilan shug'ullanishi man etildi.

II davr (1886-1916).

1885 yil kabinet tizimni tashkil etildi va Mori Arinori birinchi ta'lim vaziri bo'ldi. U keyingi davr uchun maktab tizimining asosini yaratdi. Bu tizim komponentlari – boshlang'ich, o'rta, kasbiy, oliy tizim o'zaro bog'liq.

Inoue Kovashi Moridan keyin ta'lim vaziri bo'ldi. U boshlang'ich maktab bitiruvchilari uchun xususiy kasbiy maktablar tizimini yaratdi. 1899 yildan keyin qizlar maktabi kengaydi. 1908yil majburiy ta'lim 6 oyga uzaytirildi.

III davr (1917-1936)

Rus revolyusiyasi va butun jaxondagi demokratiya talablari Yaponiya siyosati va ta'lim tuzilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1917yil xuquqiy ta'lim bo'yicha Favquloda kengash tuzdi. 1919 yil ushbu kengash tarqatilgunga qadar bir necha ma'ruzalarni e'lon qildi. Bu ma'ruzalar XX asrning keyingi dekadasida ta'limning yoyilishiga asos bo'ldi. Kengash ayniqsa oliy ta'lim asosiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1918 yilgacha faqat Imperiya universitetlari mavjud edi. Lekin 1918 yilgi universitet qonuni xususiy universitetlarning paydo bo'lishlariga imkon yaratdi. Shunga

bog'liq xolda ko'pgina milliy, ijtimoiy va xususiy maktablar ham universitet maqomiga ko'tarildi.

IV davr (1937-1945)

Yaponianing xukmdor sinfi ultramillatchilik va militarizmni targ'ib qiluvchi yaponizm ideologiyasini vujudga keltirdi. 1930 yil boshlarida butun ta'lif-tarbiya jarayonini xukumat nazorat qildi. Ta'lif vazirligi, mahalliy komitetlar ichki idoralar vazirligi, millatni nazorat qiluvchi tashkilotlarning bevosita nazorati ostida bo'ldi. Ta'lif vazirligi tomonidan chop etilgan geografiya, tarix fanlaridan darsliklar yangilariga almashtirildi. Natijada maktab militaristik ruhdagi yoshlarni tayyorlash quroliga aylandi. Yaponianing 2-jahon urushiga kirishishi bilan militaristik ta'lif yanada kuchaydi. Maktablarda yaponlarning irqiy ustunligi to'g'risidagi fashistik g'oyalar va o'sha asr samuraylarining xizmatga sadoqat, "Buyuk Yaponiya uchun jonni qurban qilish" g'oyalari yanada kuchli singdirila boshlandi.

V davr (1945-yildan).

Ta'lif tuzilishining ikkinchi islohi urushdan keyingi yillarga to'g'ri keladi. Okkupatsion davlatlar militaristik ta'lifni bekor qildi va tinch demokratik an'analarga asoslangan yangi ta'lif tizimini joriy qildi. Ko'p bosqichli ta'lif tizimi o'rnatildi. Unga ko'ra universitetga kirish uchun o'rta maktabni va universitet qoshidagi tayyorlov maktablarini tugatish lozim edi. Zamonaviy ta'lif tizimiga ko'ra 6 yillik boshlang'ich maktabda majburiy ta'lif, 1-bosqich o'rta maktabda 3 yil, 2-bosqich o'rta maktabda 3 yil keyin universitetda tahsil olish kerak. Faqat o'quv kalendarini o'zgacha, yaponcha: o'quv yilining boshlanishi 1-aprelga to'g'ri keladi.

1952 yil 28 aprelda San-Fransiskoda tinchlik bitimiga qo'l qo'yilib, Yaponiyaga suverenitet qaytarilgach, ta'lim islohotlari qat'iy ko'rib chiqildi va asosiy e'tibor an'anaviy yapon qadriyatlarini saqlashga qaratildi. Masalan, yana qayta ma'naviyat darslari tiklandi, milliy ta'limga ma'naviy asos qaytarildi.

Shuning uchun ham Yaponiya ta'lim tizimi asosida Amerika modeli bo'lsa ham, yevropalashmagan va milliy xususiyatlarini saqlab qolgan.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini anglatdi.

1872 yili "Ta'lim haqida" qonun qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan. 1893 yilda kasb-ta'limi yo'nalishidagi 1-kollej paydo bo'lган. 1908 yilda Yaponiya boshlang'ich ta'limni majburiy 6 yillik qilib belgiladi. 1946-yili qabul qilingan Konstitusiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi xuquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan. Hozirgi zamон yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Bolalar yoshlariga qarab 3,2,1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9% - xususiy, 40,8% - davlatnikidir.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan

30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollarini uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yapon tarbiyachilarining bolalarni kichik guruhlarga "xan"larga bo'lib o'qitishlari tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu bolalarda qarorlar qabul qilishga, o'zgalar fikrini hurmat qilish, guruh a'zolarini barchasini tashabbuskor bo'lishga o'rgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o'rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlardan o'rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o'zlari boshqaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib ko'radi.

Boshlang'ich mакtabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagи kamchilikni tanqid qilishni o'rgatadilar. Bundan ko'rinish turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor beriladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat raxbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik o'rta maktab 9 yillik majburiy ta'limmi tashkil etadi va u bepuldir. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mayjud.

Yuqori o'rta maktab 10,11,12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday mактаблarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95%и kunduzgi mактаблarda o'qiydi.

Yaponiyada o'quv yili – 240, AQShda ~ 180 kun. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan o'tiladi.

Universitetlarga yuqori va o'rta mактабни yoki 12 yillik oddiy mактабни bitirgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95tasi davlat tasarrufida, 34tasi munitsipal, 31tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tiladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Oliy ta'lim tizimi quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. To'liq sikldagi universitetlar (4 yil).
2. Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).
3. Kasb ta'lim kollejlari.
4. Texnika institatlari.

Yaponiyada uzlaksiz ta'lim tizimi va xususiyatlari.

Yaponiyada mактабгача va boshlang'ich ta'lim

Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rinn tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiyada 600 mingdan ortiq ilmiy

xodimlar bo'lib, taxminan 270 mingga yaqin patent olingan. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha Yaponiya hozir dunyoda 1-o'rinni egallaydi. Yaponiyadagi ilmiy tadqiqot faoliyatining o'ziga xos tomoni shundaki, unga ketadigan harajat yalpi milliy maxsulotning 3% tashkil etadi, bu esa rivojlangan mamlakatlar orasida eng yuqori ko'rsatgich demakdir. Quyida Yaponiya ta'lif tizimidagi o'ziga xosliklar, xususan maktabgacha ta'lif va boshlang'ich ta'lif tizimini o'rGANAMIZ.

Maktabgacha ta'lif.

Yaponiyada ta'lif olish – oila, jamiat va davlat tomonida qo'llab-quvvatlanadigan nufuzdir. Aholining ko'pchilik qismining daromadi taxminan bir hildir. Yaponlar farzandlari bilan 5 yoshgacha shoh bilan gaplashgandek muomala qilishadi, 5 yoshdan 15 yoshgacha qul bilan gaplashgandek, 15 yoshdan keyin esa tengdoshi bilan gaplashgandek muomala qilishadi. 15 yoshli o'smir – o'zining majburiyatlarini yaxshi biladigan, va qoidalarga bo'ysinadigan yoshdagi katta odam deb hisoblanadi. Yapon oilasida ajozralishlar juda kam. An'anaviy yapon oilasi bu ota-onasi va 2ta farzanddan iborat bo'ladi. Erkak oilada yuqori mavqega ega. Otaning fazifikasi – boquvchi, onaning fazifikasi bola tarbiyasidir. Oilalikdan psixologik qulay joy sifatida qabul qilinadi, ona esa uning ramzi hisoblanadi. Yuqorida aytganimizdek, bola tarbiyasi bilan asosan ona shug'ullanadi. Ota ham tarbiyada ishtirok etishi mumkin, lekin bu kam uchraydigan holat. Bola tug'ilganidan 1yiliga chaga ona tanasining 1 qismi sifatida yelkasida bog'lab olib yuradi, kechasi yonida olib yotadi. Bola hech narsa taqiqlanmaydi, u kattalardan faqat "xavfli", "iflos", "yomon" degan so'zlarni eshitadi. Boladagi "hamma narsa mumkin" degan davr 5 yoshgacha davom etadi. Agar bola bilan biror

kor-hol bo'lsa, ona o'zini aybdor sanaydi va undan ehtiyot qilolmagani uchun uzr so'raydi.

Yaponlar hech qachon bolalariga ovoz ko'tarmaydilar, va'z o'qimaydilar, umuman jazolamaydilar. Yapon ayoli bolaning istak va hohishlari bilan bahslashmaydi, o'zining noroziligini hatti harakatlar bilan bolaning xulqi uni hafa qilayotganini bildiradi. Bolalar ham o'z navbatida o'z navbatida onalarini hurmat qiladilar, hafa qilib qo'ysa aybdorlik hissini tuyadilar. O'zaro ziddiyat paydo bo'lsa yapon onalari bolasidan uzoqlashmaydi.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda – o'ziga ishonch hissini uyg'otish. 2 yoshda – amaliy san'at qul mehnatini ko'rsatish. 3 yoshda – burch hissini tarbiyalash. 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish. 5 yoshda – liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish.

Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.

Odatda yapon onasi bola 3 yoshga to'limaguncha uyda o'tiradi, keyin bolalar bog'chasiga beradi. Yaponiyada yaslilar ham bor, lekin bu yerga bolalarni berishni unchaldik xushlamaydilar. Ularning fikricha bolani ona tarbiyalashi kerak.

Bolalar bog'chasida har yarim yilda bolalar guruhi va tarbiyachilar tarkibi o'zgarib turadi. Agar bola 1 guruhga ko'nikolmasa boshqasida bu holatni tuzatish mumkin. Yaponiyada maktabgacha ta'limga katta e'tibor beriladi. Odatda maktabgacha ta'lim oiladan boshlanadi. Yaponlarning

ta'kidlashicha, "ikigan" – hayot mazmunini anglash uchun bolani o'qitish va tarbiyalash kerak.

Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhalr – "xan"larga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada "o'z ish o'rni" ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o'quvchi guruhda o'z o'rniiga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bochqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezrok ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Shuni ta'kidlash joizki, qaysidir muammo muxokama qilinayotgan paytda lta o'quvchi bilan emas, balki barcha xan bilan gaplashiladi. Bunday tizim o'quvchining sog'ligini saqlashga yordam beradi, zero har tomonlama uyg'un guruhlarda bir-birini kansitishga yo'l qo'yilmaydi. Bolalar sinfni boshqarishni ham o'rganadilar. 1-sinf o'quvchilar ichidan ustozlarni tanlaydilar, ular har kun almashadi, natijada har bir bola ustoz o'rniida bo'la oladi. Bu tizim boshqaruvi ko'nikmalarini shakllantiradi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagisi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi, bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shixsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagisi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda.

Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi – bolani mакtabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, o'quvchilarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Boshlang'ich ta'lim

Boshlang'ich maktab ta'limga ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagagi yapon bolalarning 99% qatnaydi. 99% yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1% - xususiy. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San'at va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xo'jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnama, akademik predmetlar hisoblanmaydi. Yaponiyada boshlang'ich ta'limga majburiy va bepul. Yaponiyada o'quv yili 3ta chorak – trimestrga bo'linadi. 1-chorak – 6 apreldan – 20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta'til boshlanadi. 1-sentabrdan 2-trimestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrdan 7-yanvargacha qishli ta'til bo'ladi. Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi ta'til bo'ladi. Shu paytda o'quvchilar sinfdan sinfga ko'chadi. Chorak-trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to'g'ri kelishi mumkin. Ta'til paytida o'quvchilar uy vazifalarini oladilar. Ba'zan ta'til paytida ham, agar

trimestrda yaxshi o‘qimagan bo‘lsa, maxsus kurslarda o‘qiydilar. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga ta’til paytida “rasmlik kundalik” tutish tavsiya qilinadi. Rasmlar kandji bilimini kuchaytiradilar va o‘quvchini yozish va chizishga o‘rgatadi. Yaponiyada o‘qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o‘qitish dasturi o‘zgaruvchan, lekin Ta’lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang‘ich ta’limni moliyalashtirish, o‘qituvchilar bilan ta’mintash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang‘ich ta’limda bolalar davlat hisobidagi 1945 kandji iyeroglidan 1006tasini yod olishi kerak. Boshlang‘ich ta’lim “syogakko” quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o‘z qadriyatlariga hurmat hissini o‘rgatish;
- o‘quvchilarni xalqaro xamkorlik ruhida tarbiyalash;
- ona tilidan to‘g‘ri foydalanish;
- iqtisodiy tarbiya berish;
- barkamol shaxsni tarbiyalash.

O‘quv maqsadlariga aniq o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv rejalarini va dasturlarni tayyorlash orqali erishiladi. Boshlang‘ich mакtabda yapon tili jamiyatshunoslik, tabiiyot, musiqa, rasm va hunar, uy ijodiyoti, etika kabi fanlar o‘qitiladi, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadilar. Shuningdek “maxsus faoliyat” fani ham o‘qitiladi, unga klub ishlari, majlislar, sport tadbirlari, sayohatlar, bayramlar va b. kiradi. O‘quvchilar o‘zlari o‘quv sinflarini tozalaydilar, o‘quv yilining oxirida katta hashar uyushtiradilar. Demak, 6-15 yoshgacha bo‘lgan yapon bolalari boshlang‘ich 6 yillik maktabga borishlari shart. Kam ta’mintangan oilalarning bolalari maktab

nonushtalari, turli xizmat va sayohatlarga pul to'lash uchun dotatsiya oladilar. Ota-onalar farzandlarini o'z tumanlarida joylashgan mакtabga borishini istamasalar, xususiy pullik ta'lif muassasasiga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga juda qiyin tanlov orqali qabul qilinadi.

Bilasizmi?

Yaponiya OO'Yularida zahet birliklari tani deb ataladi. Talaba bakalavr darajasini olish uchun 4 yil davomida tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlardan 36 tani to'plashi, chet tilini o'rganish uchun 4 tani, jismoniy madaniyat bo'yicha 4 tani, kasbiy fanlarni o'zlashtirishi uchun esa 75 tani to'plashi lozim.

Yaponiyada o'rta va katta maktab tizimi.

Kichik o'rta maktab – tyugakko.

Boshlang'ich maktabni tugatgan o'quvchi o'qishni kichik o'rta maktabda davom ettirishi lozim. Yapon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san'at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo'jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari o'quvchilar chet tili, qishloq xo'jaligi yoki matematikadan chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin.

Kichik o'rta maktab 3ta sinf 7,8,9-sinflarni o'z ichiga oladi va majburiy ta'lifning oxirgi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar yoshi 12dan 15 yoshgacha bo'ladi. Xuddi boshlang'ich maktabdagiday, o'rta maktabning asosiy qismi davlat tasarufida, 5%-xususiy. Boshlang'ich ta'lifdan farqli holda har bir o'qituvchi bitta fan bo'yicha dars beradi. O'quv rejasiga boshlang'ich ta'lif fanlari kabi, shuningdek, ba'zi yangi fanlar ham qo'shiladi. Masalan, 2001 yil apreldan boshlab ingliz tili majburiy fan bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik o'quvchilar bitta yoki bir necha maktab to'garaklari, qiziqishlari bo'yicha klublarga qatnashadilar.

Bu darsdan keyin soat 18:00gacha ish kunlari, dam olish kunlari ertalabki vaqt ni egallaydi.

Kichik o'rta maktabda o'tiladigan fanlar qatoriga ingliz tili, bir necha tanlov fanlar kiradi. Bu fanlarning tarkibi maktablarga bog'liq. Eng qiyin fanlar matematika va yapon tili hisoblanadi.

Yaponliklar farzandlarining eng yaxshi, yuqori ta'lim olishini juda hohlaydilar. Aksariyat yaponlarning turmush darajasi bir xil bo'lganligi bois (72% bir xil) bolalarning ta'limi bo'yichagina raqobatlashishi mumkin.

Ta'limga bunday katta e'tibor "dzyuku" maktablarining yaratilishiga asos bo'ldi. "Dzyuku" – nufuzli o'quv muassasalariga tayyorlovchi maxsus kechki maktablardir. Bunday maktablarning analogi XVIII asrda yapon cherkovida paydo bo'lgan, hozirgi kunda dzyukular soni 100 mingdan oshiq.

"Kichik dzyuku"lar 5-6 o'quvchidan iborat bo'lib, o'qituvchining uyida shug'ullanadi. "Katta dzyuku"lar 5 minggacha o'quvchilarni yig'adi. O'qish bu maktablarda soat 16:50dan 20:50gacha davom etadi, darslar dushanbadan jumagacha bo'ladi, haftalik nazoratni odatda yakshanba ertalabgacha belgilashadi.

OO'Yulariga kirish shunchalik murakkabki, kirish imtihonlariga tayyorlash jarayonida Dzyuku maktablarida "Mardlik marosimi" o'tkaziladi. Unda o'quvchilar maktab shiorini boshlaridagi povyazkaga bog'lab, "Men albatta o'qishga kiraman", - deb bor ovozi bilan baqiradilar.

Katta (o'rta) maktab – kotogakko.

Katta (o'rta) maktab majburiy emasligiga qaramay, unda 94% o'quvchilar

tahsil oladilar (2005 yilgi ma'lumot). Katta o'rta maktab soni 55%ni tashkil etadi, shunga qaramay davlat va xususiy katta maktablar pullik. Katta o'rta maktabning 1-yil uchun dasturi hammaga bir xil, lekin keyingi 2 yil ichida oliy ta'lim olish maqsadiga ko'ra kursni tanlash nazarda tutilmoxda.

Katta maktab dasturlari o'rta maktab va boshlang'ich maktab dasturlariga ko'ra xilma-xil, lekin o'quvchilarga bilimning u yoki bu sohasiga ixtisoslanishi bo'yicha imkoniyatlar yaratiladi. Darslar tugagach, o'quvchilar maktab va maktab hududini o'zлari tozalaydilar, yapon maktablarida farroshlar yo'q.

Katta maktablarda o'qish pulli, lekin davlat muassasalarida arzonroq. Pulli, xususiy o'rta va boshlang'ich maktablar ham bor. Barcha pulli ta'lim muassasalarida stipendiyalar konkursi g'olib bo'lsa, tekin o'qish mumkin yoki chegirmalar olish mumkin. O'rta maktabdan katta maktabga o'tish imtihonlar natijalariga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'rta maktabda o'zlashtirish ko'rsatkichiga ko'ra o'quvchi kirish imkoniyati bor bo'lgan katta maktab ro'yxatini oladi.

Qiz bolalar uchun 12 maktab yili eng baxtli yillar hisoblanadi. O'g'il bolalar darsdan keyin kitob o'qishadi, "dzyuku" maktablarida shug'ullanishadi, qizlar esa bu paytda do'konlarga boradilar. Zero, bu yerda ayol kishining o'rni xizmatchilik emas, onalikdir. Albatta qizlar turmushga chiqqunlariga qadar hayotni bilish uchun bir necha yil jamoada ishlaydilar. Qizlar uchun maxsus kitobchalar chop ettiriladi, kinofilmalar namoyish etiladi.

Maktab formasi fasoni 100 yildan beri o'zgarmaydi: o'g'il bolalar uchun qora mundir, qizil bolalar uchun ko'k matroskalar.

Yaponiya maktablari muammosi bu imtihonlarning qiyinligidadir. Bu imtihonlarning har biri bir necha kunlik mehnatni talab qiladi, unga tayyorlanishga juda ko‘p vaqt ketadi.

Imtihonlarga bir hafta qolganda o‘quvchilarining imtihonlarga tayyorlanishlari uchun to‘garak yig‘ilishlari bekor qilinadi. Odatda imtihonlar yozma testlar shaklida o‘tkaziladi. Imtihonlar uchun baho foiz tizimida qo‘yiladi, yuqori baho ~ 100 ball.

Odatdag‘i davlat maktablaridan tashqari pulli xususiy maktab-akademiyalar (gakuenlar) bor. Shuningdek, umum davlat maktabi maqomidagi “milliy maktablar” mavjud. Bu akademiyaga kirish uchun katta konkurs asosida alohida imtihonlar topshiriladi. Bir tarafdan akademiyada yaxshi ta’lim dasturlari mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi katta muktab yoki universitetga kirish uchun imkoniyat beradi.

Odatda akademiya-maktablarda yapon aristokratlari bolalari: siyosatshunoslar, tijoratchilar, diplomatlar, mashhur universitetlar professorlarining farzandlari tahsil olishardi. Ba’zi akademiyalarda muktab formasini kiyish shart emas.

Yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilar nufuzli katta maktablarda o‘qiydilar, yomon o‘zlashtiradiganlari va yo‘qlari o‘rtamiyona maktablarda o‘qitiladi. Bu maktablar uy xo‘jaligini yuritish, qishloq xo‘jaligi kabi sohalarga mo‘ljallanadi.

O‘qituvchi faqat o‘qitish emas, balki bolalarning tartibi uchun ham, vaqtini o‘tkazishi va boshqa ko‘plab masalalarga ham mas’uldir. Bular “o‘qitish” tushunchasiga emas, ko‘proq ota-onaning vazifalari sirasiga kiradi.

Shu bois ham Yaponiya hukumati OO‘Yulari bitiruvchilarini o‘qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi.

Boshqa davlatlardan farqli o‘laroq, davlat maktabi o‘qituvchisi bo‘lish uchun yapon fuqarosi o‘qituvchi diplomini olishi kerak va o‘qituvchilikka tayinlash imtihonidan o‘tishi kerak. Yaponiya o‘qituvchilar oyligi mahalliy xokimiyat organi xodimlari oyligidan ko‘p bo‘lgan davlatlardan biridir. Yaponiyada katta o‘rta maktablarning kunduzgi (o‘qish-3yil), kechki va sirtqi (o‘qish 4 yil) turlari bor. Kechki va sirtqi maktabni bitirganlik haqidagi guvohnomasixuddi kunduzgi katta maktabnikiday bo‘lsa ham, 95% o‘quvchilar maktabning kunduzgi bo‘limida tahsil olishadi. Katta maktablarga qabul qilish kichik maktabni tugatganlik va kirish imtihonlari natijalaribo‘yicha konkursdan o‘ganligihaqidagi hujjat asosida amalga oshiriladi.

Katta o‘rta maktabda yapon tili, matematika, tabiiyot, jamiyatshunoslik va b. majburiy umumta’lim fanlariga qo‘sishimcha holda o‘quvchilar tanlov bo‘yicha fanlarni taklif qiladilar, bu ingliz tili, yoki boshqa chet tillar, shuningdek, texnik va maxsus fanlar bo‘lishi mumkin. 12-sinfda o‘quvchilar o‘zi uchun ta’lim profillaridan birini tanlashi kerak.

Ta’lim, fan va madaniyat vazirligi ko‘rsatmasiga ko‘ra, katta o‘rta maktabda bilimlarni baholashda OO‘YU tizimidan foydalaniladi. Bu har bir o‘quvchi 12 yillik o‘rta ta’limni tugatganligi haqida guvohnoma olishi uchun 80 kredit (zachyot birligi)ni yig‘ishi lozim deganidir. Masalan, yapon tili va zamонавиј yapon adabiyotini har bir kursini o‘rganish natijalari bo‘yicha 4ta kredit beriladi, yapon tili leksikologiyasi bo‘yicha 2 kredit, klassik til bo‘yicha – 2 kredit.

Yaponiyada kasb-hunar ta'limi.

Yaponiyada katta o'rta maktabda o'qishni hohlamaganlar 5 yillik "texnik kollej"lar – kasbiy texnika bilim yurtlariga kirishlari mumkin. Lekin bu o'qishlarga kirish shunchalik oddiy emas, eng yaxshilaridan juda katta konkurs asosida qabul qilinadi, chunki Yaponiyada yuqori malakali ishchilar juda ham zarur.

Universitet o'mniga 2 yillik kollejga kirish mumkin, unda maxsus ta'lim beriladi. Bu kollejlarda yapon qizlarining 90% o'qiydilar va ayollar kasbini egallaydilar: tibbiyot hamshirasi, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, yuqori malakali uy xonimlari, aktrisa (seyyu).

Yaponiya kollejlari o'z maqomi bo'yicha bizning o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan teng. Ular kichik, texnologik, va maxsus tayyorgarlik kollejlariga bo'linadi.

Kichik kollejlar soni 600ta bo'lib, gumanitar, tabiiy, tibbiyot va texnik fanlar sohasida tayyorgarlikning ikki yillik dasturini tavsiya qiladi. Bu kollej bitiruvchilari universitetning 2 yoki 3-kursida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Kichik kollejlarga qabul to'liq o'rta maktab bazasida amalga oshiriladi. Talabgorlar kirish imtihonlari va undan kamroq "Birinchi bosqich yutuqlari testi"ni topshiradilar.

Kichik kollejlarning 90% xususiy va yoshlar orasida juda ommalashgan. Bu yerga o'qishga kirishni hohlovchilar soni yildan yilga ortib bormoqda. 60% kollejlar ayollar uchun mo'ljallangan. Unda uy oila moliyasi, adabiyot, tillar, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi fanlar o'qitiladi.

Yaponiyada texnologik kollejlarga to'liq emas yoki to'liq o'rta ta'limga tugatgach, kirish mumkin. Birinchi holatda o'qish muddati 5 yil, ikkinchisida – 2 yil.

Bu tipdag'i kollejlarda elektronika, qurilish, mashina qurilishi va boshqa fanlar o'qitiladi. Yaponiyada 60 texnologik kollej mavjud bo'lib, unda 55 ming talaba tahsil oladi.

Maxsus tayyorgarlik kollejlari buxgalter, mashinist, dizayner, dasturchi, avtomexanik, tikuvchi, oshpaz va b. kabi 1 yillik kasbiy kursni tavsiya etadi. Bunday o'quv muassasalarning soni 3,5 ming. Bitiruvchilar OO'Yuda, kichik va texnik kollejlarda o'qishni davom ettirish xuquqiga ega bo'ladilar.

Noto'liq va to'liq o'rta maktab bitiruvchilarini ma'lum kasbga tayyorlash uchun 2 tipdag'i maxsus tayyorgarlik maktabidan iborat tizim yaratilgan bo'lib, bular majburiy ta'lim bazasidagi 1-4 yillik mакtablar, hamda bir necha oydan 1-3 yilgacha davom etadigan ko'p tarmoqli maktabdir.

Maxsus tayyorgarlik va ko'p tarmoqli maktablar Yaponiya uzlusiz ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi.

Bu maktablar turli amaliy va kasbiy-texnik o'quv dasturlarini taklif etadilar. Bu maktablar faoliyati milliy standartlar orqali boshqariladi. Maxsus tayyorgarlik mакtabi va ko'p tarmoqli maktablar 1978 yil joriy qilingan bo'lib, oxirgi yillarda uning soni sezilarli oshdi.

1988 yil bunday maktablar soni 3191ga yetdi, unda 700 ming o'quvchi tahsil olardi. Bu maktablar o'quvchilarga kasbiy-texnik va umumta'lim yo'nalish kurslarini taklif etadi. O'rta kasbiy ta'lim 2-3 yillik kichik kollejlar va 5 yilliktexnik kollejlarda olinadi. Kichik kollejlar

“tanki-daygaku” deb ataladi va butun Yaponiya ta’lim tizimining juda ko‘p qismini tashkil etadi.

Ko‘pchilik milliy kichik kollejlar milliy universitetlar qoshida tashkil etilgan. Kichik kollejlarning yarmi o‘rta tibbiy xodimlarni, choragi yurist va iqtisodchilarni, qolganlari- texnik mutaxassislarni tayyorlaydi.

Munitsipal kichik kollejlar jamiyatning ijtimoiy talablariga ko‘ra ta’limiy va tadqiqot faoliyatini olib boradi.



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o‘rtasidagi umumiylit nimada?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzarb yo’nalishlarini sanab bering.

O'ZBEKISTON VA YAPONIYA TA'LIM TIZIMINI QIYOSIY

O'RGANISHNING AHAMIYATI.

O'zbekiston va Yaponiyada oliy ta'lismi.

O'zbekistonda oliy ta'lismi quyidagicha tuzilgan

- Xususiy yoki davlat qaramog'iда ekanligidan qat'iy nazar ta'limiylar hamda kasbga tayyorlash dasturlarini davlat ta'lismi standarti asosida tadbiq etuvchi oliy ta'lismi muassasalar;
- Oliy ta'lismi rivojlanishiga zarur bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari;
- Davlat tomonidan boshqaruvchi idoralar , shuningdek, ularga qarashli bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalar.

Oliy ta'lismi 2 bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura

Bakalavriat – bu 4 yil davom etuvchi yo'naltirilgan nazariy va amaliy bilim beruvchi oliy ta'lismning 1-bosqichi hisoblanadi. Bakalavr dasturini o'qitish nixoyasiga yetgach, talaba davlat attestatsiya yakuniy xulosasiga muvofiq o'qitilgan yo'nalish asosida “bakalavr” darajasiga loyiq deb topiladi hamda davlat namunasida ko'rsatilgan diplom beriladi.

Magistratura – bu 2 yil davom etadigan aniq yo'nalish asosida nazariy hamda amaliy bilim beruvchi, bakalavrni bitirgachgina tanlov asosida ta'lismi olish davom ettirishi mumkin bo'lgan oliy ta'lismi bosqichi.

Magistraturada o'qish yakunlangach, bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi komissiyasining yakuniy xulosasiga muvofiq aniq mutaxassisligi ko'rsatilgan “magistr”lik darajasi va magistrlikni tasdiqlovchi davlat namunasida ko'rsatilgan diplom beriladi.

Davlat na'munasidagi bakalavr va magistr diplomlari diplom egalariga mutaxassisliga bo'yicha kasbiy faoliyati bilan shug'ullanish yoki o'quv muassasasida kelgusida o'qishni davot ettirish imkoniyatini beradi.

Oliy ta'lif muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta'lif muassasalarining quyidagi ko'rinishlari bor:

- Universitet – oliy ta'lif dasturini bajarishda talabalarga egallayotgan soxasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchuk keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaratiladi;
- Akademiya – oliy ta'lif dasturini bajarishda oliy ta'lif berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq 1 yo'nalishga tayyorlaydi;
- Institut – barcha oliy ta'lif muassasalari kabi oliy ta'lif dasturini bajaradi, bilim berishda 1 yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi.

Yaponiyada davlat universitetlariga to'liq o'rta maktabni bitirib kirish mumkin. Qabul 2 bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar markazlashgan holda universitetlarga qabul bo'yicha Milliy markazlarda o'tkaziladigan "Yutuqlar birinchi bosqichining umumiy testi"ni topshiradilar". Testni muvaffaqiyatli topshirganlar universitetda o'tkaziladigan kirish imtihonlariga kiritiladilar. Testdan yuqori ballar olganlar davlatning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun imtihon topshiradilar.

Shuni aytish joizki, xususiy universitetlar kirish imtihonlarini mustaqil o'tkazadilar. Eng yaxshi xususiy universitetlar o'zining tuzilmasida boshlang'ich, kichik o'rta va katta o'rta maktab, hatto bolalar bog'chasiga ham ega. Agar abituriyent mazkur universitetda bog'chadan katta o'rta maktabgacha yaxshi o'qisa, universitetga imtihonsiz qabul

qilinadi. 2005 yil 2,8 mln. Yaponiya talabalari 726 universitetlarda tahlil olishdi. Oliy ta'lim bakalavr darajasini olish uchun 4 yillik o'qish belgilangan. Ba'zan ma'lum kasbiy darajani egallash uchun 6 yillik dastur tavsya qilinadi. 2 tipdag'i universitetlar mavjud: 96ta milliy universitetlar va 39 davlat universitetlari. Qolgan 372tasi xususiy (1991 yil ma'lumot).

Yaponiya oliy ta'limida stipendiya deyarli yo'q. 2011 yilgi ma'lumotlarga qaraganda 2.880.000 yapon OO'YU talabalaridan atigi 100ga yaqini yapon hukumati stipendiyasini olishdi. Stipendiyani eng iste'dodli va eng kam ta'minlangan o'quvchiga qaytarish sharti bilan berishadi, bu stipendiya ta'lim harajatlarini to'liq qoplamaydi.

Yaponiyada kuchli 20talikka kirgan eng zo'r Osiyo universitetlari: Tokio universiteti, Osako universiteti, Kioto universiteti, Toxoku universiteti, Nagoya universiteti, Tokio texnologiya instituti, Kyusyu universiteti, Sukuba universitetlaridir.

Universitet tanlashda birinchi mezon – uning nufuzliligidagi. Bunday nufuzli OO'YU bitirgan yosh yigit-qizlar darhol ishga olinadi.

Yaponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurrok kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa – talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

Nazariy jihatdan umumilliy sikl tugagandan so'ng talaba mutaxassislik va hatto fakultetni o'zgartirishi mumkin. Aslida, bunday holatlar kam uchraydi va bitta fakultet doirasida bo'lishi mumkin, bunda ham tashabbuskor talaba emas, rahbariyat bo'ladi. Ohirgi 2 yilda tanlangan kasb o'rgatiladi. Barcha universitetlarda o'qish muddati standartlashtirilgan. Oliy ta'limda ta'limning asosiy yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 4 yil o'qitiladi. Tibbiyot xodimlari, stomatolog va veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach, bakalavr darajasi beriladi: gakushi. Talaba OO'Yuda 4 yillik o'qishini 8 yil o'qish xuquqiga ega, ya'ni o'zlashtirolmagan talabalarni talabalar safidan chiqarish mumkin emas.

Ayrim mustasno holatlardan tashqari bitta universitetdan ikkinchisiga o'tish amalda yo'q. Lekin ba'zi universitetlar chet elliq talabalarni 2 yoki 3-kursga qabul qiladilar, shunda talabalarni o'tkazish bo'yicha maxsus imtihonlar o'tkaziladi (transfer examination).

Oliy o'quv yurtining tadqiqo Yaponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurrok kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa – talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

Nazariy jihatdan umummilliy sikl tugagandan so'ng talaba mutaxassislik va hatto fakultetni o'zgartirishlari mumkin. Aslida, bunday holatlar kam uchraydi va bitta fakultet doirasida bo'lishi mumkin, bunda ham tashabbuskor talaba emas, rahbariyat bo'ladi. Ohirgi 2 yilda tanlangan kasb o'rgatiladi. Barcha universitetlarda o'qish muddati standartlashtirilgan oliv ta'limda ta'limning asosiy yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 4 yil o'qitiladi. Tibbiyot xodimlari, stomatolog va veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach, bakalavr darajasi beriladi: gakushi. Talaba OO'Yuda 4 yillik o'qishini 8 yil o'qish xuquqiga ega, ya'ni o'zlashtir talabalri safidan chiqarish mumkin emas.

Oliy o'quv yurtining tadqiqot ishlariga layoqati bor talabalari o'qishni magistraturada davom ettiradi.

Ko'plab universitetlar o'quv jarayonini semestr tizimi bo'yicha tashkil qiladi. Universitetda zached birliklari tizimi tashkil qilingan. Unda auditoriya va laboratoriyada semestr davomida har hafta ichida sarflanadigan soatlar sonidan kelib chiqib, o'qitilayotgan kursning hajmi belgilanadi. Bakalavr darajasini olish uchun 124dan 150 gacha zached birliklarini to'plash lozim.

Magistrlik darajasi dasturi chuqur ilmiy va kasbiy ixtisoslashtirishni nazarda tutadi. 30 zached birligidan iborat bo'lgan dastur bo'yicha 2 yillik ta'lim, bitiruv imtihonlari va dissertatsiya himoyasidan keyin magistratura bitiruvchisiga magistr darajasi beriladi.

3 yillik doktorlik dasturlari 50 zached birligi, bitiruv imtihonlari va individual tadqiqot asosida o'tkazilgan dissertatsiya himoyasidan iborat o'quv kursini o'z ichiga oladi. Talaba, magistr va doktorantlardan tashqari

yapon oliv o'quv yurtlarida, erkin tinglovchilar, ko'chma talabalar, tadqiqotchi-talabalar va kollegial tadqiqotchilar bor

Erkin tinglovchilar asosiy kursga yoki magistraturaga bir yoki qator kurslarni o'rganish uchun qabul qilinadilar. Yaponiya yoki chet el oliv o'quv yurtlaridan kelgan ko'chma talabalar bitta yoki qator ma'ruzalarda qatnashish yoxud magistratura va doktoranturadan ilmiy rahbarlikni olish uchun qabul qilinadilar. Tadqiqotchi talabalar (Kenkyu-sei) mazkur universitet professori rahbarligi ostida ma'lum ilmiy mavzuni o'rganish uchun bir yillik magistraturaga kiradi, lekin akademik daraja berilmaydi.

O'zbekiston va Yaponiya ta'lim tizimining o'xshash va farqli jihatlari.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga faol qo'shib borishi milliy ta'lim tizimini jahon andozalariga muvofiqlashtirishni talab qilmoqda. Hozirgi davrda ta'lim sohasida AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya mamlakatlarida erishilayotgan yutuqlar ibratlidir. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya ta'lim tizimining qiyosiy tahlili quyidagicha:

1.O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- muktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi;
- oliv ta'lim;
- oliv ta'limdan keyingi ta'lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash;
- muktabdan tashqari ta'lim.

2. Yaponiya ta'lim tizimi esa quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- boshlang'ich ta'lim;
- kichik o'rta maktab;
- katta o'rta maktab;
- kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- magistratura;
- doktorantura.

3. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi, majburiy, bepul.

4. O'zbekistonda ham boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul, 4 yil davom etadi.

5. Yaponiya ta'lim tizimida majburiy malaka oshirish tizimi majud.

- O'zbekistonda ham har 3-5 yilda sohalar bo'yicha malaka oshiriladi.

6. Yaponiyada o'z tashabbusi bilan malaka oshirgan o'qituvchiga qo'shimcha zaq to'lanadi.

7. O'zbekistonda 12 yillik ta'lim majburiy, bepul. Yaponiyada esa 9 yillik ta'lim majburiy, bepul;

8. Yaponiyada "Dzyuku" mahorat bosqichida o'quvchi va talabalar qo'shimcha tahsil oladilar.

9. O'zbekistonda asosan oliy o'quv yurtiga kirish uchun o'quv markazlarida tashkil etilgan kurslarga va repetitorlarga qatnaydilar.

10. 2011 yildan boshlab Yaponiyada ingliz tili boshlang‘ich ta’limda majburiy fan bo‘lib kiritildi.

11. 2013 yildan boshlab O‘zbekistonda ingliz tili boshlang‘ich ta’limda majburiy fan bo‘lib kiritildi.

12. Yaponiyada katta o‘rta maktabning kunduzgi, kechki va sirtqi o‘qish turlari bor.

13. O‘zbekistonda barcha ta’lim turlarida faqat kunduzgi o‘qish turi bor.

14. Har ikkala mamlakatda bakalavr darajasini olish uchun 4 yil oliygohda tahsil olishadi. (tibbiyot sohasi bundan mustasno.)

15. O‘zbekistonda oliy o‘quv yurti talabalarining barchasi stipendiya oladi.

16. Yaponiya oliy ta’limida stipendiya deyarli yo‘q. 2011 yilgi ma’lumotlarga qaraganda 2.880.000 yapon OO‘YU talabalaridan atigi 100ga yaqini yapon hukumati stipendiyasini olishdi. Stipendiyani eng iste’dodli va eng kam ta’minlangan o‘quvchiga qaytarish sharti bilan berishadi, bu stipendiya ta’lim harajatlarini to‘liq qoplamaydi.

17. Yaponiyada xususiy ta’lim muassasalari juda ko‘p, O‘zbekistonda esa deyarli juda kam.

18. O‘zbekistonda o‘qish 2 sentabrdan boshlanadi, Yaponiyada esa 1 apreldan boshlanadi.

19. O‘zbekiston umumiyligi o‘rta ta’limida o‘qish 4 chorak davom etadi, Yaponiyada esa 3 trimestrdan iborat.

20. Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim (syogakko) 6 yoshdan 12 yoshgacha davom etadi, O‘zbekistonda 7 yoshdan 11 yoshgacha.

21. Yaponiyada kichik o'rta ta'lif (tyugakko) da o'qish 12yoshdan 15 yoshgacha davom etadi, O'zbekistonda kichik o'rta ta'lif bo'linishi yo'q.

22. Yaponiyada katta o'rta ta'lif (kotogakko) da o'qish 15 yoshdan 18 yoshgacha davom etadi, O'zbekistonda bu ta'lif turi AL va KHKga to'g'ri keladi.

23. Yaponiya oliv o'quv yurtlarida erkin tinglovchilar va qo'chma talabalar bor. O'zbekistonda esa yo'q.

24. Yaponiya oliv ta'lifi 4 ta ta'lif turini o'z ichiga oladi:

-to'liq sikldagi universitetlar:(4 yil);

-tezlashtirilgan universitetlar: (3 yil);

-kasbiy kollejlari;

-texnik institutlar.

25.O'zbekistonda 4 yillik universitet va institutlar bor. Kasbiy kollejlari OO'Yulari sirasiga kirmaydi.

26. Yaponiyada talabalarga stipendiya berilmaydi. Faqat eng iqtidorli va eng kam ta'minlangan talabalarga ozgina miqdorda beriladi. O'zbekistonda talabalarning barchasiga o'zlashtirishiga qarab beriladi.



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?

2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o'rtaсидаги umumiylilik nimada?

3. "Qiyosiy pedagogika" tushunchasiga ta'rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzARB yo'nalishlarini sanab bering.

JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI

Janubiy Koreya Respublikasi ta'lism tizimining rivojlanish bosqichlari.

Yurtimizda mustaqillik yillarda juda katta islohotlar amalgalashirildi. Bu islohotlarning aksariyati ta'lism tizimiga oid ekanligi hammamizga ma'lum. Zero, ta'lism va ilm-fanning rivojlanishi yurtimiz rivojlanishining omilidir. Buning tasdig'i sifatida yurtimizdagi "Ta'lism to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" kabi asosiy xujjalarning qabul qilinishini aytishimiz mumkin.

Ta'lism tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri xalqaro hamkorlik masalalaridir. Uning asosiy vazifasi yurtimiz ta'lism tizimining dunyo ta'lism tizimiga integratsiyasidir. Rivojlangan, ta'lism tizimiga oid yutuqlarni qo'lga kiritgan davlatlarning tajribasini o'rghanish, tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish juda muhimdir. Shu o'rinda Janubiy Koreya ta'lism tizimining o'ziga xosliklari, erishgan yutuqlarini o'rghanish yaxshi natija berishi mumkin.

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarining diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatları va oriyentirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lism tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi"deb tan olingan.

Konfusiy merosiga ega bo'lgan har bir Sharqiy Osiyo davlatlari kabi Janubiy Koreya ham formal ta'lif tizimining rivojlanishida uzoq tarixga ega. Choson dinastiyasi hukmronligi davrida Seul va provinsiyalarda hukumat maktab tizimini joriy qiladi. Bunday maktablarda kamchiliklar mavjud edi, shu bois XVI asrda ular akademiyalar – “sovonlar” bilan almashtirildi. Bu akademiyalar shuningdek yangi konfusiy tiklanish markazlari ham edi. Davlat va xususiy maktab o'quvchilar harbiy xizmatdan ozod qilingan, ijtimoiy imkoniyatlardan xuddi hozirgi o'quvchilar kabi foydalananar edi.

XIX asr oxiri- XX asr boshlarida koreyslar va xristian missionerlari xususiy maktablarni tashkil etdilar. Albatta xristian missionerlari genderlik masalalari hamda g'arb ijtimoiy va siyosiy g'oyalarni singdirar edi.

Yapon ta'lif siyosati 1910 yiddan keyin Koreyanı itoatkor mustamlakaga aylantirish maqsadida asosan texnik bilimlarni rivojlantiruvchi fanlarni o'qitdi. Tokio Imperiya universitetiga o'xshash universitet Seulda 1923 yil ochildi. Va unda 40% koreys, 60% yapon studentlari tahsil olardi.

1945 yil Janubiy Koreyaning AQSH tomonidan bosib olinishi natijasida ta'lif tizimi amerika uslubida bo'ldi, ya'ni 6 yil boshlang'ich ta'lif, 3+3 yil o'rta va yuqori maktab va 4 yil oliy ta'lif. 9-sinfgacha ta'lif majburiy edi. Li Sin Man xukumati davrida 1948 yildan keyin resurslar yetishmasligi bois bu amerikacha islohlар bekor qilindi: o'g'il va qiz bolalar birgalikda o'qishi faqat boshlang'ich sinfdan saqlanib qoldi, majburiy ta'lif esa faqat 6-sinfgacha davom etdi. 1990 yilgi islohlар amerika okkupatsiyasi davrida o'rganilgan ta'lif tizimini qaytardi.

Li va Pak Chon Xi xukumati davrida ta’lim nazorati davlat Ta’lim Vazirligi qo’liga o’tdi. 1980 yillar so’nggida ushbu vazirlik maktablarni ma’muriy boshqarish, resurslar ajratish, kirishga kvotalarini belgilash, maktab va o’qituvchilarni sertifikatsiyalash, o’quv dasturlarini ishlab chiqish va b. kabi ishlarga mas’ul bo’ldi.¹

Ko’pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari “inson resursiga investitsiyani to’g’ri tikkanligida” deb ta’kidlashadi. Konfusiy davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati xozirgi kungacha bor. Janubiy Koreyada 1980 yillardan beri ilmiy kasblar eng nufuzli hisoblanadi.

Janubiy Koreya milliy ta’lim tizimining yutuqlari quyidagi statistik ma’lumotlarda ko’rinib turibdi: 1945 yil aholining 22% savodli edi, 1970 yil 67.6%, 1980 yillar oxirida 93% savodli bo’ldi.

Janubiy Koreya talaba yoshlari matematika va aniq fanlar bo'yicha xalqaro musobaqalarda yaxshi ko'rsatkichlarga ega. Avval faqat boshlang'ich ta’lim (6 yil) tekin edi. Lekin shunga qaramasdan ta’limning yuqori bosqichlarida o’quvchilar foizi baland edi. 1985 yil 4.8 million o’quvchi boshlang'ich ta’limga topshirdi. Undan keyingi majburiy bo’lmagan o’rta ta’limga 99% o’quvchilar qatnashdi. 34% maktab bitiruvchilari oliy o’quv yurtiga topshirdi. Taqqos uchun: Yaponiyada abituriyentlar 30%, Britaniyada 20% tashkil etadi. Janubiy Koreyaning zamонавиј та’лим тизими ривожланishi 1945 yili, ya’ni yapon hukmronligi tugatilgandan keyin boshlangan. 1945 yildan 1970 yilgacha ta’limda ancha o’zgarishlar bo’lgan. 1950 – 1953 yillardagi Koreya urushidagi talofatlar va iqtisodiy yo’qotishlarga qaramasdan Janubiy Koreya savodsizlikni

¹ www.edu.uz

yo‘qotishga erishgan. 1968 yil qabul qilingan “Milliy ta’lim xartiyasi” koreys mentaliteti va millat vatanparvarligining o‘ziga xosligini aniq ko‘rsatib beradi. Xartiyaga ko‘ra, ta’lim millatni birlashtiradigan, uning tarixi va an‘analariga xurmat – ehtiromni singdiradigan, ijodiy faoliyatga ilhomlanadiradigan, millatning qudratini tiklaydigan omil hisoblanadi.

Ta’limga bunday qarash Janubiy Koreya va shu kabi Konfusiy sivilizatsiyasi mavjud davlatlar uchun tabiiydir, bu esa o‘z navbatida mazkur davlatlar yutug‘ining garovidir.

Bugungi kunda Janubiy Koreya ta’lim tizimining ustun yo‘nalishlaridan biri maktabgacha va maktab ta’limidir. Janubiy Koreyada maktabgacha ta’lim muassasalariga qatnovchi bolalar soni ortdi.

Janubiy Koreyada bolalar bog‘chalari bolalarga nazariy bilim bermaydi, balki, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning jismoniy va emotsiyonal rivojlanishiga ko‘maklashish, o‘ziga ishonch hissini tarbiyalash kabi bosh vazifalarni bajaradi.

Maktab ta’limi haqida gapiradigan bo‘lsak, ta’limni a’lo darajada moliyalashtirishni nazarda tutgan, sinalgan va juda samarali siyosatni olib boradi. Balki maktab ta’limiga e’tiborning kuchliligi shunday yaxshi natijalarga olib kelgandir. Zero, ta’lim byudjetining 10% gina universitetlarga mo‘ljallangan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (IHRT) ma’lumotlariga ko‘ra Janubiy Koreya xukumati 1 yilda 1 o‘quvchiga taxminan 2000 dollar sarflar ekan.²

Janubiy Koreyada o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilishga katta e’tibor qaratilgan. Bu loyihaning amalga oshirilishi 1998 yil boshlangan va davlat mablag‘idan 1.1 mlrd. dollar ajratilgan. Natijada

² www. Ziyonet.uz

Janubiy Koreya dunyoda o‘z mактабларини kompyuter va internetga bog‘lanish bilan to‘liq ta’milagan ikkinchi davlatga aylandi. (Singapurdan keyin).

Har bir sohada modernizatsiya axborotlashtirish (informatizatsiya)ni nazarda tutadi. Masofaviy ta’lim kabi yangiliklarni joriy qilish esa axborot texnologiyalarisiz amalga oshishini aql bovar qilmaydi. Demak, Janubiy Koreya ta’lim tizimining rivojlanishida axborot texnologiyalari bilan to‘liq ta’milanganlik katta rol o‘ynaydi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta’lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliyotida o‘quv muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o‘z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta’lim integratsiyasining aniq asosi bo‘lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta’lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining qo‘shilishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha AQShda tadqiqot universitetlari rivojlangan, ularning soni 104 bo‘lib, mablag‘ 1 mlrddan 3 mlrd atrofida. Janubiy Koreya bu sohada yetakchi emas va tabiiy, tadqiqot universitetlari ko‘lami ham teng emas. Masalan, AQShdagi Massachuset texnologiya institutida ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar va kashfiyotlardan foydalanish bo‘yicha yillik iqtisodiy samara 20 mlrd dollarga yetadi.

Janubiy Koreya davlatning innovatsion rivojlanishini ustuvor bilib, bu borada ta’lim va ilmni isloh qilish zaruratini anglatdi. Texnologik taraqqiyotda lider (yetakchi) deb tan olingan davlatlar darajasiga yetish

maqsadida hukumat bu sohani moliyalashtirishga tayyor. Buning tasdig‘i sifatida shuni aytish mumkinki, xozirgi kunda Koreya ilm va texnologiya institutini amerikalik fizik, professor Robert Lafmen boshqarmoqda. Shu tariqa, ushbu lavozimga chet ellikni tayinlab turib, Janubiy Koreya o‘z oldiga bu sohada yutuqlarga erishgan davlatlar tajribasini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan.

Demak, nafaqat Janubiy Koreya, balki boshqa rivojlangan davlatlardan ham olish mumkin bo‘lgan ta’lim sohasidagi qimmatli tajriba bu ta’limning an’anaviy konsepsiyasini transformatsiya qilishdir. Ko‘p rivojlanayotgan davlatlarda ta’lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. YA’ni, ta’lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag‘larni olib keluvchi soha bo‘lishi kerakligi isbotlandi. Ta’limning deyarli 1-bosqichidayoq davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llash uchun o‘qish zarur.

Lekin shuni hisobga olish joizki, ta’limni tizimli modernizatsiya qilish jarayoni o‘z-o‘zidan eski tartib elementlarni yengib o‘tish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va tabiiy boshqaruvning boshqa metod va mexanizmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Lekin bu shundoqligicha nusxa olish shaklida emas, balki yangiliklarni qabul qilish bilan birga ta’lim rivojlanish bosqichidagi eng yaxshi an’analar va qo‘lga kiritilgan yutuqlarni saqlab qolishni taqozo etadi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimi va xususiyatlari.

Janubiy Koreyada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim.

Maktabgacha ta’lim.

Janubiy Koreyada bolalar bog‘chasi umumta’lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda ta’lim koreys tilida, ingliz tilida, ba’zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog‘chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Ko‘pchilik bolalar “maktabgacha” tayyorgarlik olmasliklari, ya’ni xususiy maktabgacha muassasalarga bormasliklari, balki bolalar bog‘chasiga shunchaki borishlari mumkin.

1980 yillar bolalar bog‘chasi va maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul darajasi sur’ati birdan oshdi. Shu yili 901 ta maktabgacha ta’lim muassasasiga 66433 bola qabul qilindi. 1978 yil esa bu muassasalar soni 7792 taga yetdi, bolalar soni 397020 tani tashkil etdi. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari va o‘qituvchilari soni 3339 dan 11920 taga ortdi. Bulardan ko‘pchiligi – 92%ni ayollar tashkil edi. Buning sabablari quyidagicha izohlananadi:

- Ta’lim vazirligining ko‘magi va rag‘bati;
- Mehnat bozorida ayollar sonining ortishi;
- Nuklear oilalar sonining ortishi, ya’ni ota-ona, buvibuvialarning bolalar bilan shug‘ullanishga vaqt yetishmasligi;
- Bolalar bog‘chasining keyingi ta’lim turlarida o‘qishni osonlashtirish mumkinligini anglash;
- Bolalar bog‘chasini bitirganligi haqidagi yorliq va diplomlarning berilishi, unga bag‘ishlangan bayram tantanalarining o‘tkazilishi, bu esa ota-onalarda o‘z farzandlari bilan faxrlanish tuyg‘usini keltirib chiqarishi kabilar.

Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog‘chalarda asosan musiqa,

rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lism.

Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul. Boshlang'ich maktabda quyidagi 9 ta fanlar o'qitiladi:

- Koreys tili;
- Matematika;
- Aniq fanlar;
- Jamiyat haqidagi fanlar;
- Chet tili;
- Tasviriy san'at;
- Musiqa.

Odatda bu fanlar sinf rahbari tomonidan o'qitiladi, faqatgina ba'zi fanlar uchun maxsus o'qituvchilar tayinlanadi. Boshlang'ich ta'lismidan o'rta ta'limga, undan yuqori ta'limga imtihonlar topshirish orqali emas, balki faqatgina yoshiga qarab o'tiladi. XX asrning 80 yillariga qadar ingliz tili o'rta maktablarda o'qitilgan, hozirda esa boshlang'ich maktabning 3-sinfidan o'qitilyapti. Koreys va ingliz tili grammatikasi juda juda katta farqli bo'lganligi uchun ingliz tilini o'rganish juda qiyin. Shu bois otanonalar o'z farzandlarini xususiy o'quv muassasalariga qo'shimcha o'qishga jo'natadilar. Xususiy o'quv muassasalari, ya'ni "xagvonlar" bolalarga til o'rganishda individual yondashadilar. Shu maqsadda ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklarni boshlang'ich maktabga jalb qilish yo'lga qo'yilgan.

Boshlang'ich maktab koreyschasiga "chxodin xakkyo" deb nomlanar va boshlang'ich ta'lif ma'nosini anglatar edi.

1996 yil Janubiy Koreya xukumati bu nomni o'zgartirdi va "gukmin xakkyo" deb nomladi. Bu atama "fuqarolik maktabi" degan ma'noni anglatadi.

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'lifning yuqori standartlarga egaligi va h.k. Shu bois ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'yantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar. O'rta maktabga kirish imtihonlari 1968 yili bekor qilingan edi. Lekin 1980 yillalda ham o'rta maktabga kirish imtihonlari o'tkazilar, bundan kutilgan maqsad o'quvchilarning bilim darajasiga qarab nufuzli maktablarga taqsimlash edi. Ammo bu maqsadning tadbiqi hamma joyda bir xil kechmaganligi bois bekor qilindi.

Janubiy Koreyada sinflarni raqamlash odatdagiday pastdan yuqoriga emas, balki har bir ta'lif bosqichida 1 dan boshlanadi. Masalan, boshlang'ich maktab 1 dan 6 gacha, o'rta maktab (3 yil) 1 dan 3 gacha, sanaladi: boshlang'ich maktabning 1-sinf (2,3,4,5,6-sinf), o'rta maktabning 1-sinf (ya'ni, o'zbek maktablaridagi 7-sinf), oliy maktabning

2-sinfi (ya’ni o’zbek akademik litsey va KH kollejining 2-kurs talabasi) kabi.³

II.2. Janubiy Koreyada maktab tizimi: o’rta va yuqori maktablar.

Janubiy Koreya maktab ta’limi boshlang‘ich, o’rta, yuqori maktablarni o’z ichiga oladi. Boshlang‘ich maktab haqida avvalgi paragrafda so’z yuritdik. Statistik ma’lumotlarga qaraganda o’rta va yuqori maktablarda 1987 yil 4.895.354 o’quvchi tahsil olgan va 150.173 o’qituvchi faoliyat yuritgan. O’qituvchilarning taxminan 69% erkaklar edi. O’quvchilarning ko’pchiligi oliy ma’lumot olishga harakat qilishdi va 1.397.359 o’quvchi (umumiylashtirish sonidan 60%) oliy o’quv yurtlariga kirishdi. 840.265 nafari kasbiy bilim yurtlariga kirishdi, ular quyidagi mutaxassisliklar bo‘yicha faoliyat yuritishlari mumkin:

- Yer (qishloq) xo‘jaligini yuritish;
- Baloqchilik;
- Tijorat (kommersiya);
- Savdo-sotiq;
- Kemasozlik;
- Muhandislik ishi;
- Turli san’at turlari sohalari bo‘yicha va h.k.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Janubiy Koreya maktab ta’limi o’rta va yuqori maktablarga bo‘linadi. Koreys tilida o’rta maktab “chunxakyo” deb nomlanadi va “o’rta maktab” ma’nosini beradi. O’rta maktabda ta’lim

³ Рузисев У., Номозов С. “Корея илмга чанқоқлар мамлакати. Жанубий Кореяда таълим хақида”. -Туркистон.: 2001 й

majburiy, bepul va 3 yil o‘qitiladi. O‘rta maktabga 11 yoshdan oshgan, 12 yoshdagilar qabul qilinadi.

Boshlang‘ich maktabga nisbatan o‘rta maktabda o‘quvchilarga ancha yuqori talablar qo‘yiladi. O‘quvchining kiyinishi, soch turmagi va boshqa jihatlari doimiy nazorat ostida bo‘ladi. Xuddi boshlang‘ich maktabdagagi kabi o‘rta maktabda ham o‘quvchilar kunning katta qismimi sinfda sinfdoshlari bilan birga o‘tkazadi. Har bir fan alohida fan o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi. O‘qituvchilar sinflarga borib o‘qitadilar, lekin “maxsus” fanlar o‘tilganda o‘quvchilar shu xonaga o‘zları keladilar. Sinf rahbarlari – xangillar o‘quvchilar hayotida muhim o‘ringa ega, o‘quvchilar ularni qattiq xurmat qilishadi.⁴

O‘rta maktabda bir kunda 6 ta fan o‘qitiladi, shuningdek, alohida maxsus 7-dars ham bor. O‘quv dasturining negizini quyidagi fanlar tashkil etadi:

- Matematika;
- Koreys va ingliz tili;
- Qator aniq fanlar;

“*Qo‘srimcha*” fanlar quyidagilardan iborat:

- San’at sohalar;
- Jismoniy tarbiya;
- Tarix;
- Xancha (xitoy peroglifi);
- Etika;
- Uy iqtisodini yuritish;
- Kompyuter savodxonligi.

⁴ Саъдиев Ж. «Хорижда таълим» -Т.: Маърифат, 2000 й.

Mashg‘ulotlar 45 daqiqa davom etadi. Boshlang‘ich sinfdagi 9 ta fanga, o‘rtalik muktabda yana 4 ta fan qo‘shilib, jami 13 ta fan o‘qitiladi. Muktabda chet tillariga e’tibor kuchli. Ko‘pchilik ingliz tilida bemalol gaplasha oladi.

Chet tilini o‘qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. O‘qish o‘rtalik muktabda bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. Koreyalik o‘quvchilar ingliz tilidan tashqari klassik xitoy tilini majburiy ravishda o‘rganadilar. 5-sinfdan boshlab, Xitoy tarixi o‘rgatiladi. Boshlang‘ich muktabdagagi kabi o‘rtalik muktabda ham o‘quvchi sinfdan-sinfga imtihonsiz o‘tadi. Ma’lum fanlar uchun imtihonlarning standart shakllari mavjud, fan o‘qituvchilar tavsiya qilingan o‘quv qo‘llanma va darsliklardan foydalanadilar. O‘rtalik muktabning ko‘plab o‘quvchilari darsdan keyin qo‘sishimcha kurslar “xavgonlar”ga boradilar, yoki xususiy repetitorlarga qatnaydilar. Alovida e’tibor ingliz tili va matematikaga qaratilgan. Ba’zi xavgonlar bitta fanga asoslanadi, ba’zilari barcha asosiy fanlarni qamrab oladi. Bu o‘z navbatida muktab mashg‘ulotlarining yanada qiyin bo‘lgan ikkinchi qismiga aylanadi.

Undan tashqari juda irodali o‘quvchilar kurash turlari va musiqa muktablariga qatnashadilar. O‘quvchilar shu tariqa darsdan keyin uylariga juda kech qaytadilar.

Yuqori muktab koreyschasiiga “kodinxakkoy” deb nomlanadi. Koreyalik bolalar yuqori muktabga o‘rtalik muktabdan keyin 17 yoshdan 1-kursga qabul qilinadi va 19 yoshgacha tahsil oladi. Yuqori muktablar bir necha turlarga ajratiladi:

- *Davlat yuqori muktablari:* Koreya Ta’lim va texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi;

- Umumiy yuqori maktablar: har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi;
- Xususiy yuqori maktablar.

Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi:

- Ixtisoslashtilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot);
- Umumiy maktablar;
- Maxsus maktablar (litsey shaklidagi muktab);
- Texnika maktablari;
- Chet tili maktablari;
- Jismoniy tarbiya maktablari;
- San'at maktablari va h.

Janubiy Koreya Respublikasida ta'lif vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ldi.

Yuqori maktab o'rta maktab kabi majburiy emas. Biroq keyingi yillarning barchasida statistik ma'lumotlarga qaraganda 97-98 % koreys yoshlari yuqori maktabni tamomlaganlar. "Ilmiy" yuqori maktablar, chet tillar va san'atshunoslik maktablariga kirish ancha murakkab imtihonlarni topshirishni talab etadi. Yuqori maktablar xususiy va davlat tasarrufida bo'lishi mumkin, bu maktablarda mutaxasislik bermaydi, balki ularni keyingi ta'lif bosqichiga tayyorlaydi.

Kollejda tahsil olishni istamagan o'quvchilar kasbiy bilim yurtlariga kirib o'qishlari mumkin. Bu bilim yurtlari texnologiya, agrikultura yoki moliya yo'nalishlariga ixtisoslashgan. Yuqori maktablarning jadvali

haqida gapiriladigan bo'lsa, har bir o'quvchi uchun kun yarmida qaytib kelish odatdag'i holatga aylangan.

Janubiy Koreyada hunar maktablari 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45% bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23% da texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisosliklari o'zlashtiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Janubiy Koreya "Ta'lim haqidagi qonun" talablaridan biri ham shudir. Bizning Respublikamizdagi kabi Janubiy Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor juda kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktablar ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Janubiy Koreyada nogironlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu yerda aravachalar yordamida harakatlanuvchilar uchun yer osti liftlari mayjud. Maxsus jihozlangan, past qilib qurilgan telefon avtomatlaridan nogironlar bema'lol foydalanadilar. Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan.

Davlat maktablarida din fan sifatida o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab "Odobnomma" kabi kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat ajratilgan. Bu fan o'z ichiga dinni ham qamrab oladi. Din qotib qolgan bir aqida sifatida emas, qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun bir tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanlarining majburiy davomi hisoblanadi.

Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor berildi. Koreyadagi barcha talabalarning 6.5% bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar tayyorlaydigan kollejlar mavjud har bir provinsiya (viloyat) o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi.

Janubiy Koreyada ta'llimning nufuzi juda baland. Jumladan, soliqlar tizimida ta'llimi soliq joriy qilingan: ya'ni, ishlab chiqaruvchilar foydasining ma'lum foizi ta'llimga sarflanadi. Mamlakat prezidenti Xalq ta'llimi Davlat Kengashini ham boshqaradi va xalq ta'llimi boshqarmasini tayinlaydi.

Yuqori maktab bitiruvchilari "susen" deb nomlanuvchi standart test topshiradilar. Maktab o'quv dasturlari kirish testlari – imtihonlari mazmunini qamrab olgan. Susen 3 ta asosiy seksiya / fanlardan iborat: koreys tili, matematika va ingliz tili. Undan tashqari tabiiy va ijtimoiy fanlardan tanlov asosida qator fanlar kiritiladi. Bunday test 1 yilda 1 marta topshiriladi, u intensiv tayyorgarlikni talab etadi. Bu testga bo'lajak OO'YU talabalari bog'cha yoshidan tayyorlanishni boshlashadi.

Testni topshirolmagan va kollejga kirish 1 yilga surilgan o'quvchilarni "chesusenlar" deb atashadi.

Janubiy Koreyada kasb-hunar ta'llimi va oliy ta'llim tizimi.

Janubiy Koreyada oliy ma'lumotga ega bo'lish har bir koreys fuqarosining keyingi mavqeい muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bu martabali ta'llim muassasalariga o'qishga kirishga bo'lgan ehtiyoj ham katta. Janubiy Koreyada ta'llim

tizimi masalalari bilan ta'limni boshqarish vazirligi shug'ullanadi. Avvallari uni shunchaki "Ta'lim vazirligi" deb nomlashgan. Ammo 2001 yildan boshlab Kim De Chjun alohida sifatli ta'lim berish va shaxsni har tomonlama rivojlantirish maqsadida ta'lim vazirligi vakolatlari doirasini kengaytiradi. Ta'lim vaziri esa vitse-premyer-ministr darajasigacha ko'tarildi. Bu tashkilot bolaning yoshligidan boshlab to yuqori maktabni bitirgunga qadar ta'lim olishini ta'minlaydi va nazorat qiladi. Janubiy Koreyada e'tibor ko'proq matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat bilan bog'liq fanlarga qaratiladi.

Jismoniy tarbiyaga unchalik e'tibor berilmaydi, chunki, u ta'lim beruvchi fan emas. Janubiy Koreya boshlang'ich mактабдан tortib, to universitetgacha bo'lgan ta'lim muassasalarining barini yuqori tezlikli internet bilan ta'minlagan ikkinchi davlat hisoblanadi. (Birinchi bo'lib Singapur joriy etgan.) 1998 yilda ta'lim tizimini rivojlantirish uchun davlat byudjetidan 1.1 mlrd dollar miqdorida mablag' ajratilgan. O'quv yili 2 semestrdan iborat. 1-semestr martda boshlanadi va iyulning o'rtalarida tugaydi. 2-semestr esa kech avgustda boshlanib, fevralning o'rtalarida tugaydi. Yozgi ta'til iyul oxiridan avgustning so'nggiga qadar, qishki ta'til esa kech dekabrdan erta fevralga qadar davom etadi. Ta'lim dasturi aniq belgilanmaydi va fanlar bir o'quv yilidan so'ng yana o'zgartirilishi mumkin.

Janubiy Koreya aholi o'rtasida talabalar soniga ko'ra dunyoda birinchi o'rnlarda turadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ko'ra barcha OO'Y. davlat tasarrufidagi va xususiy ta'lim vazirligi va mehnat resurslarini rivojlantirish xizmati tomonidan boshqariladi. Boshqa masalalar bo'yicha universitetlar Koreya Universitet ta'limi kengashi

tamoyillariga tayanadi. Janubiy Koreyada quyidagi ta'lif muassasaları turlari mavjud:

- Kollej va universitetlar (xususiy va milliy, davlat tasarrufida);
- Industrial universitetlar;
- Pedagogika institutlari;
- Sirtqi universitetlar;
- Ochiq universitetlar;

Janubiy Koreya ta'lif tizimining barcha bo'g'inlarida bo'lganidek, oliy ta'lif sohasida ham chuqur islohotlar olib borilgan. Mamlakatda ta'lifni isloh qilish va rivojlantirishga oid qabul qilingan qonunlar va meyoriy hujjalarni oliy ta'lifni raqobatga tayyorlash, universitet ta'lifini rivojlantirishda tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, bitiruv muktab ta'lifi va amaliy mutaxassisliklarni kuchaytirish, universitetlarning mahalliy sanoat bilan aloqadorligini yaxshilash, sanoat talablariga javob beradigan kasbiy ta'lifni rivojlantirish, muktab bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalar va ishchilar uchun kasbiy ta'lifni kuchaytirish, oliy ta'lif uchun o'smirlar imkoniyatlarini yaxshilash, axborot asrida ta'lif boshqaruvi va uni moliyalashtirish xalqaro ta'lif almashinuvini mustahkamlash kabi dolzarb masalalarga katta e'tibor qaratildi.

Koreyada oliy ta'lif muassasalariga qabul qilish qattiq nazorat ostida bo'lib, har bir da'vogarning ma'lum bir kollej yoki universitetga muvofiqligi talabaning ta'lifni o'zlashtirish qaydlari va standartlashtirilgan milliy test natijalari orqali belgilanidi.

1999 yilgi ma'lumotga ko'ra, Koreyada jami bo'lib 350 ta oliy o'quv yurti faoliyat olib borgan. Mamlakatda rasmiy ravishda oliy o'quv

yurtlarining 5 ta turi (harbiy va diniy o'quv muassasalarini hisobga olmaganda) mavjud: universitet, kollejlar, o'qituvchilar instituti, ochiq universitetlar hamda sirtqi universitetlar.

4-chizma.

Koreya o'quv yurtlarining turlari

(1999 yilgi ma'lumot)

Nº	O'quv yurtlari	O'quv yurtlari soni
1	Universitetlar	158
2	Kollejlar	161
3	Sirtqi universitetlar	1
4	O'qituvchilar instituti	11
5	Ochiq universitetlar	19
	Jami:	350

2002 yilgi ma'lumotga asosan esa oliy ta'lim mussasalari soni 358 taga yetgan.

Ushbu tizimda ta'lim to'rt yildan iborat bo'lgan universitetlar yuqori o'rinni egallaydi. Universitetlarning bitiruvchisi ta'lim muddati ikki yil bo'lgan magistraturaga kirish huquqiga ega bo'ladi.

Kelajakda maktablarda ishlash uchun pedagoglar tayyorlaydigan o'qituvchilar instituti universitetlarga yaqin turadi.

Mamlakatda yagona sirtqi oliy o'quv yurti - Seuldagi sirtqi universitet o'ziga hos ahamiyatga ega. "Ochiq universitetlar" ning vazifasi ham shunga o'xhash bo'lib, ularga ishlab chiqarishda ishlayotganlargina kirishi mumkin, ularda kirish imtihonlari yo'q. Janubiy Koreyada kollejlarning asosiy vazifasi malakali ishchilar yoki bo'g'in idora

xizmatchilarini tayyorlashdir. Talaba kollejni tugatgach, nazariy jihatdan birdaniga universitetning ikkinchi yoki uchinchi kursiga kirish uchun xarakat qilishi mumkin. Shu bilan birga maxsus o'tish imtihonini topshirib, boshqa mutaxassislik bo'yicha ham kirishi mumkin. Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligi universitetlarning yangi reyting tizimini joriy etgan. Attestatsiya natijasida 90 va undan yuqori ball olgan universitetga "a'lo" unvoni beriladi. 80 va undan ko'proq ball olgan oliy o'quv yurtlari "yaxshi" deb hisoblanadi. 70 va undan ortiq ball olganlari - "akkreditlangan" deb baholanadi. U yoki bu universitetni "sifat" jihatdan baholash bir necha yo'nallishlar bo'yicha, ilmiy ishlarni o'qituvchilar bilan talabalar nisbati, moddiy baza, moliyaviy ahvolni ham qo'shgan xolda o'tkaziladi. Reytingda yuqori o'rirlarni egallagan universitetlar hukumatning qo'shimcha moliyaviy qo'llab-quvvatlashiga umid qilishi mumkin. Koreya ta'limini boshqarish ma'muriy hokimiyatning uch darajasida: Ta'lim vazirligi, viloyat va tumanlardagi ta'lim bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Xullas, hozirgi zamон Koreyaliklar ongida oliy ta'limni olishga intilish muhim xarakterli xislat bo'lib qolmoqda.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi yuqorida ta'kidlaganimizdek, 6 yillik boshlang'ich maktab, 3 yillik asosiy o'rta maktab, 3 yillik yuqori maktab, 4 yillik kollej va 4 yillik universitetlardan iborat. Shuningdek, 2 va 3 yillik maxsus va kasbiy – texnik kollejlar mavjud. OO'YU dan keyin magistratura va doktoranturada tahsil olish mumkin.

2010 yilgi ma'lumotlarga qaraganda Janubiy Koreyada 411 ta oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, unda 3 mln. 640 ming talaba tahsil oladi, professor-o'qituvchilar soni 77 ming 697 nafar kishini tashkil etadi.

Janubiy Koreya oliv ta'lim quyidagi bosqichlarda olib boriladi: bakalavriat, magistratura, doktorantura.

Bakalavriat. O'qish muddati 4 yil. Talabalar 140-150 kredit soat atrofida tahsil oladilar. Tibbiyot sohasida o'qish 6 yil davom etadi va 180 kredit soat o'qishadi. O'qish tugagach, bakalavr darajasini olganligi haqidagi diplom beriladi. Tipik yirik koreys universitetlari tarkibida 10 tadan 20 tagacha fakultetlar bor. Fakultetlar amerikacha termin bilan "kollixlar", ya'ni koreyscha "texak" deb ataladi. Koreyada o'quv jarayoniga axbort texnologiyalarini joriy qilishga alohida e'tibor beriladi. Natijada Janubiy Koreya dunyoda o'z mакtab va ta'lim muassasalarini kompyuter va internet bilan to'liq ta'minlagan ikkinchi davlatga aylandi.

Magistratura. O'qish muddati 2-3 yil. O'qish yakunida talabalar dissertatsiya yoqlaydilar. Tibbiyot sohasidagi talabalar Tibbiyot maktabining barcha talablarini bajarib, milliy imtihon topshiradilar. O'qish yakunida magistrlik darajasi beriladi.

Doktorantura. O'qish muddati 3-4 yil. O'qish yakunida doktorlik dissertatsiyasi himoya qilinadi, og'zaki yoki sohaga mos imtihon topshiriladi. Hozirgi kunda Janubiy Koreyada 350 oliv o'quv yurtlari mavjud. Rasmiy holda OO'Yuning 5 ta tipi bor. (harbiy va diniy o'quv muassasalarini hisobga olmaganda):

- Universitet;
- Kollejlar;
- O'qituvchilar instituti;
- Ochiq universitetlar;
- Sirtqi universitetlar

Bu perarxik zinapoyaning eng yuqori bosqichini o‘qish muddati 4 yil bo‘lgan universitetlar tashkil etadi.

Ta’lim tizimining umumiyl tuzilishini quyidagi chizmada ko‘ramiz:

5-chizma.

Nº	Bosqichlar	O‘qish davomiyligi	Majburiyligi
1	Boshlang‘ich maktab	6 yil	Ha
2	O‘rta maktab	3 yil	Ha
3	Yuqori maktab	3 yil	Yo‘q
4	Kasbiy ta’lim(kollej)	2 yil	Yo‘q
5	Oliy ta’lim(universitet)	4 yil	Yo‘q



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
- 2.“Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o’rtasidagi umumiylilik nimada?
- 3.“Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.

7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzARB yo'nalishlarini sanab bering.

O'ZBEKISTON - JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARINING QIYOSIY TAHLILI.

BMTning fan, ta'lIM va madaniyat bo'yicha YUNESKO tashkiloti ekspertlari dunyo ta'lIM tizimi reytingini o'tkazdi. Unga ko'ra Janubiy Koreya ta'lIM tizimi eng samarali deb topildi va reyting lideri deb e'lon qilindi.

Janubiy Koreya birinchi zamonaviy maktablari 1880 yilda, g'arb madaniyati keng yoyilayotgan paytda ochildi. 1948 yil Koreya Respublikasi tashkil topgan paytdan boshlab "6+6+4" ta'lIM tizimi mavjud edi. 1953 yildan 6 yillik boshlang'ich ta'lIM hamma uchun majburiy va bepul bo'ldi. Bugun Koreya savodxonlik darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi. Ekspertlar fikricha, mamlakatning iqtisodiy muvaffaqiyatiga yuqori malakali ishchi kuchi mavjudligidan erishildi.

O'quvchilarni boshlang'ich maktabga qabul qilish 1952 yildan keskin o'sa boshladи va 1971 yil rekord raqam – 5 mln. o'quvchi qabul qilindi. Natijada 1 sinfda o'quvchilar soni 90 taga yetdi. 1960 yili 1 o'qituvchiga 58.8 o'quvchi to'g'ri keldi. 2003 yilgi statistik ma'lumotlarga qaraganda bu raqam 27.1 ga qisqardi.

2003 yil holatiga ko'ra mamlakatda 5.463 boshlang'ich maktab o'qituvchilari mavjud. Boshlang'ich maktablarda 4 mln. o'quvchi qabul

qilingan. Boshlang‘ich ta’lim dasturi 9 ta fanni o‘z ichiga qamrab oladi: etika, koreys tili, matematika, musiqa, tabiiyot, fizkultura, tasviriy va amaliy san’at, ingliz tili.

O‘rtta mакtabda o‘quvchilar soni yildan yilga ortib borishi natijasida 1969 yil o‘rtta mакtabda 58.4% o‘quvchilar o‘qishni davom ettirsalar, hozirgi kunga kelib, bu raqam 99.9% ni tashkil etadi.

2003 yil Janubiy Koreyada 2.850 o‘rtta mакtab mavjud bo‘lib, unda 1.85 mln bolalar o‘qiydi. 1969 yil o‘rtta mакtabga o‘tish imtihoni bekor qilindi. Bolalar odatda o‘z tumanlaridagi mакtablarga borishadi. 2002 yil majburiy o‘rtta ta’lim joriy qilindi.

2003 yil 1.297 yuqori mакtablar mavjud bo‘lib, unda 1.2 mln kishi tahsil oldi. 734 ta kasbiy-texnik mакtablarda 542.077 o‘quvchi o‘qidi. Shu yili yuqori mакtablarga o‘rtta mакtabni bitirgan 99.7% o‘quvchilar kirib, o‘qishni davom ettirishdi.

Janubiy Koreya Respublikasida oliy o‘quv yurtlarining 5 ta tipi mavjud: 2-3 yillik kasbiy-texnik kollejlар, 4 yillik universitetlar, 6 yillik tibbiyot va stomatologiya kollejlari, 4 yillik pedagogika universitetlari, diniy seminariylar, teologik kollejlар, 80% oliy o‘quv muassasalari xususiy bo‘lib, Ta’lim vazirligi tomonidan nazorat qilinadi. Talabalar soni, o‘qituvchi-professorlar tarkibi malakasi, diplom olish talablari bilan ham Ta’lim vazirligi shug‘ullanadi. Oliy o‘quv yurtlarida umumta’lim fanlari va mutaxassislik fanlari o‘qitiladi. Ular o‘z navbatida majburiy va fakultativ fanlarga ajratiladi. 1945 yil Janubiy va Shimoliy Koreyada 19 ta oliy o‘quv yurti bor edi, hozirgi kunda faqat Janubiy Koreyada 1.400 oliy o‘quv yurti mavjud bo‘lib, unda 3.558.111 talaba tahsil oladi, professor-o‘qituvchilar soni 62.185 kishini tashkil etadi.

“Xalq ta’limi haqida”gi Qonunga ko’ra har bir oliy o‘quv yurti qoshida kamida bitta doktorantura bo‘lishi ta’kidlangan.

Koreyada birinchi marta maxsus korreksion ta’lim 1894 yil Pxenyan shahridagi ko‘rlar maktabida tashkil qilindi. Shundan boshlab maxsus ta’lim turli jamoat va xayriya tashkilotlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. 1945 yil xukumat ko‘rlar maktabini boshqarish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oldi. 1950 yil o‘qituvchilar tayyorlash maxsus maktab tashkil topdi, 1977 yil korreksion ta’lim haqida Qonun qabul qilindi. maxsus maktablar soni yildan yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda bunday maktablar 145 tani tashkil etadi, unda 24.119 o‘quvchi tahsil oladi. Shulardan 15 ta ko‘rlar maktabi, 17 ta gung va karlar maktabi, 109 ta aqli zaiflar maktabi va qolgani jismoniy imkoniyatlari cheklangan kishilar uchun maktablardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi ta’lim tizimini qiyosiy tahlili quyidagicha:

1. Janubiy Koreyada maktabgacha ta’lim 3 yoshdan 6 yoshgacha davom etadi.
 - O‘zbekistonda 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar maktabgacha ta’lim muassasalariga boradilar.
2. Boshlang‘ich ta’lim Janubiy Koreyada (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha, ya’ni 6 yil davom etadi. O‘qish majburiy va bepul.
 - O‘zbekistonda esa 7 yoshdan 11 yoshgacha, ya’ni 4 yil davom etadi.
3. Janubiy Koreyada boshlang‘ich maktabdandan keyin o‘rta maktabga o‘tiladi. (12) 13 yoshdan 15 yoshgacha o‘qiydi, 3 yil davom etadi, majburiy va bepul.

- O'zbekistonda 4 yillik boshlang'ich ta'limdan so'ng, 5 yillik o'rta ta'limga o'tiladi. Ta'lim majburiy va bepul.

4. Janubiy Koreyada o'rta maktabni bitirgach, 3 yillik yuqori maktabda o'qitiladi. Ta'lim majburiy emas, pullik, lekin 99.8% koreys yoshlari bu maktabda o'qiydilar.

- O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limga topshiradilar. Ta'lim majburiy va bepul.

5. Janubiy Koreyada oliy ta'limning 5 ta tipi bor. Ular tarkibiga kollejlar ham kiradi.

- O'zbekistonda oliy ta'lim maqomidagi kollejlar yo'q.

6. Janubiy Koreyada o'quv semestrlari martda boshlanib fevralda tugaydi: 1 semestr martdan – iyulning o'rtalarigacha, 2 semestr kech avgustdan fevralning o'rtalarigacha davom etadi.

- O'zbekistonda esa o'quv yili sentabrdan iyulgacha davom etadi: 1-semestr sentabrdan yanvargacha, 2-semestr fevraldan iyulgacha davom etadi.

7. Janubiy Koreyada yuqori maktabni bitirganlar ishga joylasha oladilar.

- O'zbekistonda ham akademik litsey va KH kollejini bitirganlar ishga joylasha oladilar.

8. Janubiy Koreyada yozgi ta'til 2 oy, qishki ta'til 40 kun davom etadi.

- O'zbekistonda esa yozgi ta'til 2 oy, qishki ta'til 10 kun davom etadi.

9. Janubiy Koreyada yuqori o'rta maktabni bitirganlar oliy o'quv yurtlariga yoki kollejlarga topshira oladi.

- O'zbekistonda esa OO'Yuga faqat o'rta maxsus kasb-hunar ta'limidan keyin topshiriladi.
 - 10. Janubiy Koreyada 9 yillik majburiy ta'lif joriy qilingan.
 - O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lif joriy qilingan.
 - 11. Janubiy Koreyada 9 yillik majburiy ta'lif bepul.
 - O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lif bepul.
 - 12. Janubiy Koreya YUNISEF reytingida nufuzli lider o'rirlarda turibdi.
 - O'zbekiston ham kuchli 300 talikka kirishga intilmoqda.
- Izchil islohotlar natijasida har ikkala davlat ta'lif tizimining ko'lami oshib, takomillashib bormoqda.
- 13. Janubiy Koreyada yagona sirtqi oliy o'quv yurti- Seul sirtqi universiteti mavjud.
 - O'zbekistonda hozirgi kunda sirtqi ta'lif joriy etilmagan.
 - 14. Janubiy Koreyada "Ochiq universitetlar" mavjud bo'lib, ularning vazifasi ishlayotganlar uchun ham ishlab, ham o'qish imkonini beradi.
 - O'zbekistonda magistrlaraning aksariyati ham ishlab, ham o'qiydilar.
 - 15. Janubiy Koreyada kollejni tugatgan talaba universitetning 2 yoki 3- kursiga kirish uchun imtihon topshirib harakat qilishi mumkin.
 - O'zbekistonda bunday imtihon yo'q.
 - 16. Kollejda bitirgan mutaxassislikdan boshqa mutaxassislikka topshirmoqchi bo'lsa, maxsus o'tish imtihonni topshirishi kerak bo'ladi.
 - O'zbekistonda istagan mutaxassislikka kirish mumkin.

Har ikkala davlat ta'lim tizimini "Konseptual" (qiyosiy) jadval asosida yoritamiz.

8-chizma.

Ta'lim tizimi	O'zbekiston	Janubiy Koreyada
Maktabgacha ta'lim	2 yoshdan 7 yoshgacha bolalar yasli, bolalar yasli bog'chasi, bog'cha mакtablar, majburiy emas.	3 yoshdan 6 yoshgacha bolalar bog'chasi, xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari, majburiy emas.
Janubiy Koreyada: "Maktab ta'limi", O'zbekistonda: "Umumiy o'rta ta'lim" "	Boshlang'ich ta'lim (1-4- sinflar) majburiy, bepul.	Boshlang'ich ta'lim (1-6- sinflar) majburiy, bepul.
	O'rta ta'lim (5-9 sinflar) majburiy, bepul.	O'rta maktab (7-9 sinflar) majburiy, bepul.
		Yuqori maktab (10-12 sinflar) ihtiroyiy pulli.
Kasbiy ta'lim	Akademik litsey yoki kasb-xunar kollejlari. Majburiy, bepul.	2-3 yillik kollejlari, kasbiy bilim yurtlari.
Oliy ta'lim	OO'YU: institutlar, universitetlar, akademiyalar.	OO'YU: universitetlar, institutlar, universitet tipidagi kollejlari, ochiq va sirtqi universitetlar.
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	Magistratura, doktorantura.	Magistratura, doktorantura.

Janubiy Koreyada OO'Yuning 80% xususiydir. Hozirgi kunda mamlakatda OO'Yuda o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Maktab bitiruvchilarning 40 % o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Janubiy Koreya dunyoda 1-o'rinda turadi.

Koreys xalqi ta'limga juda katta e'tibor beradi, jamiyatda o'z o'mini egallashda ta'limni asosiy omil deb hisoblaydi. Hozirgi zamonaviy maktablarning ilk

ko‘rinishi 1880 yillarga to‘g‘ri keladi. 1948 yil Koreya Respublikasi tashkil topgach, zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishga kirishdi. 1953 yil majburiy 6 yillik ta’lim joriy etildi.

Bugun Koreya Respublikasi dunyoda savodxonlik bo‘yicha eng yuqori pog‘onada ekanligidan faxrlanadi. Oxirgi o‘n yillikda ta’lim tizimiga ajratilgan alohida e’tibor Janubiy Koreya Respublikasining tez sur’atlar bilan iqtisodiy o’sishida asosiy omil ekanligi tez-tez ta’kidlanmoqda.



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
2. “Chet el pedagogikasi” va “qiyosiy pedagogika” tushunchalari o’rtasidagi umumiylilik nimada?
3. “Qiyosiy pedagogika” tushunchasiga ta’rif bering.
4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.
5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini ayting.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayon eting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzarb yo’nalishlarini sanab bering.

YEVROPA DAVLATLARI TA'LIM TIZIMI GERMANIYA TA'LIM TIZIMIGA UMUMIY TA'RIF.

Germaniya Federativ Respublikasi 16ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lismiziga ega. Ta'lismiz muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lismiz dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Ta'lismi joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) xuqumatining konpetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiyligi raxbarlik ham bor: ta'lismiz vazirligi ta'lismiz siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, OO'Yularini kengaytirishga mablag' ajratadi.

GFR konstitusiyasiga ko'ra har bir Federal Yer o'z hududidagi maktab va oliv ta'lismi rejalshtirish va amaliyotga tadbiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal xukumat umumta'lismiz va oliv ta'lismiz muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash maqsadida xamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lismiz soxasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'lismizning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtixonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.

Har bir Federal Yerda ta'lismiz xaqida o'zining qonuni mavjud, lekin buning xammasi umumiyligi federal qonun asosida ishlab chiqilgan. Har bir Federal Yer maktabga qatnash vaqtida, o'qish muddati va darsliklarni belgilashda mustaqildir. O'quv rejalar va ta'lismiz darajasi har bir Federal Yer uchun turlichadir. O'qitish dasturlari, darsliklar viloyat xukumati bosqichida tasdiqlanadi. Har bir fan bo'yicha tegishli vazirlik tomonidan

tasdiqlangan bir necha darsliklar mavjud bo'lib, o'qituvchi darslikni o'zi tanlash huquqiga ega. Shu tariqa ta'limning ko'p variantliligidagi erishiladi, fikrlar plyuralizmi ta'minlanadi.

Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagisi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Yerlar davlat umumta'lim, kasbiy va oliv o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;
- barcha Federal yerlarda o'quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;
- deyarli barcha o'quvchilarga davrslik va o'quv qo'llanmalmalarni qiymatining ozgina qismiga beradi;
- ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobilarning aprobatsiyasi o'tkazilib turiladi.

Sekin asta differensiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyatini va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari,

tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu yerkarta bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich mактаб, unga 6 yoshдан qatnay boshlaydi. O'qish muddati **4** yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'lim I ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) "yo'nalishli bosqich" deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim "dual tizim" deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rma ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma "yetuklik attestati" – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari.

GFR ta'lim tizimi umumevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari YEI (YES) dasturini amalga oshirishga mo'ljallangan, YEI davlatlari ta'lim standartlarini unifikatsiya (bir xillashtirish) qilinadi, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega.

Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdır. Shiller, Gyote, Shneger, Gumboldt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo'lib, 1386 yil tashkil topgan. 1388 yil tashkil topgan Kyoln universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasalari qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdır.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta'lim tizimi ham o'zgardi. Avvalgiday gumanitar ta'lim an'analari muhim o'rinni egallaydi, lekin texnik ta'lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta'lum ham birinchi o'ringa chiqmoqda. Oliy o'quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari – yo'nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda o'quv rejalar qayta ko'rib chiqilmoqda.

Germaniyada uzlusiz ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari.

Germaniyada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim.

Germaniya Federativ Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonuniga" ko'ra har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash xuquqiga ega. Ta'lim sohasidagi bunday siyosatning maqsadi har bir shaxsning qiziqishi va talablarga javob beradigan malakali tayyorgarlikni olish imkonini berishida imkon qadar ko'proq yordam berishdan iboratdir.

Germaniyaing har bir fuqarosi butun hayoti davomida umumiyl, oliy va kasbiy ta'lim olish imkoniyatiga ega. Chunki Germaniya yuqori

rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo'lib, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Germaniya xukumati turli sohalarda sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. Shu bois nemis ta'lismizining rivojlanishiga katta miqdorda mablag' ajratiladi. Germaniyada ta'lismiz o'z fuqarolari va chet el fuqarolari uchun tekin. Lekin nemis ta'lismizda davlat tasarrufidagi va xususiy ta'lismi muassasalari mavjud bo'lib, xususiy ta'lismi tizimlari pullikdir.

GFR ta'lismi tizimining rahbar organlari GFR Yerlari ta'lismi va madaniyat vazirliklari doimiy konferensiyasi hamda Germaniya ta'lismi muassasalari rektori konferensiyalaridir. Ta'lismi jarayoni rahbarligini GFR Yerlari darajasida profil vazirliklari ham amalga oshiriladi. Har bir GFR Yerlarida federal qonun asosida tuzilgan ta'lismi to'g'risida o'z qonunlari bor.

GFR ta'lismi tizimi klassik ko'p bosqchli tizimga egan bo'lib, unga mактаб, олий ва касбиy та'lismi kiradi.

Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lismi tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lismi institatlarda bolalar bog'chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasi (nem. Schulkindergarten) taxsil oladilar. Bu institutlar alohida FE qoidasiga ko'ra yoki maktabgacha sektoriga yoki boshlang'ich ta'lismi sektoriga bo'yсинади.

Maktabgacha ta'lismi majburiy emas, lekin ko'pgina Feda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lismidan kichik o'rta tipdag'i ta'lismi bosqichlariga o'tish alohida Federal

Yerlarning qonunlariga bog'liq. Bola tahsil olgan maktabning tavsiyanomasi kelgusi kasbiy yo'nalishni aniqlashda o'ziga xos oriyentir bo'ladi. Bu ota-onalar bilan kelishiladi. Oxirgi qaror, aslida ota-onalar tomonidan qabul qilinadi, lekin ba'zi maktab tiplari uchun o'quvchining mazkur maktabda ixtisoslashtirilgan soha bo'yicha qobiliyati va maktab boshqarmasi qaroriga tayaniлади.

3 yoshdan maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning ta'limi, ijtimoiylashuvi va boshqaruvi asosan bolalar va yoshlar farovonligi bilan shug'ullanuvchi sektorga qaraydi. Ko'pchilik Federal Yerlarda (viloyatlarda) bu vazifani jamoatchilik ishlari bo'yicha vazirliklar bajaradi. Mahalliy bosqichdagi maktabgacha ta'lim muassasalari uchun asosiy mas'uliyat yoshlarning turmush farovonligi ishlari bo'yicha bo'lim zimmasiga tushadi. Maktab yoshiga yetmagan 5 yoshli bolalar yoki maktabga hali tayyor bo'lmagan 6 yoshli bolalar tahsil oladigan maktabgacha sinflargina maktab boshqaruв organlariga qaraydi. Maktab tasarrufidagi bolalar bog'chasi ham maktab boshqaruв organlariga qaraydi. Bolalar bog'chalari boshqaruvi uchun mahalliy hokimiyat va Federal Yerlar ajratgan mablag'ga qaramasdan, ota-onalar pul to'laydilar.

Bolalalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida hamdir. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar. Odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Lekin kuni uzaytirgan bog'chalar ham bor.

Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergen va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rghanilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy meyorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

Bolalar bog'chasida nutq o'stirish, bola shaxsini rivojlantirish, ijtimoiy tarbiya va o'yin muhim sanaladi. Har yili 30-iyun kuni 6 yoshga to'lgan bolalar mакtabga borishlari shart. Birinchi darsgacha bo'lgan muddatda ular tayyorlov mashg'ulotlariga borishlari shart bo'lib bu darslar boshlang'ich maktablarda o'tkaziladi va bir necha nomga ega:

- "Vorbereitungsjahr"
- "Vorschule"
- "Schulnachmittage".

Bu darslarning maqsadi 5 yoshli bolalarni 1-sinfga tayyorlash va ularning kelgusida mакtabni tanlashga ta'sir qiluvchi qobiliyatlarini maksimal aniqlashdan iborat. Maktab yoshiga yetgan, lekin u yerga bora olmaydigan bolalar uchun maxsus guruhlar ham mavjud.

Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari mакtab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi.

Maktab ta'limi.

Germaniyada majburiy mакtab ta'limi 6 yildan 19 yilni o'z ichiga oladi, demak mакtabda ta'lim umuman olganda 13 yilni tashkil etadi. Bu muddat tugagach, imtihonlarni muvaffaqiyatlι topshirib bo'lib, o'quvchi bitiruv

guvohnomasini oladi va oliy o‘quv yurtiga kirish xuquqiga ega bo‘ladi. Germaniyada har bir maktab o‘z Federal Yeri xokimiyatiga bo‘ysunadi. Shu bois dasturlar, qoidalar va hatto o‘qitish davomiyligi mamlakatning turli Federal Yerida turlicha.

Germaniyada maktab tahlim tizimi ikki bosqichli tizim bo‘lib, boshlang‘ich va maktab (Primastufe) va o‘rta ta’lim muassasalari (Sekundastufe)dan iborat. Kunduzgi maktabga 9 yil, ba’zi Federal Yerlarda 10 yil o‘qish majburiy. Bu muddat tugagach, kunduzgi maktabning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirishni istamagan 18 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar kasbiy ta’lim maktablarida o‘qishlari shart.

GFRda Federal Yerlar ta’lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari uchun javob beradi. Barcha davlat maktablarida o‘qish bepul. O‘quvchilarga qisman bepul o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar beriladi. Diniy fanlarni o‘qitish majburits emas. O‘quvchi 14 yoshida bu fanni o‘qish yoki o‘qimaslikni o‘zi tanlaydi. Maktablarda bolalar va qizlar aralash o‘qishadi. Ta’lim spektri Federal Yerlarning moliyaviy yordamidan foydalanuvchi turli tashkilotlarning xususiy maktablari bilan to‘ldirib boriladi.

Germaniyada maktab ta’limi quyidagi maktab tiplariga bo‘linadi:

1. Boshlang‘ich maktab (Grundschule)
2. Yo‘nalish maktablari (Orientierungstufe)
3. Asosiy maktab (Hauptschule)
4. Real maktab (Realschule)
5. Gimnaziya
6. Umumiy maktab (Gesamtschule)
7. Maxsus maktab (Sonderschule)

Boshlang‘ich mакtab-ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi. Bu ta’lim bosqichining vazifasi – bolalarga ta’limni davom ettirishга imkon berruvchi bilimlar asosini berishdir.

Maktab ta’limining birinchi bosqichi boshlang‘ich mакtab (Grundschule) bo‘lib, unda o‘qishga 6 yoshdan qabul qilinadi va o‘qish 4-6 yil davom etadi. Odatda bolalar boshlang‘ich ta’limda 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil ta’lim oladilar. 1-2 sinflarda fanlararo strukturizatsiya yo‘q, ya’ni matematika, nemis tili, mamlakatshunoslik, musiqa va din sohasidan umumiy bilimlar bitta o‘quv-tarbiyaviy kurs doirasida o‘qitiladi. Ko‘pchilik Federal yerlarda bolalarga o‘qishning boshlang‘ich ikki yili mobaynida baho qo‘yilmaydi, buning o‘rniga ularning o‘zlashtirishiga batafsil tavsifnomha beriladi.

Boshlang‘ich maktabda ona tilidan o‘qish va yozishga o‘rgatish bilan birga “Biz yashayotgan olam” mavzusidagi darslarda bo‘lajak fanlar: inson va jamiyat, tarix, geografiya, biologiya, fizika, ximiyadan ma’lumotlar beriladi. YA’ni bu yerda “kompleks o‘qitish” ayniqsa ilk 2 yilda amalga oshiriladi. Faqat 3-4-sinflardagina alohida fanlar o‘tiladi; til, mamlakatshunoslik, musiqa kompleks o‘qitishda qoladi.

Darslar haftada 20tadan (1-sinfda) 30tagacha (4-sinf) bo‘ladi. Odatdagи darslar tush paytigacha davom etadi, dars tuzilishi metodikasini o‘qituvchilar erkin tanlaydilar. Masalan, ba’zi maktablarda o‘quvchilar va o‘qituvchilar ilk 15 minutni fikr almashishga bag‘ishlaydi. Hamma joyda ham darslar 45 minut bo‘lmaydi. Masalan, Bavariyada o‘qishning 1- va 2-yillarida “asos soluvchi darslar” o‘tkaziladi. Boshqa Federal Yerlarda yuqoridagi fanlarga chet tili ham qo‘shiladi. 90-yillarning o‘rtalaridan

boshlab ingliz yoki boshqa chet tili 3-sinfdan boshlab majburiy bo'ldi. Boshlang'ich mактабда bir yilda ikki marta o'zlashtirish tabeli beriladi.

1 (a'lo)dan 6(qoniqarsiz) degan an'anaviy shkala o'mniga yozma xulosalar yozish belgilandi. Unda bolaning o'qishdagi qobiliyati holati, keyingi ta'lif turi va mazmuniga konstruktiv ko'rsatmalar beriladi. Tabel o'quvchining materialni yetarli darajada o'zlashtirganini ko'rsatishi lozim. 3-sinfdan boshlab, 10-sinfgacha 6 ballik shkalada baho qo'yiladi: "1"-eng yuqori baho hisoblanadi.

Ilk 4 (6) yilda o'quvchilar birga shug'ullanadilar, 4-6-sinflarda o'quvchi qayerda ta'lifni davom ettirishi hal bo'ladi: to'liq xalq maktabi, real maktablar yoki gimnaziyalar. Bu ota-onaning moddiy o'ziga to'qligiga emas, uning xohishi va iqtidoriga bog'liq.

Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktablarga o'tadilar.

Demak, Germaniyada maktab yoshiga yetmagan 5 yoshli bolalar maktabgacha sinflar (nem. Vorklassen), 6 yoshga to'lgan, lekin maktabga tayyor bo'lмаган bolalar maktablar qoshidagi bolalar bog'chasi (nem. Schulkindergarten)ga boradilar.

Germaniyada 25 yoshgacha bo'lgan barcha o'quvchi va talabalar 184 yevro miqdorida "Bolalar puli" (Kindergeld) olish huquqiga ega. Talabalar ham o'qish uchun kredit olishlari mumkin. Bu kreditning yarmini keyin davlatga qaytarish lozim.

Germaniyada o‘rta maktab tiplari: asosiy, real, aralash maktablar va gimnaziyalar.

Nemis o‘quvchilari boshlang‘ich maktabni bitirganlaridan so‘ng umumta’lim maktabining 2-pog‘onasiga boradilar. 5 va 6-sinflar, ularning tashkiliy jihatidan qat’iy nazar, avvalambor, bola kamol topadigan davr bo‘lib hisoblanadi, bolalarning keyingi o‘qish shakliga yo‘naltirish maqsadida kuzatuv olib boriladi.

I bobda ta’kidlaganimizdek, Germaniyadagi umumiy o‘rta ta’lim turli tiplarga bo‘linadi. Ular orasida sezilarli farqlar bor. Umumta’lim maktabining har bir tipi o‘quvchilarga tanlagen kasb bo‘yicha o‘qishni davom ettirish uchun aniq imkoniyatlar beradi. Ota-onal bilan maslahatlashib bolaning kelgusida qanday yo‘nalishdagi mutaxassis bo‘lishiga qarab maktab tanlanadi. Undan tashqari yuqori darajadagi umumta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun bolaga boshlang‘ich maktab o‘qituvchisining tavsiyanomasi so‘raladi. Germaniyada bola qanchalik iqtidorli bo‘lsa, shunchalik sifatlari ta’lim olish imkoniyatiga ega, degan prinsip bor. Shu tariqa, keljakdagi kasbni tanlash uchun ta’lim bosqichini aniqlash boshlang‘ich ta’limdan keyin amalga oshiriladi.

GFRning ba’zi Federad Yerlarida mavjud bo‘lgan yo‘nalishli bosqich (“Orientierungsstufe”) ota-onalarga, o‘quvchi va o‘qituvchilarga II bosqichdagi maktabga o‘tishni hal qiluvchi ishonarli asosni berishga mo‘ljallangan. Yo‘naltiruvchi bosqich mustaqil o‘quv muassasasi yoki II bosqichdagi maktabning 1 qismi sifatida tashkil etilgan. Berlinda bu bosqich boshlang‘ich maktabning 5-6-sinf shaklida olib boriladi. GFRda o‘rta maktablar 4ta tipga bo‘linadi: gimnaziyalar, real maktablar, asosiy

maktablar, umumlashgan maktablar. Quyida har bir maktab tipi bilan tanishamiz.

Asosiy maktab. Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziyaga bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Bu maktabda oxirgi majburiy sinf 9-sinf, ba'zi Felarda 10-sinf hisoblanadi. Ko'pchilik Felarda o'quvchilarga qo'shimcha 10-sinfga erkin qatnash imkonи berilgan.

Asosiy maktabning maqsadi – o'quvchilarni ikkinchi bosqich I doirasidagi ta'lif va kasbiy ta'lifni davom ettirishga tayyorlash va umumta'lif kurslariga qatnashishdir. Asosiy maktablarda o'quvchilarni ishchi kasbi olami bilan tanishtirish orqali kasb tanlashga yordamlashishga e'tibor qaratiladi. Barcha o'quvchilar uchun quyidagi fanlar majburiy hisoblanadi: nemis tili, chet tili (o'quv vaqtining 33%ini tashkil etadi), matematika, fizika, ximiya, biologiya (haftasiga 4 soat), geografiya, tarix, "Ishlar olami" ("Arbeitslehre"), din, musiqa, badiiy tarbiya, siyosat, jismoniylar tarbiya (bu fanlar o'quv vaqtining 22%ini tashkil etadi); Bavariyada – qo'shimcha –tarbiya haqida ta'lifot ("Erzichungslehre"), shuningdek, uy xo'jaligini rejalashtirish ("Haushalts – und Wirtschaftskunde") kabi fanlar o'tiladi. Matematika, chet tili va ba'zi boshqa fanlarni o'qitish yig'ma guruhlarda olib boriladi. Bunday o'qtishdan maqsad o'quvchilarning turli darajadagi tayyorgarligi va o'quv materialini turli darajada egallaganligini hisobga olgan holda maktabni tugallashiga va yuqoriyoq tipdagi maktablarga o'tishiga tayyorlashdir. Darslar soni haftasiga 30dan 33tagacha. Sinflarda qizlarning soni uchdan bir qismni tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi o'zining tirishqoqligi va yaxshi o'zlashtirishiga ko'ra real maktabning 7-sinfiga jo'natiladi.

Asosiy mактабда асосан еng kuchsiz o'quvchilar, ijобиy тa'rif berganda, амалиy qiziqishlari bor bolalar qolishadi. Shunga ko'ra аsosiy mакtablarda e'tibor texnik predmetlarga, chizmalar, qo'l mehnati, uy yuritish, ya'ni, bo'lajak kasbiy faoliyat bilan аmалиy bog'lanishga qaratiladi. Bunga o'quvchilarning 8-sinfda o'tadigan аmaliyoti ham kiradi. Hunurmandchilik va sanoat muassasalaridagi "xaqiqiy" ish paytida ular aniq kasbiy talablar bilan tanishadilar.

Asosiy mакtabdagi o'qituvchilar o'zлari o'qimagan sohalar bilan ham shug'ullanishga majbur bo'ladilar. Masalan nemis va ingliz tili o'qituvchilari texnikani ham o'zlashtiradilar. Bunday kasbiy aralashuvning pedagogik vazifasi ham bor: sinf rahbari bolalar uchun ishonchli shaxsga aylanishi va o'z tarbiyalanuvchilari bilan imkon boricha ko'p vaqt birga bo'lishidadir.

O'tgan аsrning 70-yillariga qadar аsosiy mакtablar yaxshi аsosga ega edi. Lekin keyinchalik yuqori bosqichdagi mакtablarga kirish osonlashgani sababli, ota-onalar o'z farzandlarini ko'proq gimnaziyalar yoki real mакtablarga berdilar. Katta shaharlarda pedagoglar аsosiy mакtabni "qobiliyati va axloqida kamchiligi bor" o'quvchilar yig'iladigan "qoldiqlar mакtabi" deb ataydilar. Asosiy mакtab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog deb his qiladilar.

Lekin аsosiy mакtabdagi o'quvchilar yomon o'zlashtirishiga qaramasdan ko'pchiligi kasbiy ta'lim оlishga muvaffaq bo'lishadi.

Germaniya ta'lim tizimi o'qishni davom ettirish bo'yicha ilojsiz holatga olib kelmaydi, shu bois ham аsosiy mакtab bitiruvchilari qator shartlarni bajarib, real mакtab shahodatnomasini оlishlari mumkin. Bunga

qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnashish, imtihonlar topshirish orqali erishiladi.

Shunga qaramay Ta'lif vazirligi asosiy maktabni isloh qilish zarurati xaqida fikr bildirmoqdalar. Bunda asosiy maktab o'qituvchilari boshlang'ich maktab o'qituvchilari kabi ixtisoslikka ega bo'lishlari kerak deyiladi.

Real mакtablar.

Real maktablar ikkinchi bosqich Iga qarashli bo'lib, odatda 5-10 sinflarni o'z ichiga oladi. 7-sinfni bitirib, real maktabga o'tishni xoxlagan asosiy maktab o'quvchilari uchun real mакtabning aloxida 3 sinfl varianti mavjud. Real mакtab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lif beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat xissi, insonlarga raxbarlik qilish ko'nikmalariga yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lif kurslariga tayyorlaydi.

O'quvchilar ularga tavsiya etilgan o'quv yo'nalishlaridan bitta asosiysini tanlab olish imkoniga ega. Bu tabiiy-matematik, texnik, lingvistik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-tibbiy, musiqiy-badiiy yo'nalish bo'lishi mumkin. Har bir mакtabda tavsiya qilinayotgan fanlar aniq. U mакtablararo va Felararo farqlanadi. Real mакtabni yetarli yuqori darajadagi baholar bilan bitirgan bitiruvchi II bosqichdagi o'quv muassasasiga kirish huquqiga ega.

Barcha o'quvchilar chet tilini bilishlari shart. Asosiy mакtablarda chet tilini tanlash huquqi yo'q, faqat ingliz tili o'rganiladi. Real mакtablarda esa bir necha chet tilini tanlash tavsiya etiladi, o'quvchi bittasini tanlaydi. Real mакtablarda o'qish yuqori darajada olib boriladi,

fanlarni tizimlashtirishga katta e'tibor beriladi. Haftasiga darslari soni 30dan 34gacha bo'ladi.

O'quvchi 10-sinfni bitirgach, real mакtabni bitirganligi haqida attestat oлadi, bu kasbiy ta'limning qator maktablariga, shuningdek, gimnaziyaning 3ta yuqori sinfi bilan teng tipdagi maktablarga yo'l ochadi.

Asosiy urg'u amaliy fanlarga, ko'pincha texnik fanlarga beriladi. Attestat baholariga qo'yilgan ma'lum talablart bajarilsa, gimnaziyaning 2-sinfiga qabul qilinishi mumkin. Real maktablarning ahamiyati va nufuzi kundan kunga oshmoqda. Germaniyada real maktablarga boshqa tipdagi maktablarga qaraganda talab kuchli. Real mакtab o'qituvchilari o'z mutaxassisligiga an'anaviy tipdagi mакtab o'qituvchilari kabi ega bo'ladilar. Boshlang'ich va asosiy mакtab o'qituvchisi ixtisosligini olganlar malaka oshirish kursiga qatnashib, imtihon topshirib real maktablarda dars berish imkoniga ega bo'ladilar.

Gimnaziya

Gimnaziyalar umumta'lim o'quv muassasalari hisoblanadi. Unda o'qish 5-13-sinfgacha 9 yil davom etadi. 11-13gacha o'qiydiganlar gimnaziyaningsh yuqori bosqichi deb ataladi. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan gimnaziya bitiruvchisi oliy o'quv yurtiga kirish huquqini beruvchi yetuklik attestati oladi.

Umumiyetklik attestati beruvchi, hohlagan yo'nalishdagi oliy o'quv yurtiga kirish xuquqini beruvchi gimnaziyalar va "fan gimnaziya" lari mavjud. Bunday tipdagi maktablar ta'limning ikkinchi bosqichi Ilga tegishlidir. Bu gimnaziyalarda aniq kasblar sohasiga zarur bo'lgan bilimlarni berishga alohida e'tibor qaratiladi.

Fan gimnaziyalariga real maktabni bitirganlik haqidagi attestat bo‘lsagina qabul qilinadi. Bu gimnaziyalarda ta’lim davomiyligi 3yil. Bitiruvchilar fan yetuklik attestatini oladilar, bu esa ma’lum doiradagi fanlarni o‘rganish uchun oliy o‘quv yurtiga kirish xuquqini beradi.

Gimnaziyada o‘qitishdan maqsad: umumta’lim bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish va shular asosida o‘quvchilarni zamonaviy ma’lumotlarni olish va qayta ishlashning ilmiy metodlari bilan tanishtirish, oliy o‘quv yurtida muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. 5-10sinflar 11-sinfda boshlagna individuallashtirilgan ta’lim dasturi uchun poydevor yaratish vazifasini bajarishga mo‘ljallangan. Aynan 11-sinfdan boshlab, o‘quvchilarga baho emas “punkt”lar qo‘yiladi. Nemis maktablarida eng a’lo baho “1”. 15 punkt – bu “1+”ga teng. “1” baho olish uchun nafaqat savollarga to‘g‘ri javob berish, balki darslarda tirishqoqlik ko‘rsatish lozim.

Gimnaziyaning o‘ziga xos xususiyati fanlarning differensial tuzilgani bo‘lib, o‘quvchiga tanlash imkonini beriladi. Masalan, chet tillar soni va ularni navbatma-navbat o‘rganish. 9-sinfda o‘quvchiga aniq yo‘nalishdagi fanlarni (tabiiy-matematik, ilmiy-iqtisodiy, musiqiy-badiiy) tanlash imkonini beriladi. Shunga ko‘ra gimnaziyalar maxsus xarakterga ega bo‘ladi va an’anaviy klassik, tabiiy-matematik va zamonaviy tillar turlariga bo‘linadi. Undan tashqari iqtisodiy, pedagogik, qishloq xo‘jaligi, texnik- texnologik, ijtimoiy-ilmiy, musiqiy gimnaziyalar va kommunal xo‘jalik gimnaziyalar bor.

Klassik gimnazziyalarda albatta lotin, yunon va birorta zamonaviy til o‘rganilishi shart. Tabiiy-matematik gimnaziyalarda matematika, fizika, ximiya chuqur o‘rganiladi. Gimnaziyaning yuqori sinflarida asosiy, ya’ni

xamma uchun majburiy kurslar, hamda individual tanlangan o'ta qiyin (yuqori) kurslar kiritilgan.

Umumiy ta'limni kansitmagan holda bu tizim o'quvchilarning individual qobiliyatlarini yaxshi o'rganishga imkon beradi. Tanlovga tavsiya qilingan yuqori qiyinchilikdagi kurslar qamrovi 3ta soxadagi majburiy kurslar asosida tuziladi: bular badiiy-til, ijtimoiy-ilmiy va tabiiy-mayetmatik-texnik kurslar. Asosiy kurslar va yuqori qiyinchilikdagi kurslar soxasiga: nemis tili, chet tillar, badiiy ijodiyot, musiqa, falsafa, tarix, geografiya, din, jamiyat haqida ta'limot ("Gemeinschaftskunde"), matematika, iqtisodiyot ("Wirtschaftslehre"), fizika, ximiya, biologiya kiradi. O'quvchilarga tanlovga tavsiya qilingan kurslar doirasiga pedagogika, psixologiya, sotsiologiya ("Sozialkunde"), geologiya, astronomiya, statistika, texnologiya, EHM yordamida ma'lumotlarni qayta ishslash ("Datenverarbeitung") kiradi. Har bir o'quvchi yuqori qiyinlikdag 2ta kursda shug'ullanishi lozim, shulardan bittasi yoki chet tili yoki matematika yoki tabiiy fanlardan bittasi bo'lishi kerak.

Yetuklik attestati olish uchun 4ta fandan imtihon topshiriladi. Imtihon topshiruvchi yuqorida aytilgan sohalar bo'yicha olgan bilimlarini yaxshi ko'rsata olishi, tanlangan yuqori qiyinlikdagi kursi bo'yicha esa keng bilimlarni namoyish etishi lozim. Imtihon ham yozma ham og'zaki bo'lishi mumkin.

Avvallari gimnaziyalar Germaniyada faqat oqsuyaklar zadagonlar o'qiydigan mifik mablag'ini miflibor qilishga imkon beradi. Lekin zamondan o'zgardi: xozirgi kunda boshlang'ich maktabning 4-sinfini bitirgan 40% o'quvchilar garchi yetuklik attestatini umumiy maktabda olish mumkin bolsa ham gimnaziyada o'qishni davom ettirishni xoxlaydilar. Zamonaliviy

gimnaziyalarda ta’lim jarayonini rejalashtirishda motivatsiya muhim omil sanaladi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni ma’lumotlar bilan doimo band qiladilar.

Gimnaziyaning ijobiy xususiyatlaridan tashqari minuslari ham bor. O‘zlashtirish nazorati kam, uyga vazifaga baho qo‘yilmaydi. O‘zlashtirish pasayib sifat darajasi ham avvalgiday emasligi ma’lum. Bundan 30 yil oldin bir xil yoshdagi o‘quvchilarning 5,7% yetuklik attestati (abitur) olgan. Hozirgi kunga kelib, 33% o‘quvchilar abitur olishdi, bu 6 marta ko‘p degani. Gimnaziyada o‘quvchilar soni ortishi bilan talablar ham pasaydi. 20-30 yil avval o‘quvchilar yozgan nazorat ishini hozirgi o‘quvchilarga yozdirganda bugungi natijalar sezilarli darajada past chiqishi ham sifat pasayganini ko‘rsatib turibdi. Avval gimnaziyaga qabul qilish uchun imtihon topshirilardi, hozir esa boshlang‘ich mакtabning 4-sinfidan keyin sinf rahbarining tавsiyanomasi va ota-onaning tanlovi yetarli bo‘lib qoldi.

Birlashgan (umumiyl) maktab.

Birlashgan maktab 5-10 (7-10) sinflarni o‘z ichiga oladi. U ikkinchi bosqich Iga qarashli. Birlashgan umumiyl maktabning maqsadi: barcha ikkinchi bosqich I maktablari fanlari, kurslari, bitiruv attestatiga talablari bilan birlashtirishdir. U o‘quv muassasalari va ikkinchi bosqich II kasbiy ta’lim kurslariga o‘tuvchi bitiruvchilarni tayyorlaydi. Undan tashqari, aksariyat umumiyl maktablarda o‘qitish kurslari mavjud, uni muvaffaqiyatli yakunlagan o‘quvchi oliy o‘quv yurtiga kirish xuquqini oladi. Umumiyl maktabning ikkita tipi bor: kooperativ, integratsiyalashgan maktab.

Kooperativ umumiy maktabda asosiy maktab, real maktab va gimnaziyalar birgalikda ishlaydi. Tashkiliy, metodik va didaktik jixatdan ular bir biriga qaram bo‘limagan bo‘limlar sifatida faoliyat yuritadi. Bu bo‘limlar o‘zaro xamkorligining turi va darajasi yosh davrlari guruhlariga bog‘liq. Kooperativ umumiy maktab barcha bo‘limlar uchun umumiy pedagogik rahbariyatga ega.

Integratsiyalashgan umumiy maktab 10-sinfgacha alohida maktab tipini ajratmaydi. Sinflarni tashkil qilishning yagona mezoni yosh bilan bog‘liq. Alohida fanlarni o‘qitish kurs tizimi bo‘yicha olib boriladi.

Mashg‘ulotlarning asosiy shakli dars bo‘lib, u bir necha turlarga ega: ochiq dars, diskussiya dars, ekskursiya dars va h.k. 9-10-sinf ohirida o‘ta ta’limni tugatganlik haqida guvohnoma oladi.

O‘quvchining u yoki bu fan bo‘yicha yutuqlarga ko‘ra guvohnoma yuqoridagi ikkinchi bosqich I tipdagi maktablardan birining attestatiga mos keladi. Ba’zi Feda umumiy maktab an’anaviy maktab tiplari qatorida doimiy maktab sifatida kiritilgan. Hozirgi kunda integratsiyalashgan umumiy maktablarda ma’lum yoshdagи o‘quvchilarining 6% tahsil olmoqda.

Umumiy maktabda mutaxassislar tomonidan “fanlardan yutuqli bo‘yicha differensiyalash” deb nomlangan guruhlarga bo‘lish joriy qilingan. Differensiyalashdan qutilgan maqsad: har bir o‘quvchiga uning qobiliyatlariga ko‘ra talablar qo‘yish, har biriga individual yondashish. Differensiyalash 6-sinfdan, assal faqat ingliz tili va matematika darslarida boshlanadi. Ingliz tilidan yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilar turli sinflardan maxsus tuzilgan “B” guruhiga o‘tadilar. Qolganlar shunday tarzda tashkil etilgan “A” guruhida o‘qishadi. Shu tariqa 30ta o‘quvchisi

bor ikkita 6-sinfdan uchta o'quv guruhi tashkil qilinadi. Differensiyalash nemis, fransuz, ximiya, biologiya fanlari bo'yicha ham o'tkaziladi.

O'zlashtirish o'zgarishi natijasida bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish uchun mumkin. Umumiylar maktablarda o'quvchilar, masalan, ingliz va nemis tilidan yomon o'zlashtirish, lekin ularga yoqadigan va "B" guruhida shug'ullavnvdigan matematika yoki fizika va ximiyadan juda yaxshi o'zlashtirishi mumkin. Shu bois bunday o'quvchilarni 2-yilga goldirmaydilar va maktabni o'zgartirishga harakat qilmaydilar. Umumiylar maktab o'quvchilarining boshqa tipdag'i maktabga o'tish zarurati yo'q. Chunki aynan asosiy, real maktablar, shuningdek gimnaziyaning birlashuvi umumiylar maktabning o'ziga xos xususiyatidir. Bu yerda bir guruhda yetuklik attestatiga imtihon topshirib, keyin OO'Yuda o'qitadiganlar ham, 9-sinfni bitirib, kasbiy bilim yurtiga boradiganlar ham tahsil olishadi.

Bunday holat an'anaviy uch tipli maktabda amalga oshishi mumkin emas. 4(6) sinfdan keyin o'quvchilar asosiy, real maktablar yoki gimnaziyalarga bo'linadi. Ularning har birida o'zining ta'lim dasturi va tugatganlik to'g'risida attestat mavjud. Bir maktab tipidan ikkinchisiga o'tish mumkin emas.

Umumiylar maktablarda bola taqdirini erta uzil-kesil hal qilishdan voz kechildi, chunki har bir oila hayotida kutilmagan hodisalar bo'lishi mumkin. O'quvchi qanday attestat bilan maktabni bitirishi 9-10-sinflarda hal bo'ladi. "Ijtimoiy integratsiya va hamma uchun bir hil imkoniyatlar" devizi ostida 60-70 yillarda umumiylar maktablar yaratish uchun kompaniya boshlandi va ilk umumiylar maktablar Berlin va Gamburgda boshlandi. Vaqt o'tishi bilan ko'plab ota-onalar garchi har bir Felarda bu maktablar turlicha

bo'lsa ham o'z farzandlarini umumiy maktablarga bera boshladilar. Maktabning bunday shakli kerakmi, degan bahslar to'xtadi. Umumiy maktab tarafidorlari uning yagona muqobil emasligini, tanqidchilar esa uning afzalligini tan olishdi.

Germaniyada kasbiy va oliy ta'lif tizimi.

Germaniya ta'lif tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yil asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tishida sinov imtihonlari o'tkazilib, o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining yetakchi mutaxassislari, Federal Yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomi oly o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz, maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan amalga oshiriladi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha

guruhlarning bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalarini taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat xarajatlarini ko'tara olmasa, o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra ular moliya yordamini oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi.

Mamlakatda ta'limni isloh qilish masalasi ko'pdan beri muhokama qilinmoqda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Ba'zi universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirdunga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz.

Germaniyada Xalq universitetlari mayjud bo'lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko'pchiligi kechki bo'lib, faqat 1989 yilda universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda, 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirgan. Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablag' ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o'qish davrida tinglovchilarga mablag' bilan moliyaviy yordam beradilar. Asosan ishsizlar o'z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko'proq foydalanadilar va bu bilan ish topio'lari tezlashadi. Yarim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75% ish bilan ta'minlanadi. Cherkovlar ham fuqarolarning bilim darajalarini oshirishda faol ishtirok etadi. Yevangel cherkovi o'zining 15ta akademiyasida dlozarb mavzular bo'yicha anjumanlar tashkil etadi.

Katoliklar malaka oshirishda nikoh, oila masalalariga, teologiya va madaniyat sohalariga katta ahamiyat beradilar. Oliy o'quv yurtlarida tadqiqot bilan shug'ullanish ularning qadimiy an'analaridan biri. O'tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt pruss universitetlarini isloh qildi, o'shanda beri "Tadqiqot va o'qitish birligi" ularning hayotiy prinsiplriga aylanib qolgan. Oliy o'quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi – fundamental amaliy tadqiqot bo'lib, ularga boshqa ilmiy- tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga, juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada ta'lim tizimini isloh etish yo'lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

Germaniya oliy ta'lim tizimi oliy o'quv yurtlari turlarining ko'pligi bilan farqlanadi. Germaniyada jami 383 oliy o'quv yurti bo'lib, shulardan 103 tasi universitet, 180 tasi amaliy fanlar oliy o'quv yurtlari hisoblanadi. Birinchi oliy ma'lumotni olish yaqin kunlargacha nemislar uchun ham, chet ellik talabalar uchun ham tekin edi. 2007 yildan beri ba'zi oliy o'quv yurtlari talabalari har semestrga 500 yevrodan to'lashlari kerakligi belgilandi (inflyatsiyani hisobga olib oshib bormoqda.)

G'arbiy Yevropa Federal yerlarida muddatidan uzoq o'qiyotgan talabalar o'qish uchun pul to'laydilar. Ta'lim tizimidagi bu islohotlar qonun bo'yicha yo'lga qo'yilgan.

Oliy o'quv yurtlarining ko'pchiligi davlat tasarrufida va hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. 383 oliy o'quv yurtlaridan 69 tasi xususiy.

Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi, abituriyent uchun eng muhim mifik yoki gimnaziyada kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirishdir. Nufuzli mutaxassisliklarga o'qishga qabul

qilishda abituriyent maktab attestatining o'rtacha bali hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Universitetlardagi nufuzli mutaxassisliklarga o'rinni taqsimlash bo'yicha oliy o'quv yurtlari emas, ZVS degan maxsus bo'linma shug'ullanadi. O'rtacha balldan tashqari ZVS ijtimoiy va shaxsiy sabablar, nogironlik, oilaviy ahvoli va boshqalarni ham hisoga oladi. Agar o'rtacha ball yetarli bo'lmasa, abituriyentni navbatga qo'yadi. Bir necha semestr kutganidan so'ng unga universitetdan o'rin berishadi.

Germaniya doimiy ravishda universitet reytinglarini aniqlab turadi. Bunda o'qitish, pedagog kadrlar darajasi, shuningdek, u yoki bu oliy o'quv yurtlarini bitirib, ishga joylashish kabi shart-sharoitlar hisobga olinadi.

Talabalar oddiy stipendiyadan tashqari turli Fondlar tomonidan joriy qilingan stipendiyalarni olish imkoniga ega. Partiya fondlari, Nemis xalqi fondi, Cherkovlar fondi, FE hukumati fondi, GFR hukumati bo'limlari va kichik regional tashkilotlarlar fondlari shular jumlasidandir. Stipendiyalar odatda alohida toifa talabalarga, masalan, o'ta iqtidorli talabalarga beriladi. Stipendiya nemis studentlariga ham, chet ellik talabalarga ham beriladi. Chet ellik talabalarga stipendiya beruvchi asosiy tashkilotlarga Akademik almashish Germaniya xizmati kiradi. Shu kabi yirik fondlarga Konrad Adenauer, Fridrix Erbert, FE fondlari kiradi.

Germaniyada ilm-fan.

Germaniyada ilmiy-tadqiqotlar universitetlar va ilmiy tashkilotlar hamda korporativ tadqiqot markazlarida olib boriladi. Universitetlardagi ilmiy tadqiqotlar federal byudjet, FE byudjeti tomonidan va tashkilotlar ajratgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Germaniyada ilmiy-tadqiqotlar shuningdek, 4ta yirik ilmiy tashkilotlarda olib boriladi. Bular

Maks Plank jamiyatasi, Gelmgols jamiyatasi, Fraungofer jamiyatasi va Leybnits jamiyatlaridir.

Maks Planka jamiyatida 13000 xodim ishlaydi, undan 5000 tasi olimlar bo‘lib, jamiyatning yillik byudjeti 1,4 mlrdni tashkil etadi.

Gelmgols jamiyatida 26,5 ming xodim ishlaydi, undan 8000 tasi olimlar bo‘lib, jamiyatning yillik byudjeti 2,35 mlrdni tashkil etadi.

Fraungofer jamiyatida 26,5 ming xodim ishlaydi, jamiyatning yillik byudjeti 1,2 mlrdni tashkil etadi. **Leybnits jamiyatida** 13,7 ming xodim ishlaydi, jamiyatning yillik byudjeti 1,1 mlrdni tashkil etadi.

Universitetlar bir yilda ilmiy tadqiqotlarga 9,2 mlrd yevro sarflaydi.

Yirik nemis va chet el kompaniyalari Germaniya hududidagi tadqiqot markazlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi.

Germaniya universitetlari talabalari o‘rganadigan fanlar va dars jadvalini o‘zлari tanlaydilar, ya’ni har bir semestr uchun mustaqil dastur tuzadilar. O‘quv yili 15 oktabrdan boshlanib, 2ta semestrdan iborat. Har bir semestr oxirida talaba o‘zi qatnashgan maxsus kurs va ma’ruzalarning maxsus sertifikatini yig‘adi, sertifikatlarning kerakli sonini to‘plagach, imtihon topshirishga ruxsat so‘raydi.

Oliy o‘quv yurtlarining ikkinchi tipi – maxsus oliy maktablarda o‘qish tizimli tashkil etilgan. Bunda talabalar aniq o‘quv rejasi va imtihonlar jadvaliga amal qiladilar, shu tariqa oliy ta’limni 4 yilda tugatishlari mumkin.

Germaniyada ijtimoiy lgota tizimi rivojlangan, ko‘pgina shaharlardagi talabalar uchun jamoat transporti tekin. Shuningdek, teatr, muzey, kinoteatr va b. yerlarga borib aylanish uchun chegirmalar mavjud.

Tayyorlov kollejlarida, universitetdagи kabi tekin o‘qitiladi. “Abitur” diplomi aks etgan ta’lim standartiga ko‘ra universitetga odatda imtihonsiz kiradi.

Germaniyada oliy ta’lim tizimi:

- universitetlar va institutlar;
- maxsus OO‘Yulari;
- pedagogik va teologik OO‘Yulari;
- boshqaruv va san’at oliy maktablari;
- kasbiy oliy maktablar (akademiya).

Ta’lim bosqichlari:

Asosiy ta’lim – 4 yil.

(pedagogik ta’lim bundan mustasno – 3 yil).

Amaliyot ~ 18 oy.

Imtihon topshirish va diplom olish.

Germaniyada nemis va chet ellik talabalar o‘rtasida nafaqat universitetlar, balki maxsus oliy o‘quv yurtlariga kirishni hohlovchilar ham ko‘p. Bu maxsus oliy o‘quv yurtlarida 22000 chet ellik talabalar tahsil oladilar. Maxsus OO‘YU (Fachhochschulen)larida o‘qish qisqartirilgan va amaliy vazifalarga yo‘naltirilgan. Bunday OO‘Yularida muhandislik ishi, iqtisodiyot va menedжment, qishloq xo‘jaligi, kompyuter mutaxassisligi bo‘yicha yuqori bilimlar olish mumkin.

Universitetlardan farqli holda maxsus OO‘YU doktorlik darajasini berish huquqiga ega emas. Bu ta’lim muassasasini bitirgach, Diplomgrad (2-bosqich) beriladi va bu akademik daraja hisoblanadi.

Kasbiy akademiyalar (Berufsakademien) ma'lum fanlar bo'yicha III bosqich ta'limini beradi. Bu yerda ta'lim ishlab chiqarish muassasalarida amaliy tayyorgarlik bilan birga olib boriladi.

O'zbekiston va Germaniya ta'lim tizimining o'xshash va farqli jihatlari.

Hech bir mamlakatda ta'lim tizimi xorijiy tajribalardan foydalanmasdan, bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan yangilana olmaydi va zamon talabi darajasida rivojlantmaydi.

Zero, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga faol qo'shilib borishi milliy ta'lim tizimini jahon andozalariga muvofiqlashtirishni talab qilmoqda. Hozirgi davrda ta'lim sohasida AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya mamlakatlarida erishilayotgan yutuqlar ibratlidir. Chunonchi, Germaniya ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar ichida o'z nufuziga ega bo'lganligi bois shu davlatning ta'lim tizimini o'rganishga jazm qildik.

O'zbekiston Respublikasi va Germaniya ta'lim tizimining qiyosiy tahlili quyidagicha:

1.O'zbekistonda 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga boradilar. Ixtiyoriy, pulli.

- Germaniyada 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha sinflar, maktablar qoshidagi bolalar bog'chasi, bolalar bog'chasiga boradilar. Ixtiyoriy, pulli.

2. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim 7 yoshdan 11 yoshgacha, ya'ni 4 yil davom

etadi.Ta'lim majburiy, bepul.

- Germaniyada boshlang'ich ta'limga 6 yoshdan qabul qilinadi, o'qish 4-6 yil davom etadi. Ta'lim majburiy, bepul.

3. O'zbekistonda 4 yillik boshlang'ich ta'limdan so'ng 5 yillik o'rta ta'limga o'tiladi. Ta'lim majburiy, bepul.

- Germaniyada boshlang'ich ta'limga o'tiladi. O'rta maktab tiplari: asosiy, real, aralash, maxsus maktablar va gimnaziyalar. Ta'lim majburiy, bepul.

4. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limgan so'ng AL va KHKlariga kiradilar. Ta'lim majburiy, bepul.

- Germaniyada umumiy o'rta ta'limgan so'ng kasbiy ta'lim va boshqa tipdagi maktabga boradilar.

5 Germaniyada har bir Felarda ta'lim tizimi haqida o'zining qonuni mavjud.

- O'zbekistonda respublika bo'yicha yagona "Ta'lim to'g'risidagi qonun" amalda qo'llaniladi.

6. Germaniyada darslik va o'quv qo'llanmalar qiymatining ozgina qismiga beriladi.

- O'zbekistonda maktab tizimida darsliklar, qo'llanmalar bepul beriladi.

7. Ma'lum toifadagi o'quvchilarga har ikkala davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

8. Har ikkala davlatda kasb ta'limining "dual tizimi" mavjud: O'zbekistonda kasb-hunar kollejlarida o'rta ta'lim va kasbiy ta'lim beriladi. Germaniyada kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim mavjud. Unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyat 2 yil davomida olib boriladi.

9. Germaniyada umumiy o'rta ta'lif turli tiplarga bo'linadi va ular orasida farqlar bor.

- O'zbekistonda bunday tiplarga bo'linish yo'q, lekin fanlarni chuqurlashtirib o'rganishga yo'naltirilgan maktablar bor.

10. O'zbekistonda a'llo baho "5" bo'lsa, Germaniyada "1" baho a'llo hisoblanadi.

11. O'zbekistonda lotin tili faqat tibbiyot bilan bog'liq oliy o'quv yurtlarida o'rganilsa, Germaniyada klassik gimnaziyalarda o'rganiladi.

12. Germaniyada umumiy maktabda "Fanlardan yutuqlari bo'yicha differensiyalash" joriy qilingan. Unga ko'ra bir guruhda o'qiydigan o'quvchilar o'zlashtirishiga ko'ra "A","B" va b. guruhlarga bo'linadi.

13. Germaniyada oliy o'quv yurtlarining deyarli ko'pchiligi davlat tasarrufida va hukumat tomonidan moliyalashtiriladi . Xususiy OO'Yulari ham mavjud (383 OO'Yudan 69tasi xususiy.)

- O'zbekistonda xususiy OO'Yulari yo'q.

14. Har ikkala davlatda talabalar oddiy stipendiyadan tashqari turli fondlar tomonidan joriy qilingan stipendiyalarini olish imkoniyatiga ega.



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1.Qiyosiy pedagogika tushunchasini talqin etishga doir qanday yondashuvlar mavjud?

2."Chet el pedagogikasi" va "qiyosiy pedagogika" tushunchalari o'rtasidagi umumiylilik nimada?

3."Qiyosiy pedagogika" tushunchasiga ta'rif bering.

4. Qiyosiy pedagogika fanining obyekt va predmetini aniqlashtiring.

5. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
6. Qiyosiy pedagogika fanining funksiyalarini aytинг.
7. Qiyosiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini bayoneting.
8. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarining dolzARB yo'nalishlarini sanab bering.

Belgiya ta'lIM tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Belgiyada boshlang'ich va kasbiy ta'lIM.

Belgiya ta'lIM tizimining tuzilishi

Nº	Ta'lIM bosqichlari	Yosh
1	Boshlang'ich maktab	6-12
2	O'rta maktab	12-16
3	O'rta kasbiy mактab	16-18
4	Oliy mактab	18-23

Maktabgacha ta'lIM

Belgiyada MT 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga yetganda bolalarni MTga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. MT guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar oyin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lIM majburiy ta'lIM dasturiga kiritilмаган bo'lsada, Belgiyada tahminan 90%gacha bo'lgan bolalar unda tahsil olishadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lIM muassasalar boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi.

Bolalar 6 yoshga etganda boshlang'ich mакtabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.

Maktab

Maktab ta'lifi davri 2 ta - boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi.

Bryusseldagi flamand maktab dasturiga birinchi yoki ikkinchi sinfdan boshlab, fransuz tilini o'qitish kiritilgan. Qolgan flamand maktablarining ko'p qismida bu fan boshlang'ich mакtabning 3-bosqichida o'rgatiladi. Mamlakatning fransuz tilida so'zlashuvchi qismida o'quvchining hohishiga ko'ra ingliz yoki niderland tillari ham o'rgatiladi. German tilida so'zlashuvchi qismida fransuz tili majburiy tarzda o'qitiladi. Shuningdek, Belgiyada, belgilangan ijtimoiy guruh (dengizchi va diplomatlar bolalari)ga yo'naltirilgan qator xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi.

O'quvchilar boshlangich maktabni tugatib, xuddi shunday 3 ta 2 yillik bosqichdan iborat o'rta maktabga o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanlarni ma'lum guruqlar orasidan tanlashlari shart bo'ladi va bu tanlov ma'lum darajada ularning dars jadvalini aniqlab berishga asos bo'ladi. Dars jadvalidan bu tanlangan fanlardan tashqari xamma uchun majburiy fanlar ham joy olgan. Masalan, davlat tili va jismoniy taribiya fanlari va hokazo.

Belgiya hududida 4 tipdagi o'rta maktablar faoliyat yuritadi:

Umumiy ta'lim beruvchi o'rta maktab (Algemeen Secundair Onderwijs, (ASO)). Mazkur tipdagi muassasalar o'quv dasturida mакtab bitiruvchisi 6 yil to'liq ta'lim olib, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishi ko'zda tutilgan. Mehnat bozorida ASO tugatganlik to'g'risidagi diplomli shaxslarga ehtiyoj mavjud emas, chunki mazkur tipdagi muassasalarda ta'lim ko'p hajmli nazariy bilimlar berish fanlarga qaratilgan bo'lib, amaliy va kasbiy tayyorgarlik ko'zda tutilmagan.

Texnik o'rta maktablar (Technisch Secundair Onderwijs, (TsO)) ikkita: TTK va STK kabi "tipcha"ga bo'linadi. I "tipcha"dagi maktablarda ta'lim texnik jihatni tomoniga yo'naltirilgan, II "tipcha"ga - amaliy muassasalarga ixtisoslashgan. Mazkur ta'lim muassasalarda matematika, tillar, tarix, tabiiy fanlarga urg'u beriladi, lekin ASOga nisbatan bilim hajmi kamroqdir. STK bitiruvchilari mehnat bozoriga chiqishga tayyor, TTK bitiruvchilari esa, odatda, o'qishni davom ettirishni: ixtisosi boyicha bir yil qo'shimcha tahsil olish, turizm, savdo, sog'liqni saqlash kabi sohalar boyicha bakalavr yoki hattoki magistr darajasini olishni afzal ko'rishadi.

Kasbiy-texnik o'quv yuritlari (Beroeps secundair ondwerwijs (VSO)) duradgor, zargar, g'isht teruvchi (quruvchi) usta kabi o'ziga xos mutaxassisliklar boyicha ta'lim taklif etishadi. BSO — faqat belgiya o'rta ta'limida mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi tipidir, bundan keyin oliy ta'lim olish imkoniyati ko'zda tutilmagan. Agarda ushbu ta'lim muassasasi bitiruvchisi qo'shimcha yil (7 yoki 8) o'qish istagini bildirsa, bu qo'shimcha o'quv yilidan keyin bitiruvchiga TsO diplomiga ekvivalent bo'ladiqan diplom berishadi.

O'rta badiiy ta'lim muassasalari (Kunst secundair onderwijs (KSO)). Ushbu o'quv yurtlar san'at sohasi boyicha oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun universitet yoki kollejga o'qishga kirish uchun talabalarni tayyorlaydilar. Tanlagan yo'nalishiga qarab, akterlik mahorati, xoreografiya, musiqa yoki tasviriy san'at ustuvor bo'lishi mumkin.

Belgiyada oliy ta'lim: universitetlar va oliy maktablar.

Belgiya oliy ta'limi o'zining ko'hna an'analariga ega. O'qtish jarayoni va zamонавија ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari boyicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish o'rtasidagi bog'liqlik Belgiya ta'lim tizimi uchun an'anaviy hisoblanadi. Belgiyada o'qishni tanlash jarayonida e'tiborni, asosan, ishlab chiqarish (masalan, texnologiyalar) va biznes (xalqaro biznes, iqtisodiyot, boshqaruv, huquq, moliya va boshqa)lar bilan bog'liq bo'lgan dasturlarga qaratish kerak bo'ladi. Bunda, albatta, ta'lim olib boriladigan tilni bilish to'g'risida dalillar bo'lishi kerak. Belgiyadagi ta'lim xalqaro biznesga yo'naltirilganligi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun katta imkoniyat

beradi.

Belgiya ta'limiga frantsuz, flamand va nemis hamjamiyatlari javobgar. 6 yoshdan 16 yoshgacha va kechki maktablarda 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun ta'lim majburiy va bepuldir. Savodsizlik deyarli tugatilgan. Belgiyaliklar bolalarining yarimi xususiy, aksariyat qismi katolik cherkovlarga tegishli bo'lgan maktablarda tahsil oladi. Qariyb barcha xususiy mакtablar davlat tomonidan tomonidan yordamga beriladigan mablag' – subsidiya bilan ta'minlanadi.

Maktab ta'limining birinchi bosqichi - olti yillik boshlang'ich maktab hisoblanadi. O'rta ta'lim aksariyat hollarda uchta ikki yillik bosqichdan iborat bo'lib, uning dastlabki to'rt yili majburiydir. Birinchi va ikkinchi bosqichlar o'quvchilarining tahminan yarmi umumpedagogik tayyorgarlik, badiiy ta'lim olishadi yoki texnik yoxud hunarmandchilik tayyorgarlikdan o'tadi; boshqalar esa ta'limning umumiy kursini o'tashadi. Oxirgi guruhining tahminan yarim o'quvchilari bitirgandan keyin universitetga kirish huquqini beruvchi o'rta maktabning oliy bosqichida ta'lim olishni davom ettiradilar.

Belgiyada 7 ta akademiya va 8 ta universitet faoliyat ko'rsatadi. Belgiyada oliy ta'lim qadimgi an'analarga ega: birinchi oliy o'quv yurti - Luven katolik universiteti hisoblanadi. U 1425 yili Martina V papasi tashabbusi va brabant gertsogi Jana IV ko'rsatmasiga binoan tashkil topgan. 1517 yili Erazm Rotterdam ham Luvenda uch til (ivrit, lotin, grek) maktabiga asos soldi va uning namunasida Parijda Frantsiya kolleji yaratildi.

Hozirgi kunda Belgiyaning aholisi 10 mln.dan ortiq kishidan tashkil topgan bo'lib, u erda qariyb 180 ta oliy ta'lim muassasasida 280 ming nafar talaba tahsil oladi. 1970 yili frantsuz tilida so'zlashiladigan Valloniya, niderland tilida so'zlashuvchi Flandriya, ikki tilda so'zlashiladigan Bryussel' va nemis tilida so'zlashiladigan Germaniya bilan chegaradosh bo'lgan Valloniya sharqidagi tuman 4 ta lingvistik hudud mamlakat konstitutsiyasida mustahkamlandi.

O'sha vaqt dan beri maorif federal vazirligi faqatgina o'rta ta'limning majburiyligini nazorat qiladi va barcha bosqich boyicha ta'lim to'g'risidagi diplom va sertifikatlarni berishning talablarini belgilaydi.

Ta'lrim boyicha boshqa masalalar tillar hamjamiyati vakolatiga kiradi. Shunday qilib, oliv ta'lrim masalalari Flamand hamjamiyatining ta'lrim va davlat xizmati Vazirligi, Frantsuz hamjamiyatining oliv ta'lrim, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro aloqalar va sport Vazirligi hamda Nemis tilida so'zlashuvchi hamjamiyatning ta'lrim, madaniyat, ilmiy tadqiqotlar, haykallar va diqqatga sazovor joylar Vazirligi vakolatidadir.

Universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablar

1970 yil 7 iyuldagি qonunga muvofiq OOVular universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablarga bo'linadi. Aslini olganda 7 ta Belgiya universiteti faoliyat yuritadi: L'ej davlat, Monse-Enodagi Universitet, Gent davlat, Bryussel' Erkin (frantsuz tilida va alohida flamand), Luven katolik (frantsuz tilida va alohida flamand). Ular qatorida bir nechta xorijiy universitet bo'limlari (Bryussel' va Antverpenda), hamda universitetga tenglashtirilgan qator Belgiya OOVu (odatda ular universitet fakul'teti, markaz, birlashma yoki jamg'arma nomlariga ega) faoliyat yuritadi.

OOVularning bir qismi - yuqorida nomlari qayd etilgan hamjamiyatlar hukumatlari byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat, yoki «rasmiy» o'quv yurtlar. Boshqalari shaxsiy mablag'lar hisobidan - xususiy, shaxs yoki tashkilotlar tomonidan ochilgan va "mustaqil", "erkin" nomlariga ega bo'lishgan. Ularning aksariyati Belgiyada, an'anaga ko'ra, ta'limning barcha bosqichlarini, shu jumladan oliv ta'limgni, tashkil etish va moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan Rim katolik cherkovi rahbarligida ochilgan. Ba'zi mustaqil o'quv yurtlar, xususan, katolik universitetlar hamjamiyatlar hukumatlari ko'magidan foydalanishadi.

